

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**HOZIRGI ZAMON FALSAFASINING
NAZARIY MASALALARI**

2025

Sharipov A.Z. falsafa fanlari doktori, professor.



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“HOZIRGI ZAMON FALSAFASINING NAZARIY
MASALALARI”**

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Falsafa

Buxoro – 2025

Modulning o`quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o`quv dasturi va o`quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **A.Z.Sharipov** – falsafa fanlari doktori, professor.

Taqrizchi: **B.B.Namozov** - falsafa fanlari doktori, professor.

**O`quv - uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2024 yil “27” dekabrdagi 5-sonli bayonnomma)**

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	12
III. NAZARIY MATERIALLAR	23
IV. AMALIY MASHG`ULOT MATERIALLARI	139
V. GLOSSARIY	147
VI. ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	153

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdan tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga moljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalami o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlami qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ulaming tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni “Hozirgi zamon falsafasining nazariy masalalari” bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

I. Modulning maqsadi va vazifalari

“Hozirgi zamon falsafaning dolzarb muammolari” modulining **maqsadi** pedagog kadrlarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta’minlashlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam yangilash, ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

Modulning vazifalari:

- pedagog kadrlarning falsafa sohasiga oid kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- pedagoglaming ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- falsafiy fanlardan o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlami o‘zlashtirish;
- “Falsafa” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlashdan iborat.

Modul bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi **bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:**

Tinglovchi:

- hozirgi zamon falsafasining nazariy masalalari, falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o‘rni, falsafiy bilimlar tizimida ontologiya masalalari, ijtimoiy falsafa va uning zamonaviy konsepsiyalari, sistema, element, struktura va funksiya falsafiy tushunchalarni, ijtimoiy ong va uning shakllarini tarkibiy-funksional mazmuni, falsafada ong masalasini, gnoseologik ta’limotlar va ularning zamonaviy tahlilini, agnostisizm va in’ikos nazariyasi: muammo va yechimlarini, fanda metod va metodologiya tushunchasini, ilmiy bilish metodlari va ularning zamonaviy tasnifini, analitik epistemologiyani ***bilishi kerak***;

- borliq falsafasi va uning zamonaviy tahlilini amalga oshirish, neorealizm va lingvistik tahlilning maqsad va vazifalarini yoritib berish, O‘zbekistonda

yangilanish konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy asoslaridan foydalanish
ko ‘nikmalariga ega bolishi lozim;

- ijtimoiy ong va uning shakllarini tarkibiy-funksional mazmunini yoritib berish, gnoseologik ta’limotlar va ulaming zamonaviy tahlilini amalga oshirish, mantiqiy tahlil va uning stmkurasini o‘zlashtirish, isbotlash turlarini tahlil etish va baholash *malakalariga ega bo‘lishi zarur;*

- dunyoni falsafiy idrok etishning o‘ziga xos xususiyatini tahlil etish, agnostisizm va in’ikos nazariyasi: muammo va yechimlami ochib berish, pragmatizim falsafasi va uni zamonaviy talqin etish *kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim.*

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Hozirgi zamon falsafaning dolzarb muammolari” moduli ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va ko‘chma mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi, shuningdek, ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, blis-so‘rovlardan, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishslash, va boshqa interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Hozirgi zamon falsafaning dolzarb muammolari” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma naviy asoslari” moduli bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar falsafa va falsafiy fanlarini o‘qitishda zamonaviy usullar yordamida ta’lim jarayonini tashkil etishda pedagogik yondashuv asoslari va bu boradagi ilg‘or tajribalarni o‘rganadilar, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy layoqatga ega bo‘lish, ilmiy-tadqiqotda innovation faoliyat va ishlab chiqarish faoliyati olib borish kabi kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Tinglovchilaningo‘quv yuklamasi, soat			
		Auditoriya o‘quv yuklamasi			
		jumladan	Nazariy	Amaliy mashg‘ ulot	Ko‘chma mashg‘ ulot
1.	Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o‘rni.	4	2		2
2.	Falsafiy bilimlar tizimida ontologiya masalalari.	2		2	
3.	Ijtimoiy falsafa va uning zamonaviy konsepsiyalari.	4	2		2
4.	Tarkibiy funksional yondashuv.	2		2	
5.	Borliq falsafasi va uning zamonaviy tahlili.	2			2
6.	Gnoseologik ta’limotlar va ularning zamonaviy tahlili.	2			2
7.	Ilmiy bilish metodlari va ulaming zamonaviy tasnifi.	2			2
8.	Pragmatizm falsafasi va uning zamonaviy talqini.	2			2
9.	Analitik falsafaning vujudga kelishi. Analitik epistemologiya.	4	2	2	
10.	O‘zbekistonda yangilanish konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy asoslari	4	2	2	
Jami:		28	8	8	12

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI (8 soat)

1-MAVZU: FALSAFA FANINING ZAMONAVIY FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O‘RNI. (2 soat)

Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o‘rni. Falsafiy bilimlar tizimida ontologiya masalalari. Tarkibiy funksional yondashuv. Sistema, element, struktura va funksiya falsafiy tushunchalar sifatida. Borliq falsafasi va uning zamonaviy tahlili.

2-MAVZU: IJTIMOIY FALSAFA VA UNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI. (2 soat)

Ijtimoiy falsafa va uning zamonaviy konsepsiyalari. Pragmatizm falsafasi va uning zamonaviy talqini. Falsafada ong masalasi. Ijtimoiy ong va uning shakllarini tarkibiy-funksional mazmuni.

3-MAVZU: ANALITIK FALSAFANING VUJUDGA KELISHI. ANALITIK EPISTEMOLOGIYA. (2 soat)

Analitik falsafaning vujudga kelishi. Neorealizm va lingvistik tahlilning maqsad va vazifalari. Analitik epistemologiya. Gnoseologik taTimotlar va ularning zamonaviy tahlili. Agnostisizm va in’ikos nazariyasi: muammo va yechimlar. Fanda metod va metodologiya tushunchasi. Ilmiy bilish metodlari va ulaming zamonaviy tasnifi.

4-MAVZU: O‘ZBEKISTONDA YANGILANISH KONSEPSIYASINING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI. (2 soat)

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi va yangilangan konstitutsiya. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining mazmun mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari. “Taraqqiyot strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar. Ta’lim tizimi va sog‘lijni saqlash sohasidagi o‘zgarishlar. Sud tizimi va huquqni muxofaza qiluvchi organlar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI (8 soat)

1-AMALIY MASHG‘ULOT: FALSAFIY BILIMLAR TIZIMIDA ONTOLOGIYA MASALALARI. (2 soat)

Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o‘rni. Falsafiy bilimlar tizimida ontologiya masalalari. Tarkibiy funksional yondashuv. Sistema, element, struktura va funksiya falsafiy tushunchalar sifatida. Borliq falsafasi va uning zamonaviy tahlili.

2-AMALIY MASHG‘ULOT: TARKIBIY FUNKSIONAL YONDASHUV. (2 soat)

Ijtimoiy falsafa va uning zamonaviy konsepsiyalari. Pragmatizm falsafasi va uning zamonaviy talqini. Falsafada ong masalasi. Ijtimoiy ong va uning shakllarini tarkibiy-funksional mazmuni.

3-AMALIY MASHG‘ULOT: ANALITIK FALSAFANING VUJUDGA KELISHI. ANALITIK EPISTEMOLOGIYA. (2 soat)

Analitik falsafaning vujudga kelishi. Neorealizm va lingvistik tahlilning maqsad va vazifalari. Analitik epistemologiya. Gnoseologik taTimotlar va ularning zamonaviy tahlili. Agnostisizm va in’ikos nazariyasi: muammo va yechimlar. Fanda metod va metodologiya tushunchasi. Ilmiy bilish metodlari va ulaming zamonaviy tasnifi...

4-AMALIY MASHG‘ULOT: O‘ZBEKISTONDA YANGILANISH KONSEPSIYASINING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI. (2 soat)

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi va yangilangan konstitutsiya. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining mazmun mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari. “Taraqqiyot strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar. Ta’lim tizimi va sog‘liqni saqlash sohasidagi o‘zgarishlar. Sud tizimi va huquqni muxofaza qiluvchi organlar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar.

KO‘CHMA MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

Ko‘chma mashg‘ulotlar zamonaviy jihozlar hamda innovatsion texnologiyalami qo‘llab faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish korxona va tashkilotlari, oliv ta’lim muassasalari, iqtisodiyot tarmoqlari, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstrukturlik muassasalarida olib boriladi.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari asosan interaktiv ta’lim prinsiplari asosida quyidagi o‘qitish shakllarida tashkil etiladi.

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (egallangan bilimlar asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (o‘zaro tajriba almashish orqali kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish).

MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM

METODLARI

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha talabalar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga talabalarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Talabalar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga talabalar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobjiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandardart fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanimda talabalarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan talabalarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Talabalar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi talabalarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Talabalarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda –yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.
3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.


“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.

3. Har bir talaba qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Talabalarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlari so‘raladi;
2. Talabalar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Talabalarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;
4. Fikr-g‘oyalar ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi talabalarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- talabalarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- talabalarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;

- talabalarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.


“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- O‘qituvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;
- O‘qituvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI - talabalarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda talaba kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda o‘qituvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Talabalar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. O‘qituvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqt ni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha talabalar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.


«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz talabalar bo‘lganligi sababli kuchli talabalarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha talabalarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

“DAVRA SUHBATI” METODI – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan talabalar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir talabaning bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib

turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida o‘qituvchi mavzuni boshlab beradi va talabalardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir talaba o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan talabani barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa talabalarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida “Davra suhbat” metodining tuzilmasi keltirilgan

“Davra suhbat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinadi.
2. O‘qituvchi talabalarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

3. Har bir talabaga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha talaba bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Talaba konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.

4. Talaba konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.

5. Konvertga savol yozgan talaba konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi talabaga uzatadi.

6. Konvertni olgan talaba konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi talabaga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan talabaning o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan talaba konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali talabalar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda talabalar o‘zлari bergen savollariga guruhdagi boshqa talabalar bergen javoblarini baholashlari va o‘qituvchi ham talabalarni ob’yektiv baholashi mumkin.

“ISHBOP O‘YIN” METODI - berilgan topshiriqlarga ko‘ra yoki o‘yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.

O‘yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining hulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomonidan o‘yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomonidan oraliq natijalarga ko‘ra ishtirokchilar o‘z faoliyatlarini o‘zgartirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Ishbop o‘yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo‘ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat’iy belgilangan va o‘yin davomida o‘zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o‘z maqsadlarini belgilaydilar. Ishbop o‘yinda har bir ishtirokchi alohida rolli

maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli harakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o‘zining vazifasi bo‘yicha qaror qabul qiladi, so‘ngra guruh bilan maslahatlashadi. O‘yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.

“Ishbop o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo‘riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.
2. Ta’lim oluvchilarni o‘yinning maqsadi, shartlari va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘radilar.
5. Ta’lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o‘yinni amalga oshiradilar. Ta’lim beruvchi o‘yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.
6. O‘yin yakunida ta’lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar aytildi.
7. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.


Har bir rolni ijro etuvchi o‘z vazifasini to‘g‘ri bajarishi, berilgan vaziyatda o‘zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko‘rsata olishi kerak.

“ROLLI O‘YIN” METODI - ta’lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o‘yin” metodida ta’lim oluvchilar ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagи rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop o‘yin” metodida rol ijro etuvchilar ma’lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o‘zlari hal etadilar.

Rolli o‘yinda ham ishbop o‘yin kabi muammoni yechish bo‘yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan. Rolli o‘yinlar ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o‘yin” metodida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki rollarni o‘ynashda har bir ta’lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi

“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yining maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yining maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yining maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O‘yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

“BAHS-MUNOZARA” METODI - biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- ✓ barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- ✓ “o'ng qo'l” qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;
- ✓ fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- ✓ bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- ✓ bir-birlariga o'zaro hurmat.

“Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta'lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya'ni turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta'lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

“MUAMMOLI VAZIYAT” METODI - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish

bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birlilikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“LOYIHA” METODI - bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar

rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarini baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha o‘quv guruhining birqalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalshtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak. Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.

“Loyiha” metodining bosqichlari

“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Muhandis-pedagog loyiha ishi bo‘yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma’lumotlar yig‘adilar.
2. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta’lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarini rejalshtirishlari lozim.
3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta’lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo‘yicha qaror qabul qiladilar. Ta’lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birqalikda qabul qilingan qarorlar bo‘yicha erishiladigan natijalarini muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandis-pedagog ta’lim oluvchilar bilan birqalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.
4. Ta’lim oluvchilar topshiriqni ish rejasini asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU: FALSAFA FANINING ZAMONAVIY FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI. (2 soat)

Reja:

1. Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o'rni.
2. Falsafiy bilimlar tizimida ontologiya masalalari.
3. Borliq falsafasi va uning zamonaviy tahlili.

Tayanch atamalar: *sientizm, antisientizm, ekzistentsializm, neopozitivizm, texnologik determinizm, neokantchilik, Fridrix Nitsshe, Artur Shopengauer, Karnap, Ayer, Rassel, Vitgenshteyn, Xaydeger, Sartr, Kamyu, pragmatism, sivilizatsiya, strukturalizm, yevroposentrizm.*

«Falsafa» atamasining kelib chiqishi. «Falsafa» tushunchasi yunoncha phileo - sevaman va sophia - donolik so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, donolikka muhabbat manosini anglatadi. Falsafa so‘zini qadimgi yunon mutafakkiri Pifagor miloddan avvalgi VI asrda tayyor holda (afsonalar, rivoyatlar, ananalar orqali) avloddan avlodga o‘tuvchi bilimni inson o‘z aqliga tayanib, mushohada yuritish va tanqidiy fikrlash yo‘li orqali olishi mumkin bo‘lgan bilimdan farqlash maqsadida ishlatgan.

Biroq, insonning dunyo va o‘ziga bunday munosabati darhol yuzaga kelgani yo‘q. Insonning tabiatga qarshilik ko‘rsatish, ishlab chiqarish vositalarini yaratish va ko‘paytirish qobiliyatları rivojlangunga va o‘sgunga, buning natijasida etarli tajriba va bilimlar to‘plangunga, odamlar aqli ko‘p sonli savollarga javob izlash uchun etarli darajada yuksalgunga qadar insoniyat uzoq va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tgan. SHu bois falsafaning mohiyatini, shuningdek uning paydo bo‘lish sabablari va sharoitlarini tushunish uchun gapni inson dunyoqarashidan boshlash lozim. Nima uchun? Shuning uchunki, falsafa dunyoqarashning asosiy tarixiy shakllaridan biri hisoblanadi. Falsafa haqida gapishtirish - inson dunyoqarashi, uning oqilona fikrlash qobiliyati haqida, binobarin, uning mohiyati va Erda hayot paydo

bo‘lish tarixi haqida gapirish demakdir. Bu erda biz hali kam o‘rganilgan murakkab muammolarga duch kelamiz, zero insonning kelib chiqishi odamlar doim javobini topishga harakat qilgan buyuk jumboqlardan biri hisoblanadi. Ammo bilimning bu sohasida echilmagan muammolar bugungi kunda ham bisyor. Xususan, inson nima uchun, qaerdan, qaysi sabablarga ko‘ra paydo bo‘lgan, degan savolga aniq, umumiy etirof etilgan javob hanuzgacha mavjud emas. Shuningdek, aql faqat insonga xosmi yoki uning inson borlig‘ida mavjudligi obektiv borliqning bir parchasi, ayrim hodisasisimi?, degan savol ham hali o‘z javobini topganicha yo‘q.

Mutaxassislar fikricha, insonda ong paydo bo‘lib, ijtimoiy mavjudot sifatida uzil-kesil shakllanganidan beri, uning asosiy xususiyatlarida jid diy o‘zgarishlar yuz bergani yo‘q, yani u hozirgi odamlardan deyarli farq qilmaydi. Ong paydo bo‘lishi esa, ilmiy tasavvurlarga muvofiq, inson tarixiy rivojlanishining odam miyasi o‘sib borayotgan mehnat faolligi va verbal (nutq orqali) muloqot tasirida o‘ta rivojlanib, murakkab mavhumliklarni tushunadigan darajaga etgan davri bilan bog‘lanadi. SHunday qilib, inson tushunchalarga tarif berish, mulohazalar bildirish va mushohadalar yuritish yo‘li bilan sodda, lekin tom manoda aqliy ish olib bora boshladi.

Dunyoqarashning mohiyati, tuzilishi va funksiyalari. Hayot tajribasi va empirik bilimlar asosida shakllanadigan dunyoqarash oddiy dunyoqarash deb ataladi va insonning dunyo haqidagi tasavvurlarining tizimsiz majmui sifatida amal qiladi. U har qanday dunyoqarashning negizi hisoblanadi va odamlarga kundalik hayoti, faoliyatida yo‘l ko‘rsatib, ularning xulq-atvori, aksariyat qilmishlarini belgilab, muhim regulyativ funksiyani bajaradi.

Keng manoda, dunyoqarash - insonning o‘zini qurshagan borliqqa va o‘z-o‘ziga nisbatan yondashuvlar tizimi, shuningdek uning mazkur yondashuvlar bilan belgilangan hayotiy ideallari, e’tiqodlari, bilish va faoliyat tamoyillari, qadriyat va modjallalaridir.

Shu tariqa tariflanadigan dunyoqarash faqat insonga xos bo‘lib, bu unda shakllangan ong va oqilona faoliyat mavjudligi bilan bog‘liqdir. Bunda inson

nafaqat tushunchalar yaratish va mulohaza yuritish, xulosalar chiqarish va qoidalarni tariflash qobiliyatini kasb etadi, balki tayyor bilimdan yangi bilim olish uchun foydalana boshlaydi.

Dunyoqarashning shakllanishiga ijtimoiy muhit tasir etadi. Aql paydo bo‘lishi bilan inson o‘zini fikrlovchi mavjudot sifatida anglay boshlaydi, unda o‘z «meni» va o‘zgalar haqida tasavvuri shakllanadi va rivojlanadi. Shu tariqa u o‘zini va o‘zini qurshagan borliqni anglaydi, o‘zi va boshqa odamlarni, o‘zi va tashqi muhitni farqlaydi, ilgari o‘ziga malum bo‘lmagan dunyoning yangi va yangi jihatlarini idrok etadi. Bunday qarashlar insonning o‘zi va o‘zini qurshagan borliq haqidagi tasavvurlari majmui sifatida shakllanadigan dunyoqarash negizini tashkil etadi. Bunda inson o‘ziga maqul va nomaqul narsalarni farqlaydi, baholar beradi, ustuvorliklar tizimini yaratadi va muayyan maqsadlarga erishishda tegishli tarzda ish ko‘radi.

Dunyoqarashning tuzilishi - dunyoni sezish, dunyoni idrok etish va dunyoni tushunish kabi eng muhim elementlardan iborat.

Dunyoni sezish - bu o‘zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etish bo‘lib, bunda tuyg‘ular, kayfiyat dunyoni go‘yoki ranglarga bo‘yaydi, uning obrazini subektiv, sof individual sezgilar orqali aks ettiradi. Masalan, bemor odamga haddan tashqari yorug‘ bo‘lib tuyulishi mumkin bo‘lgan nur, sog‘lom odam uchun normal bo‘ladi; daltonik ranglar gammasini, ko‘rish qobiliyati normal bo‘lgan odamga qaraganda butunlay boshqacha idrok etadi. Bundan dunyoni sezishning har xil, xususan optimistik, pessimistik, fojeaviy tiplari kelib chiqadi.

Dunyoni idrok etish - bu atrof borliqni ideal obrazlarda tasavvur qilishida namoyon bo‘ladi. Dunyoni idrok etish to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishi, yani borliqqa mos kelmasligi mumkin. Bu holda borliq noto‘g‘ri tasavvur qilinadi yoki illyuziyalar, suv parilari, alvastilar, kentavrilar haqidagi tasavvurlarga o‘xshash fantaziyalar paydo bo‘ladi.

Dunyoni tushunish - insonning va uni qurshagan dunyoning mohiyatini aniqlash, shuningdek tabiatda yuz beruvchi voqealarni jarayonlaming o‘zaro aloqalarini tushunishga qaratilgan aqliy-bilish faoliyatidir.

Dunyoni sezish va qisman (elementar shakllarda) dunyoni idrok etish barcha tirik mavjudodlarga xos bo'lsa xos bo'lsa, dunyoni tushunish esa faqat insongaga xos xususiyatdir.

Dunyoqarashda bilish, qadriyatlargacha munosabat va xulq-atvorni belgilash funksiyalari mujassamlashadi.

Dunyoqarashning bilish funksiyasi insonda qiziqish uyg'otuvchi barcha savollarni, shuningdek muayyan javoblarni o'z ichiga oladi. Bilish odamlar dunyoqarashini boyitadi va kengaytiradi, u jamiyatning rivojlanishiga qarab yanada teranroq va mazmunan boyroq bo'lib boradi.

Dunyoqarashning qadriyatlargacha munosabat funksiyasi - insonning hayotni va o'zini oliy qadriyat deb hisoblagan holga shakllanadi. Zero, o'z qadrini bilmagan inson o'zgalar qadrini bilmaydi va hayotda o'z o'rnini topa olmaydi.

Dunyoqarashning xulq atvorni belgilash funksiyasi - insonda o'z-o'zini tarbiyalash, manaviy madaniyatini takomillashtirish va faqat o'zining manaviy dunyosiga munosib muhit tanlash malakalarini shakllantiradi..

Shu bois, muammolarga nisbatan muayyan tarzda yondashadigan har bir odamning dunyoqarashi, savollari va javoblari doim shaxsiy o'ziga xoslik bilan ajralib turadi va hech bo'lmasa shu sababga ko'ra boshqa odamlar dunyoqarashiga hech qachon o'xshamaydi.

Dunyoqarashning intellektual, emotsiyonal va ruhiy asoslari uzviy bog'liq bo'lib, ular har bir inson uchun mutlaqo muayyan, individual xususiyatlar sifatida amal qiladi.

Intellektual, emotsiyonal va ruhiy asoslari iroda bilan uyg'unlikda e'tiqodlar - odamlar faol qabul qiladigan, ularning ong darajasi va hayotdagi modjallariga mos keladigan qarashlarni yuzaga keltiradi.

Dunyoqarashga subektning yoshi, jismoniy va ruhiy holati, fel-atvori xususiyatlari, odatlari va e'tiqodlari, shuningdek milliy madaniyat tipi, etnos xususiyatlari va ijtimoiy-madaniy omillar o'z tasirini ko'rsatadi. Dunyo haqidagi tasavvurda obektiv va subektiv tomonlarni ajratish ham o'rinli bo'ladi.

Falsafaning yangi sohalari. Falsafiy bilimning tuzilishi o'zgarmas, uzil -kesil

shakllangan emas. Falsafaning rivojlanishi va u hal qilayotgan muammolar doirasi kengayishiga qarab falsafiy bilim tuzilishida ham o‘zgarishlar yuz beradi. Darhaqiqat, o‘zini oqlamagan g‘oyalar, yo‘nalishlar va konsepsiylar bisyor, ularning aksariyati hozir juda og‘ir ahvolda, ayrimlari esa kuchli inqiroz holatini boshdan kechirmoqda. Ammo falsafa o‘zining birinchi manosida - «donolikni sevish» sifatida, haqiqatning tagiga etish usuli sifatida, jon holati sifatida va nihoyat, dunyoqarashning alohida shakli sifatida insoniyat turguncha mavjud bo‘ladi.

Buni falsafiy bilimning ayrim nisbatan yangi sohalari - tabiat falsafasi, huquq, fan, tarix, siyosat, sanat, din, texnika falsafasi, tanatologiya, gerontologiya va boshqalar ham tasdiqlaydi (bazan ular mustaqil falsafiy fanlar maqomiga davogarlik qiladi). O‘tgan asming so‘nggi o‘n yilliklarida tad qiqotning yana bir yangi va o‘ta muhim sohasi - globallashuv va u yuzaga keltirayotgan global muammolar falsafasi paydo bo‘ldiki, uni o‘rganish ham foydadan xoli bo‘lmaydi.

Ilmiy nazariyalar yoki falsafiy g‘oyalar inqirozga uchragan yoki o‘zining asossizligini namoyish etgan taqdirda, ularning bilim tizimidagi o‘rni va rolini qayta baholash amalga oshiriladi, bu esa bazan ularning nazariy va amaliy ahamiyati yo‘qolishiga olib keladi. Masalan, flogiston nazariyasi, «falsafa toshi»ni izlash, empiriokrititsizm falsafasi va o‘z ahamiyatini yo‘qotib, tarix mulkiga aylangan boshqa ko‘pgina g‘oyalar bilan shunday bo‘lgan. Bugungi kunda falsafa bilan ham shunga o‘xshash hodisa yuz beryapti, degan fikr mavjud. Hatto falsafa o‘lyapti deb hisoblaydiganlar ham yo‘q emas.

Falsafani siyosiylashtirish va sxemalashtirishning oqibatlari. Falsafani o‘ta siyosiylashtirish malum manoda zararlidir. Chunki sobiq sovet tuzumi davrida ayni falsafiy bilimni mutlaqlashtirish, uni siyosiy bilim doirasi bilan chegaralash oqibatida falsafa siyqalashdi, uning asl mazmuniga putur etkazildi. Shuningdek, falsafaning barcha vaqtarda va har qanday sharoitda o‘z ahamiyatini saqlab qolishi mumkin bo‘lgan, qolgan barcha masalalarni istisno etadigan birdan-bir to‘g‘ri asosiy masalasi bormi? Bizningcha, mazkur uzil-kesil tarif kontekstida bunday masala mavjud emas. Birinchidan, ayni holda tarixiy davrni ham, falsafiy

bilimning plyuralistik tabiatini ham hisobga olish talab etiladi. Ikkinchidan, qandaydir bitta muammoni faqat u yoki bu muayyan vazifani echish maqsadida murakkab masalalar ni sxemalashtirish, ataylab soddalashtirish to‘g‘risida so‘z yuritilayotganini tushungan holda, malum darajada shartlilik bilan mutlaqlashtirish mumkin. Masalan, falsafaning «borliq» va «substansiya» kabi ayniqsa keng tarqalgan asosiy kategoriyalari haqida so‘z yuritar va muayyan faylasuflarning ularga bo‘lgan munosabatini aniqlashga harakat qilar ekanmiz, «falsafaning asosiy masalasi»ni uzil-kesil echish tarafdoirlari ilgari surgan mantiqqa muvofiq, barcha faylasuflarni malum darajada shartlilik bilan materialistlar, idealistlar va dualistlarga ajratishimiz mumkin. Umuman olganda, agar, falsafada ayniqsa ko‘p muhokama qilinadigan muammolar doirasini aniqlashga harakat qilinayotgan yoki falsafa tarixini, u yoki bu falsafiy g‘oyalar, yo‘nalishlar, oqimlarning vorisiyligini yaxshiroq tushunish vazifasi qo‘yilayotgan bo‘lsa, bunday ajratish mutlaq o‘rinlidir.

Shuningdek, muammoga nisbatan yangicha yondashuvni yoki masalaning yangicha talqinini taklif qilishi mumkin bo‘lgan boshqacha yondashuvlar paydo bo‘lishi va mavjudligiga yo‘lni berkitmaslik uchun har qanday sxemalashtirish cheklangan xususiyatga ega bo‘lishini unutmaslik kerak.

Ayni bir masalaga boshqacha nuqtai nazaridan, g‘ayritabiiy yoki mutlaqo kutilmagan tomondan yondashish taklif qilingan, pirovardda esa avvalgi qarashlar nuqtai nazaridan erishish mumkin bo‘lmagan kashfiyotlar olingan hollarga tarixda misollar bisyor. Masalan, geotsentrik qarashlar o‘mim gelotsentrik qarashlar egallashi, nisbiylik nazariyasining paydo bo‘lishi, Rim klubiga taqdim etilgan «O‘sish chegaralari» maruzasi va hokazolar ko‘pchilik uchun tabiiy, o‘z-o‘zidan ravshan bo‘lib tuyulgan narsalarga nisbatan noan’anaviy, g‘ayritabiiy yondashuv mahsulidir. Mazkur misollar falsafada «qatiy», uzil-kesil ta’riflarga nisbatan ancha ehtiyyotkorlik bilan yondashish lozim, zero bu bazan yanglishishlarning mustahkamlanishiga, oxir-oqibatda esa - turg‘unlik va dogmatizmga olib keladi, degan fikrni faqat tasdiqlaydi.

Dunyoni bilish mumkinmi, degan savolga faylasuflar tomonidan berilgan

javoblar orasida ham ikki qarama-qarshi yondashuv ajralib turadi. Bu yondashuvlardan biri gnoseologik optimizm deb ataladi. Unga muvofiq insonning bilish imkoniyatlari umuman olganda cheklanmagan va u o‘zini qiziqtirayotgan tabiat va jamiyat qonunlarini kashf etish, narsalar mohiyatini aniqlash va dunyoning haqiqiy manzarasini yaratishga ertami, kechmi albatta muvaffaq bo‘ladi, deb hisoblanadi. Bunda G.Gegelni, va u yaratgan talimotning ko‘p sonli tarafdarlarini tilga olib o‘tish o‘rinli bo‘ladi. Ikkinchi yondashuv agnostitsizm (yunon. a - inkor va gnosis - bilim) deb ataladi. Bu yondashuv namoyondalari dunyoni, narsalar va hodisalar mohiyatini to‘la (yoki hatto qisman) bilish amalda mumkin emas, deb hisoblaydi. Bunday qarashlar ayniqsa D.Yumga xosdir. Odatda, agnostitsizm namoyandalari qatoriga I.Kant ham kiritiladi, ammo bu yondashuv ancha bahsli bo‘lib, faylasuflar orasida munozaralarga sabab bo‘lib keladi.

Falsafada shubhaning roli. Yuqorida keltirilgan ikkala gnoseologik yondashuvni taqqoslash va ularga baho berishda shubha muhim rol o‘ynaydi. Una nafaqat o‘rinli, balki ijodiy yo‘naltirilgan har qanday bilishning zaruriy elementi hisoblanadi. Shuningdek, falsafiy mulohazalar har qanday shak-shubhadan xoli bo‘lsa, notanqidiy idrok etiladigan o‘tmish va qadimda o‘zlashtirilgan qonun-qoidalarga so‘zsiz bo‘ysunish meyorga aylanib qolsa, bu, dogmatizm, turg‘unlik va tanazzulga eltadi.

Bunga qadimdayoq antik faylasuflar: elladalik Pirron, Arkesilay va shubhani fikrlashning asosiy tamoyili, inson bilimini esa - nisbiy deb elon qilgan falsafiy yo‘nalish - skeptitsizmning boshqa asoschilari etiborni qaratgan. Skeptitsizm haqiqatga shak-shubhasiz egalik va narsalarni to‘g‘ri tushunishga davogar bo‘lgan falsafiy talimotlar hukmronligiga munosabat sifatida vujudga keldi va shu manoda, ijobiy rol o‘ynadi.

Hozirgi dunyoda falsafaning ahamiyati. Bugungi kunda, tezliklar va yuksak texnologiyalar asrida falsafa kerakmi, u eskirgani yo‘qmi? Uzluksiz axborot oqimi va surunkali vaqt tanqisligi sharoitida muayyan bilim falsafani siqib chiqarmaydimi? Bunday savollar mutlaqo o‘rinlidir, lekin ularga javobni hayotning o‘zi beradi, u hozirgi zamon odami oldiga ko‘p sonli, shu jumladan

ilgari hech qachon mavjud bo‘lmagan, butunlay yangi falsafiy muammolarni qo‘yadi.

Jahon hamjamiyati III ming yillikning boshlanishini, biosfera holati va yerda hayotning davom etishi uchun o‘z javobgarligini tobora teranroq anglagan holda qarshi oldi. Ayni shu sababli insonning barkamol rivojlanishi, odamlar, xalqlar o‘rtasida, shuningdek jamiyat va tabiat o‘rtasida insoniy, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini o‘rnatish masalalari azaliy falsafiy mavzular bilan bir qatorda falsafiy tadqiqotlarda birinchi o‘ringa chiqmoqda. Shu munosabat bilan faylasuflar avvalo yer yuzida talimning holati va rivojlanish darajasidan qattiq tashvishda ekanliklarini bildirmoqdalar. Ko‘pgina faylasuflar fikriga ko‘ra, hozirgi muammolarning aksariyati zamirida aynan qoniqarsiz ta’lim va lozim darajadagi tarbiyaning yo‘qligi yotadi. Bu muammolarni echishda falsafa ham o‘z rolini o‘ynashi lozim.

Falsafa dunyoni anglash usuli sifatida. Bugungi kunda nafaqat ayrim xalqlar, balki butun jahon hamjamiyati falsafaga, o‘zining hayotdagi o‘rni va vazifasini falsafiy anglab etishga ayniqsa muhtojdir.

Falsafa real hayot bilan uzviy bog‘liq va doim inson borlig‘ining eng muhim muammolarini anglab etishga qarab mo‘ljal oladi. Ayni shu sababli hozirgi davrning muhim muammosi - globallashuv va uni falsafadagi butunlay yangi mavzu sifatida falsafiy anglab etish muhim ahamiyatga ega. Falsafa predmeti va muammolarini muhokama qilishda alohida diqqatga loyiq bo‘lgan boshqa bir mavzu insonni shaxs sifatida tarbiyalash va kamol toptirishda falsafaning roli va ahamiyatidir.

Hozirgi zamon faylasuflari bunday muammolarni echish ustida ishni davom ettirar ekanlar, “Falsafa nima? U kimga va nima uchun kerak?”, “Falsafaning vazifasi nimadan iborat?”, “Falsafadan qanday, qaysi yoshdan va nima maqsadda tahsil berish lozim?” qabilidagi bir qarashda allaqachon o‘z echimini topgan masalalarni yana kun tartibiga qo‘ymoqdalar. Bu haqda ko‘p va atroflicha so‘z yuritilgan jahon kongresslari dunyoda falsafa predmetiga, shuningdek u ijtimoiy rivojlanishga izchil tasir ko‘rsatishga qodir yoki qodir emasligiga, agar qodir

bo‘lsa, buni u qay tarzda amalga oshirishi mumkinligiga nisbatan yagona yondashuv avvalgidek mavjud emasligini tasdiqlaydi. Fikrlarning bunday rang-barangligi, yuqorida qayd etib o‘tilganidek, falsafaning o‘ziga xos xususiyati, yani u fikrlar plyuralizmi, har xil fikrlash imkoniyati bor joydagina mavjud bo‘lishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Falsafaning unga yaxlit talimotga aylanish va tilning birligiga, umumiylar qonunlar va metodologiyaga tayanish imkonini bermaydigan bu kamchiligi ayni vaqtda, u fanlararo kompleks muammolarni echish talab etiladigan murakkab tizimlar bilan ish ko‘rgan holda uning afzalligiga aylanadi.

Quyidagilar hozirgi vaqtda insoniyat uchun eng muhim fanlararo kompleks muammolar hisoblanadi: barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni taminlash; ekologiya muammolari; jamiyat hayoti barcha jabhalarining globallashuvi. Bu muammolarni falsafiy nuqtai nazardan anglab etish alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy yondashuvlardan farqli o‘laroq, muammoga nisbatan falsafiy yondashish dalillarni talqin qilishda ko‘proq erkinlik berilishi, ilgari surilayotgan qoidalarni isbotlashga nisbatan engilroq talablar qo‘yilishi, musho hadaga asoslangan tariflar berish, subektiv baholash huquqi va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Bunday tadqiqotlar bir qarashda uncha katta ahamiyatga ega emasdek bo‘lib tuyulishi ham mumkin. Lekin amalda bunday emas.

Birinchidan, falsafiy tadqiqot oqilona bilishning fanda olingan natijalarni tekshirish (verifikatsiya qilish) yoki rad etish (falsifikatsiya qilish) imkoniyati yo‘qligi tufayli lozim darajada samara bermagan yoki umuman ojiz bo‘lib chiqqan sohasida amalga oshiriladi. Insoniyat oqilona bilishning bundan boshqa usullariga ega emas.

Ikkinchidan, falsafiy refleksiya muammoni ko‘rish ufqini kengaytiradi, uni tadqiq etishga nisbatan yangicha, o‘ziga xos yondashuvlarni taklif qiladi, shu jumladan fanga bunday yondashuvlarni ilgari surishga ko‘maklash adi. Zero, aniq tariflar va ishonchli dalillarga tayanadigan fan o‘z fikrlari va xulosalarida bunday erkinliklarga yo‘l qo‘ya olmaydi. Vaholanki, falsafiy tafakkur mulohaza yuritish va baholashlarga nisbatan erkin yondashuvsiz o‘zining betakrorligini yo‘qo tadi.

Hamonki plyuralizm falsafada meyor hisoblanar, har bir alohida miyada esa monizmga, yani qarashlarning tartibga solingan, yaxlit va nisbatan ziddiyatlardan xoli tizimiga kelish lozim ekan, falsafani qanday o‘zlashtirish, undan qanday saboq berish mumkin?

Butun dunyoda aksariyat faylasuflarni birinchi navbatda ayni shu masala qiziqtiradi. Xususan Suqrot, Seneka va o‘tmishning boshqa mutafakkirlari tajribasiga tayangan holda: Falsafa faktlarni eslab qolishni o‘rgatmasligi, balki mulohaza yuritish va savollarga javob berish qobiliyatini rivojlantirishi lozim. Falsafadan saboqlar inson har bir masala yuzasidan mutafakkirlar fikriga murojaat etmasdan, o‘zi mustaqil o‘ylashni va o‘z aqliga qulq solishni o‘rganishini nazarda tutmog‘i darkor. Ayni shu sababli falsafaning vazifasi insonga muloqot qilishni o‘rgatish, u o‘z shaxsiyatining ahamiyatini ko‘rsatishga emas, balki haqiqatning tagiga etishga harakat qilishiga erishishdan iborat. Bu, o‘z navbatida, barcha odamlar o‘ziga atrofdagilar qulq solishiga loyiq ekan ligini nazarda tutadi.

Bu juda topib aytilgan so‘zlar falsafani fan sifatida o‘rganish, uni bilimlar, tayyor qoidalar va tariflarning muayyan yig‘indisi sifatida o‘zlashtirish mumkin emas, degan fikrni yana bir karra tasdiqlaydi. Insonga talim berishda paydeyya yo‘lini tanlash - unga «nimam ko‘rish lozimligi»ni emas, balki «qaerga va qanday qarash kerakligi»ni o‘rgatish lozim. O‘z-o‘zidan ravshanki, mazkur vazifani ijodiy yondashuvsiz, o‘quvchi va o‘qituvchining qiziquvchanligi va intiluvchanligisiz hal qilib bo‘lmaydi, falsafa esa o‘zining sof ko‘rinishida yo‘qoladi, «havoga sovuriladi», pirovardda kimdir bayon etadigan, kimdir “o‘tishi”, o‘rganishi va qolaversa, imtihon topshirishi lozim bo‘lgan “fan”gina qoladi. Boshqacha aytganda, falsafadan talim berish va uni o‘zlashtirish zamirida ham, albatta ijod yotishi lozim.

2. Falsafiy bilimlar tizimida ontologiya masalalari.

Falsafa tarixida borliq muammosi. Borliq muammosini falsafiy anglab etishga ilk urinishlar miloddan avvalgi birinchi ming yillikda vujudga kelgan qadimgi Markaziy Osiyo, hind va qadimgi xitoy falsafalaridayoq kuzatiladi. Xususan, Markaziy Osiyoning eng qadimiy kitobi “Avesto”da, borliq harakatdagi

dunyo, butun jonli va jonsiz narsalarning uyg‘unligidagi mavjudlik deb ifodalanadi.

Vedalar (qadimgi hind tafakkurining ilk yodgorliklari) va (ularga diniy-falsafiy sharhlar) -Upanishadalarda yaxlit manaviy substansiya, o‘lmas jon haqidagi g‘oyalar, shuningdek dunyo haqidagi tasavvurlar o‘z aksini topgan. So‘nggi zikr etilgan tasavvurlarga muvofiq butun borliqning negizini tabiiy asoslar - olov, havo, suv, yorug‘lik, makon, vaqt tashkil etadi. Qadimgi Hindiston mutafakkirlari borliq sirining tagiga etishga harakat qilar ekanlar, quyosh tunda qaerga ketadi, yulduzlar kunduzi qayoqqa yo‘qoladi kabi savollarga javob topishga uringanlar va bu tasavvurlarni eng qadimgi kitob - Rigvedalarda aks ettirganlar.

Qadimgi Xitoy falsafasi avvalo ijtimoiy muammolarga qarab mo‘ljal olgan, unda inson borlig‘iga, shuningdek ijtimoiy borliqqa ko‘proq etibor berilgan. Ayni vqtda, tabiatning birinchi asoslari ham etibordan chetda qolmagan. Bu qiziqish, xususan, narsalar va hodisalarning butun rang-barangligini belgilovchi besh stixiya (suv, er, daraxt, temir, olov) haqidagi talimotda o‘z aksini topgan. Keyinroq “O‘zgarishlar kitobi”da borliqning butun rang -barangligini tashkil etuvchi bunday birinchi asoslarning sakkiztasi qayd etiladi.

Xudolarning kelib chiqishi, ularning hayoti, ishlari, o‘zaro kurashi haqida hikoya qiladigan va shu tariqa qadimgi odamlarning dunyoning vujudga kelishi va evolyusiyasi haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan kosmogonik miflar Suqrotga qadar avvalo tabiat falsafasi sifatida yuzaga kelgan va rivojlangan yunon falsafasining birinchi manbai bo‘lib xizmat qildi. Ilk yunon faylasuflari o‘z asarlarini odatda “Tabiat haqida” deb nomlaganlari, ularning o‘zlarini esa naturalistlar, “fiziklar” deb atalishi bu fikrni tasdiqlaydi.

Qadimgi yunon falsafasi vujudga kelgan paytdan boshlab ular butun borliqning birinchi sababini mavjud voqelikning o‘zidan izlaganlar, uni dam suv (Fales) yoki havo (Anaksimen) deb, dam hamma narsani boshqaradigan boqiy va Cheksiz asos - «apeyron»(Anaksimandr taxminan mil. av. 611 -545 yillar) deb tavsiflaganlar. Anaksimandr hatto jonli mavjudotlarning tabiiy kelib chiqishi g‘oyasini ilgari surgan. Uning fikricha, mazkur mavjudotlar dengiz suvida vujudga

kelgan va suv o'tlaridan paydo bo'lgan. So'ngra baliqsimon mavjudotlar quruqlikka chiqqan va ulardan odamlar rivojlangan. Shunga o'xshash fikrlarni Ksenofan (mil. av. 580-490 yillar) ham ilgari suradi. U hamma narsa Yer va suvdan vujudga keladi va rivojlanadi, hatto «biz ham Yer va suvdan paydo bo'lганмиз», deb hisoblaydi.

O'sha davrning bosh falsafiy masalasi - «hamma narsa nima?» degan savolga javob berar ekan, Pifagor (mil. av. 580-500 yillar) «hamma narsa sondir», degan xulosaga keladi. U Erning sharsimonligi haqidagi g'oyani birinchi bo'lib ilgari suradi.

Parmenid (mil. av. 540-480-yillar) faylasuflar orasida birinchi bo'lib borliqni kategoriya sifatida tavsiflagan va uni maxsus falsafiy tahlil predmetiga aylantirgan. U haqiqiy borliq mohiyatining o'zgarmasligi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Parmenid fikricha, borliq paydo bo'lмаган va u yo'q ham bo'lmaydi, chunki undan boshqa hech narsa yo'q va bo'lishi mumkin ham emas. Borliq yagona (uzluksiz), harakatsiz va barkamoldir. U o'z chegaralariga ega bo'lib, «ulkhan mutlaqo yumaloq SHarga» o'xshaydi.

Eleatlar maktabi vakili bo'lgan (samoslik) Melis «Tabiat yoki borliq haqida» deb nomlangan asarida borliq chegarasiz deb qayd etadi. Uning fikricha, agar borliqning chegarasi bo'lsa, bu borliq yo'qlik bilan chegaradoshdir. Biroq, hamonki yo'qlik mavjud emas ekan, borliq ham chegarali bo'lishi mumkin emas.

Shunday qilib, qadimgi yunon falsafasining Suqrotga qadar bo'lgan davrida ontologiya sezilarli darajada rivojlangan: o'sha davr atoqli faylasuflarining deyarli barchasi borliq muammosini bevosita yoki bilvosita o'rganib, uni, boqiy va barkamol kosmos, «yagona tabiat», yani moddiy-hissiy dunyo bilan tenglashtiradi. Masalan, Empedokl (mil. av. 484-421 yillar) «borliq» atamasini bevosita ishlatmagan bo'lsa ham, «barcha narsalarning to'rt negizi» (olov, havo, suv va er) haqida so'z yuritar ekan, dunyo (kosmos) tuxumsimon ko'rinishga ega deb hisoblagan, hayot nam va issiq suv o'tlaridan kelib chiqqani haqida mulohaza yuritgan. Demokrit va Levkipp atomlarni muayyan modda sifatida tavsiflab, ularni «bo'shliq» - yo'qlikka zid o'laroq, «to'la» yoki «qattiq» borliq bilan

tenglashtirgan.

SHu davrda borliqni tushunishga nisbatan dialektik yondashuv ilk bor namoyon bo‘ladi. Geraklit (mil. av. 544-483 yillar) butun dunyo muttasil harakat va o‘zgarish jarayonini boshdan kechiradi deb hisoblagan va shu munosabat bilan «ayni bir narsa mavjud va nomavjuddir» deb qayd etgan..

Aristotel (miloddan avvalgi 322-384 yillar). «Borliq nima?» degan savol qo‘ygan, tafakkur va borliqning bir xilligi g‘oyasini ilgari surgan. Aristotelning fikricha, «borliq kategorial so‘zlash shakllari orqali ifodalanuvchi barcha narsalarga o‘z-o‘zidan bog‘lanadi. Zero, bunday so‘zlash usullari qancha bo‘lsa, borliq ham shuncha manoda ifodalanadi. Ayrim iboralar narsaning mohiyatini, ayrimlari - sifatini, ayrimlari - miqdorini, ayrimlari - nisbatini, ayrimlari - harakati yoki

o‘zgarishim, ayrimlari - «qaerda»ligini, ayrimlari - «qachon»ligini anglatgani sababli, borliq ularning har biriga mos manolarga ega bo‘ladi»k

Aristotel ontologiyasi asosida uchta talimot yotadi:

- a) borliqning kategorial tahlili (kategoriyalar haqidagi talimot)
- b) borliqning kauzal tahlili (borliqning sabablari haqidagi talimot)
- v) borliqning imkoniyat va voqelik munosabati orqali tahlili. (imkoniy borliqdan voqelikka o‘tish jarayonining tahlili). Demak, Aristotel ontologiyasini tushunish uchun ana shu uch talimot yoki tahlil mazmuniga tayanish kerak .

Borliq tushunchasini Platon (mil. av. 427-347 yillar) sezilarli darajada kengaytirdi. U nafaqat moddiy, balki ideal narsalar ham borliqqa ega ekanligini falsafa tarixida birinchi bo‘lib ko‘rsatib berdi. Platon «haqiqiy borliq» bo‘lishi «obektiv mavjud g‘oyalar dunyosi»ni «hissiy borliq»qa qarama-qarshi qo‘ydi. Bunda u inson ongida mustaqil mavjud bo‘lgan tushunchalar borlig‘ini ham ko‘rsatib o‘tdi va shu tariqa ilk bor «borliq» tushunchasiga amalda mavjud bo‘lgan barcha narsalarni kiritdi.

Borliq muammosiga oid Demokrit va Platon yondashuvi.. Birinchi Demokrit yondashuvi borliqni turli tarzda namoyon bo‘lishi va ongda aks etishi (diskret situativ-empirik) ko ‘rinishida tushunishni nazarda tutadi hamda naturalizm

sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holda borliq muayyan empirik harakatlarga bog‘liq bo‘ladi va insonning har bir kuni nimadan tashkil topsa, Shuning o‘zidangina tashkil topadi. Ikkinchı Platon yondashuvi borliqning mohiyati xususida alohida mushohada yuritishga yo‘naltiradi, bunda borliq g‘oyaga, erishib bo‘lmaydigan orzuga, amalga oshmaydigan, noreal jarayonga aylanadi. Borliqning mazkur sxolastik talqini shiorlar, dasturlar, chorlovlar va deklaratsiyalarda hozirgacha mavjud. Real hayot jarayonida bu ikki qarama-qarshi yondashuv yakka, xususiy va umumiying o‘zaro aloqadorligi bilan barham topadi. Zero, o‘zining yakkaligida o‘z umumiyligini ifoda etmaydigan, o‘zining mavjudlik holati bilan o‘zgarish va yo‘q bo‘lishni nazarda tutmaydigan biron ta ham narsa va hodisa yo‘q. Voqealar borliqning mohiyatini namoyon etadi, haqiqiy hayot faoliyatining parchasi tarzida yangi sifat kasb etadi. Ushbu jarayondagi shakllanish, o‘zgarish, rivojlanish hayot jarayonining tarkibiy qismlaridir. Keyinchalik falsafa tarixida borliqning ko‘p sonli har xil talqinlari shakllandı, lekin ularning barchasi borliq haqidagi hissiy va oqilona tasavvurlar atrofiga u yoki bu tarzda tiziladi. Bunda fikrlar va yondashuvlar rang-barangligi namoyon bo‘ladi.

O‘rta asrlar G‘arb va Sharq falsafasida “haqiqiy borliq” - “Xudoning borlig‘i” va “haqiqiy bo‘lman”, yani Xudo yaratgan borliq farqlanadi. Demak O‘rta asrlarda borliqning oliv asosi Xudodir, degan g‘oya ilgari surildi. Barcha barkamolliklar yig‘indisi sifatida Xudo mavjudlik xususiyatiga ham egadir, chunki mavjud bo‘lman mavjudot nomukammaldır. Binobarin, hamma narsaning mavjudligi Xudoda mujassamdir. Xudo borligi to‘g‘risidagi ontologik dalilning shiorlaridan biri ana shundan iboratdir. Unga ko‘ra, butun dunyoni bir joyga bo‘ysunish, quyi va oliyning subordinatsiyasiga asoslangan ierarxik tuzilmalar qamrab olgan. Bunda inson ruhi va ilohiy asosning o‘zaro tasiri masalasi bosh muammoga aylanadi.

Foma Akvinskiy ontologiyasida borliq ham ehtimol tutilgan, ham amalda mavjud deb qaraladi. Borliq - ayrim narsalarning mavjudligi, yani substansiyadir. Foma Akvinskiy imkoniyat va voqelik kabi kategoriyalar bilan bir qatorda materiya va shakl kategoriylarini ilmiy muomalaga kiritadi. Bunda materiya

imkoniyat sifatida, shakl esa - voqelik sifatida qaraladi.

Foma Akvinskiy Aristotelning shakl va materiya haqidagi asosiy g‘oyalaridan foydalanib, din haqidagi talimotni ularga to‘la bo‘ysundiradi. Materiya shaklsiz mavjud bo‘lmaydi, shakl esa oliy shaklga yoki «shakllaming shakli» - Xudoga bog‘liqdir. Xudo esa sof manaviy mavjudot. Shaklning materiya bilan birikuvi moddiy dunyo uchungina zarur. Boz ustiga materiya (Aristoteldagi kabi) passivdir. Unga shakl faol tus beradi. Foma Akvinskiy «ilohiy borliq», hamonki u o‘z-o‘zidan ravshan narsa emas ekan, tafakkurimiz anglashga qodir bo‘lgan narsalar orqali isbotlanishi lozim. U Xudo borligining hozirgi zamon katolik cherkovi ham foydalanuvchi o‘z dalil-isbotini taklif qiladi. Demak, o‘rta asrlarning borliq muammosi teotsentrik xususiyatga ega.

Sharqning buyuk mutafakkiri Forobiy “Fuqarolik siyosati” va “Fozil shahar odamlari” asarida borliq va uning ibtidosi masalasi haqida fikr yuritadi. Forobiy borliq muammosini hal qilishda “vujudi vojib” va “vujudi mumkin”ning o‘zaro nisbatiga murojaat qiladi. Uning fikricha “vujudi vojib” barcha mavjud yoki paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsalarning birinchi sababi. Birinchi sabab sifatida u o‘zga turkiga muhtoj emas. U mutloq borliq va donishmandlik ifodasi. “Vujudi mumkin” esa doimo o‘zgarishda, ziddiyatli munosabatlarda bo‘lib, unda barcha narsalar oddiydan murakkabga, tartibsizlikdan tartiblilikka qarab harakat qiladi. “vujudi vojib“ yaratgan eng buyuk voqelikdan biri inson aqlidir. U “Fuqarolik siyosati” asarida borliqni olti darajaga bo‘ladi:

1. Birinchi holatdagi sabab.
2. Ikkinchi holatdagi sabab.
3. Uchinchi holatdagi aqli faol.
4. To‘rtinchi holatdagi instinkt.
5. Beshinchi holatdagi shakl.

6. Oltinchi holatdagi materiya. Forobiy bu darajalarning har biriga tarif beradi. Keyin u “uchinchi aql” - aqli faolni tariflaydi. Unga ko‘ra, aynan “aqli faol”ga ko‘ra, insonning tabiiy, manaviy va ruhiy hayoti shakllanadi.

Forobiy dunyoning rang-barangligini tushuntirish uchun Aristotelning shakl

va materiya haqidagi talimotidan foydalangan. Forobiy borliqning birinchi sababi va harakat manbai sifatida Xudo mavjud deb hisoblagan bo‘lsa-da, uning falsafasi bilish va borliqning murakkab masalalarini echishga intilish bilan tavsiflanadi. Ayni shu sababli faylasuf borliqning holatlarini, uning shakllarini: oddiy elementlar - havo, olov, er, suvni; shuningdek minerallar, o‘simpliklar, hayvonlar, inson va osmon jismlarini sinchiklab o‘rganadi. Shu tariqa u tashqi dunyoning obektiv mavjudligiga urg‘u beradi. Forobiyning falsafiy qarashlari Sharq falsafasining rivojlanishiga kuchli tasir ko‘rsatdi.

Ibn Sino fikricha ham borliqning asosi “vujudi vojib” yani Ollohdir. Vujudi vojib bu birinchi mohiyat. Uning mavjudligi sababini boshqa narsalardan qidirish noo‘rin. Chunki birinchi sabab uning natijasi bo‘lgan xilma xil jarayonlarning mohiyatiga bog‘liq bo‘la olmaydi . Zero vujudi vojibning mavjudligi uning o‘ziga bog‘liq. U yagona, abadiy mohiyat. Unda kamchilik va qusurlar bo‘lishi mumkin emas. Vujudi vojib doimiy faol, unda toliqish sustlik bo‘lishi mumkin emas. Vujudi vojib vujudi mumkining yaratuvchisi. Vujudi mumkining ichki mohiyati harakat bilan bog‘liq. Ibn Sinoning borliq haqidagi qarashlari keyingi mutafakkirlar ijodiga ijobiy tasir ko‘rsatdi.

Tasavvuf talimotida borliq muammosi. Tasavvufda oriflar va oshiqlar o‘zlarining poetik asarlarida va mifologik g‘oyalarida borliq haqidagi bilimlarini bayon etganlar.

Tasavvuf talimotida ontologiya birinchidan, ramz, majozlar, qiyoslarda o‘z ifodasini topadi. Ikkinchidan, ushbu ontologiya inson tafakkuriga emas, tuyg‘ularga yo‘nalgan, musiqa jo‘rligi, tasviriy sanat asarlarida namoyon bo‘lgan, “Aruz” vaznida bitilgan maqomlarda kuylangan. Uchinchidan, poeziya qalb faolligining mahsuli hisoblanadi va u asosan, tuyg‘ularga tasir etadi. Buni anglashning mantiqiy tafakkurdan yuqori shakli, deyish mumkin. Shu manoda poeziyanı tushunish uchun ongning mantiqiy (nazariy) tafakkurdan yuqoriroq shakli - intellektual intuitsiya taqazo etiladi. Chiziqli (mantiqiy) tafakkurning yolg‘iz o‘zida esa, na intellektual va na estetik (hissiy) intuitsiya ishtirok etmaydi. Shu manoda A.Navoiy aytganidek, majozlar haqiqatga ancha yaqinroq.

To‘rtinchidan, ramzlar, majozlar hammaga ham aytilishi mumkin bo‘lmagan bazi g‘oyalarni (sirlarni) muayyan odamlargagina etkazish vazifasini bajargan .

Tasavvuf talimoti vakillaridan biri Nasafiy ontologiyasi sof Vahdat nimaligini tushunishdan boshlanadi. Uning fikricha borliqning mohiyati bo‘lgan sof (musaffo) Vahdat (birlik), jism va ruhning manbaidir, u kitob va kalomning ham boshi, malakut (farishtalar) va mulk (moddiyat) olamlarining asosi, butun borliq va odamning manbaidir. Uni sufizmda jabarut, deb ataydilar (Jabarut - arab tilida «Buyuklik», ulug‘lik degan manolarni bildiradi). Mulk va malakutda bir jami narsalar Jabarutda (tezis holida) mavjud, deb ko‘rsatiladi (bu Aristotelning «imkoniyat» kategoriyasida yoki potensiyada o‘z ifodasini topgan). Xullas Sharqda ontologiya masalasi Xudo borlig‘i bilan bog‘liq holda o‘rganiladi.

Yangi davrda borliqning mohiyati Xudoning ishlariga emas, balki tabiat qonunlariga bog‘lanadi. Tabiat borliqning butun yashirin manosini qamrab oladi, shu sababli u bilan muloqot qilish, uning tabiyilik darajasini sinab ko‘rish muhimdir. Tabiatni o‘rganuvchi fanlar birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda tashabbuskorlik, faollik va omilkorlikning rivojlanishi individualizmga asoslangan antropotsentristik dunyoqarashni shakllantiradi.

XVII-XVIII asrlarning faylasuflari Golbax, Gelvetsiy, Lametri borliq tushunchasini fizik borliq bilan bog‘laydi. Bu faylasuflarning naturalistik qarashlari mexanikaning faol rivojlanishi bilan belgilangan va ularning tabiat haqidagi tabiiy- ilmiy tasavvurlarini aks ettirgan. Bundan borliqni «naturallashtirish» g‘oyasi kelib chiqqan.

Spinoza (1632-1677) dunyo haqidagi monistik talimotni yaratdi. Uning monizmi panteizm ko‘rinishida namoyon bo‘ladi: Benedik Spinoza o‘z

ontologiyasida Xudo va tabiatni ayniylashtiradi, bunda Xudo yaratuvchi tabiat va yaratilgan tabiat sifatida amal qiladi. Ayni vaqtda B.Spinoza birgina moddiy substansiya mavjud bo‘lib, uning asosiy atributlari ko‘lamlilik va fikrlashdir, degan g‘oyani ilgari suradi. Shunday qilib, butun tabiat u Xudo bo‘lgani uchungina emas, balki unga fikrlash xos bo‘lgani uchun ham jonli hisoblanadi. Spinoza butun tabiatni jonlantirib, shu tariqa gilozoist-faylasuf sifatida

ham namoyon bo‘ladi.

Jyulen Ofre de Lametri (1709-1751) moddiy dunyo «o‘z holicha mavjud» ekanligiga, uning boshi ham, oxiri ham yo‘qligiga ishongan. Lametri talimoti Epikurning atomistik g‘oyalari, Spinozaning monistik talimoti va J.Lokk sensualizmi tasirida vujudga kelgan. Lametri jonni aql faoliyati funksiyasi va ko‘rinishi deb hisoblagan va Dekartning umrboqiy nomoddiy jon haqidagi g‘oyasi asossiz ekanligini isbotlashga harakat qilgan.

Deni Didro borliq muammolarini o‘rganish sohasiga dialektikani tatbiq etadi. Uning fikricha, butun materiya his qiladi (bu gilozoizm nuqtai nazari). Ammo u «inert hissiylik» va «faol hissiylik»ni farq qiladi. «Faol hissiylik» muayyan tarzda uyushgan materiyadagina namoyon bo‘ladi.

Nemis klassik falsafasi «substansiya» (dunyonи tushunish zamirida yotuvchi, nisbatan barqaror va mustaqil holda mavjud mohiyat), «mutlaq «Men»ning erkin, sof faoliyati» (Fixte), «obektiv rivojlanuvchi g‘oya» (Gegel) kabi falsafiy kategoriyalarni qayd etib, borliq muammolari talqiniga yanada teranroq mazmun baxsh etdi.

Jumladan Gegelning «Ruh fenomenologiyasi» asari falsafiy tizimga o‘ziga xos debochadir. Bu asarda Gegel inson ongi turli darajalari rivojlanishining izchil qatorini tahlil qiladi.

Gegel tizimining birinchi va muhim qismi - «Mantiq» «Ruh fenomenologiyasi»ning yakuni va xulosasidir. Bu subekt va obektga qadar mavjud bo‘lgan «sof fikr» sohasidir. Mantiqda uning o‘zi va mantiq shakllaridan tashqari hech qanday empirik mazmun mavjud emas. Mantiq tarix va tabiatdan oldin paydo bo‘lgan. Mantiq ularni yaratgan.

Mantiq uch qismga: borliq, mohiyat va tushuncha haqidagi talimotga bo‘linadi. Borliq va mohiyat tushuncha o‘zini to‘liq namoyon etgunga qadar «ko‘tariladigan» pillapoyalar sifatida qaraladi. «Mantiq»da mutlaq g‘oyaning rivojlanishi mavhum mantiqiy kategoriyalar ko‘rinishida yuz beradi. Uning tayanch nuqtasi - borliq haqidagi sof mavhum fikr. Dastlab mazmunsiz bo‘lgan bu «sof borliq» tushunchasi «nimadir» orqali o‘z mazmunini kasb etishga harakat

qiladi. Bu «nimadir», o‘z navbatida, «muayyan borliq»dir. Gegel fikriga ko‘ra, mutlaq g‘oyaning vujudga kelish jarayoni ayni shu tariqa boshlanadi. «Muayyan borliq» keyingi bosqichda «qandaydir muayyan borliq» sifatida amal qiladi yoki sifat kasb etadi. Sifat kategoriyasi miqdor kategoriyasi bilan birga rivojlanadi. Sifatli miqdor yoki miqdoriy sifat esa o‘lchov hisoblanadi. Borliq haqidagi talimotda Gegel dialektika qonunlaridan biri: miqdordan sifatga va sifatdan miqdorga o‘tish, rivojlanish jarayonlari sakrash tarzida yuz berishini asoslashga harakat qiladi.

Hodisa sifatida tushuniladigan borliqdan Gegel yanada teranroq, ichki qonuniyatlargacha - mohiyatga o‘tadi. Bu qismda Gegel qarama-qarshiliklarning bir-biriga o‘tishi, ularning birligi, ayniyat va kurash to‘g‘risidagi qonunni tahlil qiladi. Gegel fikriga ko‘ra, ziddiyat - bu qarama-qarshiliklarning o‘zaro nisbatidir. Ular bir-birisiz mavjud bo‘lmaydi, lekin turli yo‘ldan rivojlanadi va bu ular o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga sabab bo‘ladi. Ziddiyatni echish yoki unga chek qo‘yish talab etiladi. Gegel ziddiyatni asos va oqibatning, shakl va mazmunning, hodisa va mohiyatning, imkoniyat va voqelikning, tasodif va z aruriyatning o‘zaro nisbatida ko‘radi. Ziddiyat haqidagi talimotni rivojlantirar ekan, Gegel ichdan zarur bo‘lgan, har qanday o‘zgarish va rivojlanishning manbai sanalgan «o‘z-o‘zidan harakat» haqida xulosa chiqaradi.

XX asrda borliqqa munosabat. XX asr borliqni tushunishni tarixiylik, insonning mavjudligi, qadriyatlar va til bilan bog’lab, uning talqinini kengaytirdi. Neopozitivizm falsafiy yo‘nalishi esa, avvalgi ontologiya falsafanining emas, balki ayrim fanlarning predmeti deb hisoblab, falsafadagi borliq muammosini soxta muammo sifatida talqin qildi.

Borliq mohiyatini tushunib etishda eng yangi qarashning o‘zagini insonning ijtimoiy ijodi tashkil etadi. Bunda borliq hayot faoliyati jarayoni sifatida tushuniladi. Fan-texnika taraqqiyotining suratlari tobora jadallahib borayotgan hozirgi sharoitda mazkur dunyoqarash ko‘pincha texnokratik dunyoqarash deb ataladi.

Noklassik borliq. Noklassik falsafa dunyoning aqlga muvofiqligi,

shuningdek inson ongining mustaqilligiga shubha bildirdi. Pozitivistlar umuman ontologiyani yaratishdan bosh tortdilar. Irratsionalizm, marksizm va ekzistensializmda ontologik konsepsiylar hayot, jamiyat va inson tushunchalari rivojlantirildi, ular borliqning noyob usullari sifatida tavsiflandi. Quyida noklassik falsafada borliqqa munosabatni tahlil qilamiz.

Borliqning irratsionalistik konsepsiysi. Falsafiy irratsionalizm asoschisi A.Shopengauer olamning aqlga muvofiqligi haqidagi tezisga shubha ko‘zi bilan qaraydi. Uning fikricha, borliqnmg o‘zi emas, balki bizning u haqdagi tasavvurimiz aqlga muvofiqdir, zero tasavvur - bu inson aqlining mahsulidir. Ammo tasavvur - bu hodisa, mohiyat darajasida esa dunyoni aqliy idrok etish mumkin emas. SHopengauer o‘zining «Dunyo intilish va tasavvur sifatida» deb nomlangan asarida dunyoning borlig‘ini ikki tarkibiy qismga - «yashashga intilish sifatidagi dunyo» va «inson tasavvuri sifatidagi dunyo»ga ajratadi. Uning fikricha, yashashga intilish haqiqiy borliqdir. Yashashga intilish ko‘r-ko‘rona va nooqilonadir, zero uning asosiy niyati - o‘z-o‘zini asrashdir. O‘z-o‘zini asrash instinkti - butun tiriklikning tabiiy xossasidir. Ammo Shopengauer romantiklarga ergashib, yashashga intilish dunyoning barcha narsalariga va umuman dunyoning o‘ziga xosdir, deb hisoblaydi. Dunyo haqidagi bunday mifopoetik tasavvur hayotda yana tariflar va tushunchalar tilida ifodalab bo‘lmaydigan o‘ziga xos tabiiy stixiyani ko‘rish imkoniyatini beradi.

Fridrix Nitsshe (1844-1900) borliqning ikki asosi: dionisiycha hayotiy asos va apolloncha bir yoqlama-intellektual asosni ajratgan va haqiqiy madaniyat bu asoslarni muvozanatga solishga harakat qilishi lozim, deb hisoblagan. Evropa madaniyati mazkur idealni ro‘yobga chiqara olmadni va inson borliq deganda stixiyali shakllanishni emas, balki tartibga solinganlikni tushunib, o‘z mavjudligining asosiy negizlaridan uzoqlasha boshladi. Vaholanki, hayot abadiy harakat va shakllanishdan iboratdir.

Hayotning mazmun va mohiyati hokimiyatga intilishda namoyon bo‘ladi. Bunday intilish butun tiriklikka xosdir. Unga intellektning hukmronligi, o‘z yaqiniga muhabbatni targ‘ib qiluvchi axloq va tenglikni elon qiluvchi sotsializm

monelik qiladi. Bularning barchasi qullar axloqini tashkil etadi. To‘ralar axloqi esa hayotning qimmati, odamlar o‘rtasidagi tengsizlik hamda kuchning hukmronligiga asoslanishi lozim. Nitsshe «Xudo o‘ldi» degan tezisni ilgari suradi. Ushbu tezis yangicha axloqni shakllantirish zarurligini anglatadi. Nitsshe falsafasi XX asr falsafasining turli yo‘nalishlari: hayot falsafasi, pragmatizm va ekzistensializmga ulkan tasir ko‘rsatdi.

Borliqning tarixiy konsepsiysi. XIX asrda ijtimoiy borliq haqidagi talimot shakllandi. Unga ko‘ra, ijtimoiy borliq individning borlig‘iga nisbatan ham, ijtimoiy ongga nisbatan ham birlamchidir. Shunday qilib, bu davrda jamiyatga fizik borliqqa o‘xhash borliq sifatida qaralgan. Ayni shu sababli jamiyat ham tabiat qonunlariga o‘xhash aniq va shubhasiz qonunlarga bo‘ysunishiga bu davr mutafakkirlarining ishonchi komil bo‘lgan. Ijtimoiy borliq - bu moddiy borliq. U individlarning ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyati bilan belgilanadi. Ijtimoiy borliq qonunlari uning tarixiy rivojlanish jarayonida namoyon bo‘ladi. Jamiyat tarixi bu davrda ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar: ibridoijy jamoa, quidorlik, kapitalizm va kommunizmning tadrijiy va qonuniy ketma-ketligi sifatida talqin qilgan. Unga ko‘ra, har bir tuzum ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini o‘z ichiga olgan tegishli ishlab chiqarish usuli bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish kuchlari (bazis) - bu o‘zini o‘zi rivojlantirish va o‘z-o‘zidan murakkablashishga qodir bo‘lgan o‘ziga xos borliq. Evolyusionizm talimotlarida materiya, Spinozaning «yaratuvchi tabiat» kabi, mustaqil rivojlanish qobiliyatiga ega, moddiy ishlab chiqarish esa moddiy borliqning eng murakkab darajasi hisoblanadi. Bu erda materiya, moddiy borliq, shu jumladan moddiy ishlab chiqarish ijtimoiy organizmga o‘xhatiladi va unga hayot alomatlari tatbiq etiladi.

Ishlab chiqarish munosabatlari (bazisning ustqurmasi) formal borliq sohasiga kiradi. Ammo shakl tadrijiy rivojlanishga qodir emas, u faqat o‘zgarish jarayonida boshqa shakl bilan almashtirilishi mumkin. SHu sababli ishlab chiqarish munosabatlarining almashuvi «inqilobiy sakrashlar» tarzida kechadi. Bu sakrashlar ishlab chiqarish kuchlari bilan muvofiq kelishi ham (bu hol formatsion o‘sish davrida kuzatiladi), ularning rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi ham mumkin. So‘nggi

zikr etilgan holat ishlab chiqarish munosabatlarining yangi ishlab chiqarish kuchlariga muvofiq keluvchi yanada barkamolroq shakliga inqilobiy yo‘l bilan o‘tilishiga olib keladi. Bunda yangi ishlab chiqarish kuchlari eskilaridan mustaqil o‘sib etiladi. Masalan, feodal tuzumda kapitalistik ishlab chiqarish kuchlari mustaqil o‘sib etilgan va eski ishlab chiqarish munosabatlari bilan to‘qnashib, burjua inqilobi jarayonida yangi - kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlariga ega bo‘lgan. Ular ishlab chiqarishning kapitalistik usuli va ishlab chiqarish vositalariga bo‘lgan mulkdorlikning kapitalistik shakliga muvofiq keluvchi yangi qonunlar, yangi huquq, axloq va yangicha dunyoqarashni o‘z ichiga oladi. Borliqning ushbu konsepsiysi tarixiy voqelikda o‘zini oqlamadi.

Borliqning ekzistensial-germenevtik konsepsiysi. Ekzistensialistlar mushohada yuritish orqali anglab etish mumkin bo‘lgan mohiyat (essensiya)ni amalda mavjudlik (ekzistensiya)ga qarshi qo‘yadilar. Ular borliqning mazmuni to‘g‘risidagi masalaga qaytish lozimligini etirof etadilar. Lo‘nda qilib aytganda, borliqning oqilona tavsifi uning asl mazmunini yoritib berishga qodir emas. Bunday mazmun hayot tajribasida, yani «shu erda-borliq» yoki mavjudlik orqali namoyon bo‘ladi. Germenevtika borliq sxemasi yoki formulasini aniqlashga emas, balki uning mazmunini bilishga qaratilgan. Falsafiy muammo sifatidagi borliqning mazmuni insonni o‘z mavjudligining pirovardliligi va tasodifiyligini anglash natijasida yuz bergen shokdan xalos etishi lozim. Bir so‘z bilan aytganda, bu erda aristotelcha analitikaga xaydeggercha germenevtika qarshi qo‘yiladi.

Borliq germenevtikasi oqilona-sxematik yoki metafizik bilimga ishonchsizlik ko‘zi bilan qarashga asoslanadi. Falsafa tarixida germenevtikaning ayrim tarafдорлари: a) mistik; b) estetik; v) intuitiv; g) irratsional narsalar va hodisalarga qarab mo‘ljal oladilar. Dunyonи anglab etish mazkur usulining aks sadolari Pifagor (osmon musiqasiga qulq solish), Platon (g‘oyalar xususida mushohada yuritish), Tertullian (absurd orqali haqiqatning tagiga etish), Paskal (aql haqiqatlariga yurak haqiqatini qarshi qo‘yish), romantiklar, Kerkegor, SHopengauer va Nitsshe metodida mavjud.

Borliq va mavjudlik konsepsiysi M. Xaydegger loyihasining tayanch

nuqtasi hisoblanadi. (1889-1976. Bu loyihani ishlab chiqish bilan u asosan «Borliq va vaqt», «Fenomenologiyaning asosiy muammolari» asarlarida shug‘ullanadi). M.Xaydegger fikricha borliq, mavjudlikning borlig‘i, lekin borliq mavjudlikdan kelib chiqadigan yo‘qlik emas, yani u mavjudlik hisoblanmaydi. Bu erda Xaydegger I.Kantning borliq predikat emas, degan fikriga qaytadi. Ammo bu holda borliq nima? Keng tarqalgan tasavvurga ko‘ra, mavjud narsalarning barchasi ayni bir borliq usuli - mavjudlik bilan tavsiflanadi. Shunga muvofiq tabiat va ruh (g‘oya va narsa, res cogitans va res extensia) farqlanadi. Ammo bu farqlash borliqning usullari o‘rtasidagi farqni ifodalashga qodir emas. U faqat mavjud narsaning mohiyatini belgilovchi unsurlar o‘rtasidagi farqni aks ettiradi.

M.Xaydegger fikriga ko‘ra, borliq usullarini ajratishning haqiqiy yo‘li borliqning mohiyati (essentia) va usulining bir-biriga mansubligini mohiyat va usulning borliq g‘oyasiga mansubligi nuqtai nazaridan tahlil qilishga asoslanadi. Nemis mutafakkiri borliqning olti usuli: ekzistensiya, birgalikda mavjudlik, qo‘l ostidalik, hozirlik, hayot va barqarorlikni farqlaydi. Bu usullarning barchasi bir-biridan shu darajada farq qiladiki, «borliq» tushunchasining yagonaligini shubha ostida qoldiradi. Bu erda mavjudlik to‘g‘risidagi masala Xaydegger qarshisida eng muhim masalalardan biri sifatida ko‘ndalang bo‘ladi.

Mayjudlik tushunchasining tahlili uning «hozirlik», «dunyo» va «qo‘l ostidalik» tushunchalari vositasida ifodalanuvchi fenomenlar bilan ontologik o‘zaro aloqasini qayd etishdan boshlanadi. Bunda mavjudlikni borliq turlaridan biri sifatida tushunish mumkin emasligi, mavjudlik muammosini, «uning shartlari va chegarasini» atroflicha o‘rganish zarurligi takidlanadi. Faylasuflar hatto mavjudlik to‘g‘risidagi masalani qo‘yish usulida ham aniq bir to‘xtamga kelganlari yo‘q. Bu xususda Xaydegger «ongga nisbatan transsendent» bo‘lgan narsa mavjudmi, tashqi dunyoning mavjudligini isbotlash mumkinmi, mavjudlikni anglab etish mumkinmi qabilidagi masalalarni va nihoyat, mavjudlikning mazmuni to‘g‘risidagi masalani aralashtirish odat tusini olganini takidlaydi.

Yuqorida zikr etilgan har xil, lekin o‘zaro bog‘langan masalalar xaydeggercha talqinida mavjudlik muammosi uch qismga ajratiladi: a) borliq

hamda «tashqi dunyo»ni isbot qilish mumkinligi muammosi sifatidagi mavjudlik; b) ontologik muammo sifatidagi mavjudlik; v) mavjudlik va tavajjuh.

Birinchi muammoni tahlil qilar ekan, Xaydegger tashqi dunyoning mavjudligi yoki uni isbotlash to‘g‘risidagi masala bir vaqtning o‘zida manosiz va ikki manoli ekanligini qayd etadi. Masalaning manosizligi shu bilan izohlanadiki, mazkur masala dunyoda borliq sifatida mavjudlik bilan qo‘yilgan. Masalaning ikki manoliligi, Xaydegger fikriga ko‘ra, bir-biridan farq qiladigan ikki narsa: nimadadir borliq sifatidagi dunyo va ichki mavjudlik sifatidagi «dunyo»ning aralashuvi tufayli kelib chiqadi. Tashqi dunyoning mavjudligi to‘g‘risidagi masala bu erda dunyo fenomeniga oydinlik kiritmasdan qo‘yiladi. Buning oqibatida amalda isbotlanayotgan narsa yoki hodisaning isbotlash usuli va isbotlashning elon qilinayotgan maqsadi bilan aralashuvi yuz beradi.

Shunday qilib, Kant falsafadagi janjal deb nomlagan masala - tashqi dunyo mavjudligining dalil-isbotlari yo‘qligi Xaydeggerga muammoni noto‘g‘ri qo‘yish bo‘lib tuyuladi. U bunday isbotlashni amalga oshirishni ko‘zlagan shaxslarning shu erda hozirligining o‘ziniyoq mavjudlikning isboti deb hisoblaydi. Xaydegger fikriga ko‘ra, hatto dunyoning mavjudligiga ishonish lozimligini takidlovchilar ham, adashadilar, zero ular bunday dalil-isbotlar idealda mavjud bo‘lishi lozimligini tasdiqlaydilar.

Borliqning ezoterik talqini. Ikki xil borliqning mavjudligi ezoterizmning asosiy g‘oyasi hisoblanadi. Ezoterik qarashlarga ko‘ra, bu borliqlarning biri mutlaqo ideal xususiyat kasb etadi (bu ezoterika atamalarida nozik darajalarda mavjudlikni anglatadi), ikkinchisi esa insonning kamolotga eltuvchi yo‘lni bosib o‘tish va o‘zini ham, kosmosni ham o‘zgartirishga bo‘lgan intilishini aks ettiradi. Bundan ezoterizmning ikki aniq yo‘nalishi kelib chiqadi. Ularning biri teran ong va ulkan istedodga ega bo‘lgan komil inson g‘oyasiga, ikkinchisi - «Xudoning Erdagi sultanati» xoliazmikformulasi bilan moddiylashtirilgan g‘oyaga o‘xshab ketadigan hayotni o‘zgartirish g‘oyasiga ishora qiladi.

Ezoterik mulohazaga misol: «Yangi davr» g‘oyasining targ‘ibotchisi Sherli Makleyn shunday deydi: «Men kosmik aqldan, manaviy ziyodan olgan fikrlarning

eng muhim mi bu Xudo - bizning o‘zimiz, degan fikrdir. Borliqning biz anglab etgandan muhimroq qandaydir darajasi bor/) . Bazan bu borliqdan uzoqlashishga, bazan - mantiqqa zid bo‘lgan noizchil xatti-harakatlarga, bazan - hamma narsani o‘zgartirish mo‘ljali bilan bog‘liq bo‘lgan haddan tashqari soxta faollikka olib keladi.

Oqilona ilmiy bilim, odatda, noemotsional va shaxssiz obektiv bo‘lsa, ezoterik ananada emotsiyalarning mexanizmlaridan foydalanmasdan, xususan oq afsungarlik bilan bog‘liq holda fikrlar, so‘zlar va xatti-harakatlarda ezgulik va ziyoga qarab, qora afsungarlik bilan bog‘liq holda esa - yomonlik va riyoga qarab mo‘jal olmasdan yashirish bilimni o‘zlashtirish mumkin emas.

Ezoterik fanlar ikki asosiy maqsadni: avvalambor, odatdagi tajriba chegarasidan tashqarida yotuvchi dalillarni bilishga qaratilgan marifiy maqsadni va tashqi dunyo jarayonlarini boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqaruvga doir yoki kiber-maqsadni ko‘zlaydi. Nazariyalar, talimotlar va ilmiy konsepsiyalarning o‘zgarish intensivligiga teng bo‘lgan davriylikka ezoterizmda duch kelish mumkin emas. U ichdan harakatchan; uning faolligi nyuanslar va shaxsiy xususiyat kasb etuvchi yondashuvlarning rang-barangligida namoyon bo‘ladi. Ammo u o‘z tabiatiga ko‘ra ancha turg‘un, chunki poydevor sifatida qo‘yilgan qadimgi germetik talimotga, qadimgi ajdodlarimizning xufyona donishmandligiga tayanadi.

Borliq tushunchasining tahlili. Borliq falsafiy bilimlarning alohida sohasi bo‘lib, unda borliq va yo‘qlik, mavjudlik va nomavjudli k muammolariga doir masalalarning keng doirasi o‘rganiladi, shuningdek mavjudlik sifatiga ega bo‘lgan barcha narsalarning mohiyati aniqlanadi. Umum qabul qilingan falsafa tilida u Ontologiya deb ham ishlatiladi. «Ontologiya» atamasi (yunoncha ontos - borliq, logos - so‘z, talimot), borliq haqidagi talimot degan manoni anglatadi, ilmiy kategoriyasi sifatida falsafada XVII asrdan beri qo‘llanilmoqda. Ontologiya har qanday falsafiy dunyoqarashning negizi hisoblanadi va shu tariqa o‘z tarkibiga kirmaydigan boshqa falsafiy muammolar talqinini ko‘p jihatdan belgilaydi.

Borliq masalasi insonning dunyoni oqilona anglash yo‘lidagi ilk urinishlaridayoq duch kelgan barcha masalalarning negizi hisoblanadi. Muayyan

narsalar mavjudligi yoki mavjud emasligi masalasi inson falsafiy mulohaza yurita boshlagani zahotiyoy qilingan uning diqqat markazidan o‘rin oldi. Mifologiyaning bosh vazifasi - «borliqni kim yaratgani» haqida gapirib berishni, falsafa «borliqning nimaligi, u qaerdan paydo bo‘lgani va qaerga yo‘qolishi»ni oqilona tushuntirish bilan shug‘ullanadi. Bunday tushuntirishga urinish jarayonida faylasuflar barcha zamonlarda quyidagi savollarga javob topish zaruriyati bilan to‘qnash kelganlar:

- falsafiy kategoriya sifatidagi «borliq» nima?
- bu atama nimaga nisbatan tatbiq etilishi mumkin?
- unga qanday falsafiy mano yuklanadi?

Bu savollarga keng javob berish falsafa tarixiga ham, mazkur tushunchaning etimologiyasiga ham murojaat etishni nazarda tutadi. «Borliq» falsafiy kategoriysi dunyoning ayniqsa keng tarqalgan tillarida ayni bir mano - «bo‘lish», «mavjud bo‘lish», «hozirlik», «hozir bo‘lish», «mavjudlik» manolarini anglatadi. Jahonning aksariyat tillarida yuqorida sanab o‘tilgan va mano jihatidan unga yaqin fellar negizini tashkil etadigan «bo‘lmoq» feli, o‘zining bevosita manosidan tashqari, yordamchi fel sifatida ham faol ishlatiladi. Fikr qaratilgan narsa mavjudligi (yoki mavjud emasligi)ning ayni shu dalili har qanday tilning ilk jumlalaridayoq tom manoda universal fel (yoki uning modi fikatsiyalari) bilan aks ettiriladi: o‘zbek tilida - «bo‘lmoq», «bor», ingliz tilida - is, nemis tilida - ist va h.k.

Shunday qilib, «borliq» va «yo‘qlik» kategoriyalarining o‘ziga xosligi, betakrorligi va universal ahamiyati shundan iboratki, ularning falsafiy manosи tavsiflanadigan turli tillarda ular «bo‘lmoq» felidan (yoki uning inkoridan) hosil bo‘lgan tushunchalar hisoblanadi va narsaning o‘zini emas, balki uning mavjudligi yoki yo‘qligini ko‘rsatadi. Masalan, stol bor, yomg‘ir yo‘q, oqlik bor, aks yo‘q, miya bor, g‘oyalar yo‘q va h.k.

Borliq va yo‘qlik dialektikasi. Falsafa tarixida birinchi bo‘lib Parmenid «Borliq bor, yo‘qlik esa - yo‘q», degan fikrni ilgari surgan. Binobarin, yaxshi, yomon, to‘g‘ri, noto‘g‘ri, quvnoq, sho‘r, oq, qora, katta, kichkina kabi va shunga o‘xshash sifatlar borliqqa nisbatan qo‘llanilishi mumkin emas. Borliqni biron -bir

koordinatalar tizimiga joylashtirib bo‘lmaydi, uni faqat vaqtida fikrlash mumkin. Muxtasar qilib aytganda, borliqni har qanday voqelik ega bo‘ladigan umumiyligi, universal va betakror mavjudlik qobiliyati, deb tavsiflash mumkin. Bu fikr esa amalda mavjud narsagina borliqqa ega bo‘lishi mumkin, degan xulosa chiqarish imkonini beradi.

«Yo‘qlik» har qanday tilda amalda mavjud bo‘lmagan narsa bilan tenglashtiriladi va boshqacha tushunilishi mumkin ham emas. Boshqacha aytganda, yo‘qlik borliqni inkor etadi va narsa, jism, hodisa, ong... (yani amalda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsalar) o‘zligini yo‘qotgan holda «yo‘qlik» atamasi ayni shu manoda ishlataladi va ular haqida ular «yo‘qlikka chekindi», mavjud emas, deyiladi. Lekin sof falsafiy manoda bu fikrni to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Borliq va yo‘qlik o‘rtasida dialektik o‘zaro aloqa mavjud.

Birinchidan, dunyo haqidagi hozirgi tasavvurlarga ko‘ra, biz yashayotgan Olam bo‘shliqdan bino bo‘lgan. Bo‘shliq materiyaning alohida holati. Bo‘shliq fizik borliqning eng boy tipi, o‘ziga xos potensial borliq sifatida namoyon bo‘ladi, zero unda mumkin bo‘lgan barcha zarralar va holatlar mavjud, biroq ayni vaqtida unda aktual tarzda hech narsa yo‘qk¹

Yana shuni ham etiborga olish lozimki, fiziklar (D.A.Landau, va boshqalar) nuqtai nazaridan biz yashayotgan Olam ham dunyoda yagona emas, chunki u rivojlanishning turli sikllarini boshidan kechirayotgan turli Olamlarning Cheksiz sonidan tashkil topadi. Shu manoda borliq va yo‘qlikning o‘zaro aloqasi ham nisbiy xususiyat kasb etadi. (bu fikr qadimgi mifologiyada olamning xilma xilligi g‘oyasi bilan uyg‘un).

Ikkinchidan, amalda mavjud bo‘lgan narsaning obektiv borlig‘i yo‘qlikka chekinadi, lekin, shunga qaramay u haqda gapirilayotgan, yani u muayyan narsa sifatida fikrlanayotgan bo‘lsa, bu narsa ongda mavjud bo‘ladi va o‘zining «ikkinci» borlig‘ini saqlaydi, ayni holda u dastlabki obektning nusxasi, ideal obrazi bo‘lib qoladi.

Shunday qilib, *o’tgan zamondagi borliq yo‘qlikdir*, deb aytish mumkin.

Borliq doim hozirgi zamonda mavjud bo'ladi, u faqat hozirgi zamonda o'zini namoyon etadi, basharti u dolzarb va amalda namoyon bo'lish imkoniyatiga ega bo'lsa, agar u potensial, yani axborot manbalarida mavjud yoki uning paydo bo'lishi obektiv rivojlanish mantig'i bilan belgilangan bo'lsa. Amalda yo'q bo'lgan narsa haqida ideal obraz sifatida fikrlash mumkin. Boshqacha aytganda, unga ideal obraz tarzidagi ideal borliq shakl-shamoyilini berish mumkin. O'tmishga tatbiqan biz borliq haqida faqat shu manoda so'z yuritishimiz mumkin.

*Ayni shu manoda *biz g'oyalar, narsalar, voqealar, tarixiy shaxslar yoki o'zimizga yaqin odamlar* to'g'risida so'z yuritamiz, bunda ular yo'qlikka aylanmagani, balki yangicha mavjudlik, xotira tarzidagi o'zgacha borliq kasb etganini nazarda tutamiz.*

SHunday qilib, borliq falsafiy kategoriya sifatida dunyoni butun rang-barangligi va turli-tuman namoyon bo'lish shakllari bilan yaxlit aks ettirish imkonini beradi. Bunda narsalar, predmetlar, hodisalar o'z xususiyatlari, xossalari bilan jamuljam holda aks etadi. Dunyoni va uning tarkibiy qismi bo'lmish insonni bilish yo'lidagi bu muhim qadam bilan dunyon ing tabiatini va mohiyati, uning rang-barangligi, turli darajalari, ko'rsatkichlari, ramz-alomatlari, shakllari va hokazolar haqidagi mulohazalarning asosiy koordinatalar tizimsi belgilanadi. Buning uchun mohiyat, hodisa, substansiya, materiya, ong, makon, vaqt, qonun kabi yangi falsafiy kategoriylar muomalaga kiritiladi.

Inson o'zi va umuman dunyo haqida o'ylar ekan, odatda muayyan narsalar va ayrim tabiiy hodisalar bilan ish ko'radi. Ayni vaqtida u o'zini qurshagan dunyoni sinchiklab o'rganish va uning butun rang-barangligini tushunib etish uchun muayyan tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladigan qandaydir asosning shak-shubhasiz mavjudligini qayd etadi. Falsafa tarixidan biz bunday asos sifatida, masalan, Suqrotdan oldingi qadimgi yunon faylasuflarida tabiat elementlari, o'rtasrlar falsafasida Xudo, Dekartda: «Men fikrlayapman, demak, mavjudman», degan ongli inson amal qilganini ko'ramiz.

Ammo inson bilishning bu birinchi bosqichida to'xtab qolmagan va o'zini qurshagan borliqning ko'p sonli turli-tuman holatlari orasida qolgan barcha

narsalardan sezilarli darajada farq qiladigan narsalarni, borliqning ayni shu shakli voqelikning boshqa shakllari va holatlaridan nima bilan farq qilishini aniqlashga harakat qilgan. Bugungi kunda insoniyat borliqning ko‘p sonli turli-tuman shakllaridan ularning ayniqsa aniq bo‘lgan bir nechtasini farqlash imkonini beradigan tajriba va bilim to‘pladi.

Sof borliq g‘oyasi. «*Sof borliq*» - bu o‘z holicha, barcha konkret belgilaridan xoli ko‘rinishda olingan mavjudlik. *Birinchilardan bo‘lib Parmenid (miloddan avvalgi VI asr) borliq tushunchasidan yo ‘qlikning mavjud emasligi kelib chiqishini isbotlashga uringan. Amalda biz yo ‘qlik haqida hatto fikrlay ham olmaymiz, chunki agar biz u haqda o ‘ylasak, u bizning fikrimizda mavjud bo ‘ladi, yani borliq sifatida fikrlanadi. Binobarin, yo ‘qlikni tasavvur qilish ham mumkin emas, bu esa uning mavjud emasligini anglatadi. Ammo yo ‘qlik bo ‘Imasa, hech narsa paydo bo ‘lishi ham, yo ‘q bo ‘lishi ham mumkin emas.* Chunki paydo bo‘lish yo‘qlikdan bor bo‘lish, yo‘q bo‘lish esa - yo‘qlikka aylanishdir. Bundan xulosa shuki, borliq «harakatsiz», unda biron-bir o‘zgarish bo‘lishi mumkin emas: har qanday o‘zgarish nimaningdir paydo bo‘lishi va yo‘q bo‘lishi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, borliq yagona, bir jinsli va bo‘linmas: uni qismlarga faqat yo‘qlik ajratishga qodir, lekin u mavjud emas. Borliqning chegarasi bo‘lishi mumkin emas, uning boshi ham, oxiri ham yo‘q, zero, hamonki yo‘qlik mavjud emas ekan, borliqni cheklashga qodir bo‘lgan narsa ham mavjud emas.

Gegel «sof borliq» kategoriyasidan foydalanishning boshqacha usulini topgan. Uning ontologik konsepsiyasida bu kategoriya Mutlaq g‘oya rivojlanish mantig‘ining tayanch nuqtasi hisoblanadi. «Sof borliq» va «sof yo‘qlik»ning ayniyligini qayd etgan holda, Gegel bu qarama-qarshiliklar sintezidan iborat bo‘lgan «shakllanish» tushunchasini kiritadi (zero shakllanish nimaningdir borligini anglatadi, chunki «shakllanmoqda», vujudga kelmoqda, lekin hali borliqqa ega emas, chunki «shakllanmagan», vujudga kelmagan). Shundan so‘ng Gegel shakllangan nimadir «shakllanish»ning natijasi bo‘lishini qayd etadi. Bu natija, Gegel fikriga ko‘ra, «mavjud borliq», yani «sof borliq»dan farqli o‘laroq, aniq sifatga ega bo‘lgan borliqdir.

Albatta, Gegelning shakllanish g‘oyasi muayyan narsaning shunday bir holatiki, unda shakllanayotgan narsa bir vaqtning o‘zida ham mavjud bo‘ladi, ham mavjud bo‘lmaydi, degan fikriga qo‘shilish mumkin emas. Ammo har qanday shakllanish - bu qandaydir predmetning «sof yo‘qlik»dan emas, balki ilgari mavjud bo‘lgan boshqa predmetlardan vujudga kelishidir. Har qanday «mavjud borliq» «sof borliq»dan va «yo‘qlik»dan emas, balki boshqa bir «mavjud borliq»dan vujudga keladi. Gegel fikriga zid o‘laroq, «sof borliq»ning «sof yo‘qlik»ka o‘tishi tushunchalar o‘yinidan boshqa narsa bo‘lmay, bundan amalda sifat jihatidan aniq biron-bir borliq vujudga kelmaydi (buni XIX asrdayoq L.Feyerbax va tushunchalar Gegelcha mantig‘ining boshqa tanqidchilari qayd etgan). Ontologiyani «sof borliq» va «sof yo‘qlik» kategoriyalari yordamida tuzishga intilish XX asrning ayrimfaylasuflari ijodida ham kuzatiladi (M.Xaydeger, E.Fink va b.). Ammo, fikming mazmunini nima fikrlanayotganini ko‘rsatmasdan yoritish mumkin bo‘lмаганидек, borliq kategoriyasining mazmunini borliqqa nima ega ekanligini ko‘rsatmasdan yoritish mumkin emas. Fikr hamisha nima haqdadir fikr bo‘lganidek, borliq har doim nimaningdir borlig‘idir. «Sof borliq» ham xuddi «sof yo‘qlik» kabi mazmunsizdir (bunda Gegel haq). «Sof borliq» tushunchasi quruq mavhumlikdan boshqa narsa emas.

Nazorat savollari

1. Qanday muammolar falsafiy muammolar deb ataladi?
2. Falsafa nimani o‘rgatadi?
3. Ayrim insonning yaxlit falsafiy dunyoqarashi falsafiy plyuralizm asosida qanday shakllanadi?
4. Hozirgi dunyoda falsafa qanday vazifalarni hal qilmoqda?
5. Borliq tushunchasi va uning asosiy turlari nimalardan iborat?
6. Inson va tabiatning o‘zaro aloqadorligi nimalardan iborat?

2-MAVZU: IJTIMOIY FALSAFA VA UNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARİ. (2 soat)

Reja:

1. Ijtimoiy falsafa va uning zamonaviy konsepsiyalari.
2. Pragmatizim falsafasi va uning zamonaviy talqini.
3. Falsafada ong masalasi.
4. Ijtimoiy ong va uning shakllarini tarkibiy-funksional mazmuni.

Har qanday davrda ham ijtimoiy falsafa jamiyatda ro'y berayotgan jarayon va hodisalarining tub mohiyatini aks ettirishda ijtimoiy amaliyotdan uzilib qolmasagina inson va uning faoliyati uchun muayyan ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy falsafaning mazmun-mohiyati shundaki, u jamiyatni aniq bir maqsadga muvofiq ravishda oqilona boshqarishga yordam beradi. Biroq boshqa tizimlarda bo'lgani singari jamiyatda ham ba'zan onglilik ongsizlik bilan, tartiblilik tartibsizlik bilan almashinib turadi. Jamiyat a'zolarining intellektual salohiyati ortib borishi bilan jamiyatni ongli ravishda boshqarish, uni aniq bir maqsadga yo'naltirish imkoniyati kengayadi.

Bu fanning dunyoqarash va metodologik ahamiyatga ega bo'lgan qoidalari barcha ijtimoiy hamda gumanitar fanlarning rivojlanishiga, jamiyatni ongli boshqarishga yaqindan yordam beradi.

Ijtimoiy falsafa insonning jamiyatdagi o'rni, roli, inson hayotining ma'nosi singari masalalar haqida bahs yuritadi. Shu bilan birga u qator funksiyalarni bajaradi. Avvalo, kishilarda ijtimoiy voqelik to'g'risidagi qarashlarni shakllantiradi, odamlarning ijtimoiy borlig'i bilan ularning ongi o'rtasidagi munosabat muammosini hal etishga ko'maklashadi.

Ijtimoiy falsafaning metodologik funksiyasi ijtimoiy fanlarning rivojlanishi, hodisa va jarayonlarni tadqiq etishning umumiyo'yonalishlarini belgilashda, uning qoidalardan dasturulamal sifatida foydalanishda yaqqol namoyon bo'ladi. Uning bashorat funksiyasiga ko'ra jamiyatning rivojlanish istiqbollarini oldindan ko'rishga, kishilar faoliyatini ilgaridan bilishga yordam beradi. Bu esa o'z

navbatida jamiyat taraqqiyoti mazmunini bilish va taxmin qilish uchun asos yaratadi.

Falsafiy metodologiya chuqurroq egallab borilgani sari ijtimoiy falsafaning funksiyalari yanada to‘laroq namoyon bo‘lib, ilmiy tafakkur madaniyatiga ega bo‘lgan kishilarda izchil va tizimli fikrlash, ijtimoiy hodisa va jarayonlarni dialektik bog‘liqlikda o‘rganish qobiliyatini shakllantirib boradi. Har bir kishi o‘z kasb-kori va ixtisosidan qat’i nazar, jamiyat to‘g‘risidagi falsafiy bilim va ta’limotlarni chuqur egallahash orqaligina tevarak-atrofda ro‘y berayotgan ijtimoiy hodisa va jarayonlarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini to‘g‘ri anglash, ularni boshqarish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Shunday kishigina bunyodkor va yaratuvchan kuchga aylanishi mumkin. Aynan ana shu tamoyil ijtimoiy falsafaning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyatini belgilaydi.

Ma’lumki, jamiyat to‘g‘risida eng umumiylar falsafiy bilimga ega bo‘lish jamiyatni bir butun holda idrok etish orqaligina uni ijtimoiy tizim sifatida o‘rganish, jamiyatni tashkil etuvchi elementlar faoliyatini muvofiqlashtirishga erishish, uning yaxlitligi va barqarorligini ta’minlashga imkon beradi. Bu esa barcha ijtimoiy hodisalarining umumiylar asosini aniqlash, ya’ni ijtimoiy hayot barqarorligining fundamental mezonlarini belgilash, jamiyatni yaxlit holda saqlab qolish va rivojlantirish uchun asos yaratadi.

Har qanday ijtimoiy fanning gumanitar bilimlar tizimidagi o‘rnini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Xuddi shunday bu fanning falsafiy bilimlar va ijtimoiy fanlar tizimidagi o‘rni, roli hamda bahs mavzui singari masalalarga aniqlik kiritish, ayniqsa, ijtimoiy falsafaning sotsiologiya va tarix falsafasi va bilan o‘zaro munosabatini aniqlashga alohida diqqat qilish lozim. Negaki, uzoq yillar davomida sobiq Ittifoq davrida o‘qitib kelingan tarixiy materializmga ayni bir vaqtida ham ijtimoiy falsafa, ham tarix falsafasi va sotsiologiya sifatida qarab kelindi.

Aslida ijtimoiy falsafa ushbu fanlardan o‘z predmeti, tushunchalari, bilish usullariga ko‘ra tubdan farq qiladigan umumiylar falsafaning tarkibiy qismi bo‘lib, ijtimoiy jarayonlar to‘g‘risidagi tadqiqotlar va ilmiy faktlarga tayanadi, aniq jamiyat to‘g‘risida aniq tushunchalarga asoslanadi. Shu asnoda u ko‘plab ijtimoiy-

gumanitar fanlarning xulosalari, yutuqlariga tayanib, jamiyatning umumiy manzarasi, ijtimoiy borliqning o‘ziga xos taraqqiyot qonunlari to‘g‘risida umumiy tasavvurlar hosil qilishga yordam beradi.

Kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi, uning mohiyati, insonning ijtimoiy tabiat, jamiyatdagi o‘rni va roli to‘g‘risidagi mavzular bu fanning asosiy mazmunini belgilaydi. Ushbu yo‘nalishda u jamiyatni tadqiq etish emas, balki jamiyat to‘g‘risidagi fanlarning yutuqlariga tayangan holda xos dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Jamiyat, inson, ijtimoiy borliq, ijtimoiy munosabat, jamiyat hayoti, xalq, millat, shaxs kabi hayotda ko‘p qo‘llaniladigan tushunchalar ushbu fanning kategorial tizimini tashkil qiladi.

Ijtimoiy falsafa kategoriyalari va tushunchalari umumbashariyligi va teran mazmundorligi bilan ajralib turadi. Sotsiologik tushunchalar esa aniq va ilmiyligi bilan tavsiflanadi. Chunonchi, sotsiologik tushunchalar (sotsial struktura, sotsial strafikatsiya, ijtimoiy harakat, ijtimoiy makon, mobillik, deviant xulq-atvor, ijtimoiy jarayon, ijtimoiy birlik, ijtimoiy institut va h.k.) alohida olingan aniq jamiyat (ijtimoiy tizim)ning turli tomonlari to‘g‘risida bilim beradi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy falsafa inson va jamiyatning umumiy tomonlarini yaxlit holda bilishga imkon bersa, sotsiologiya aniq jamiyatning dolzarb muammolarini hal etishga, uning rivojlanish istiqbollarini oldindan ko‘rishga, sotsial kataklizmlar (bo‘ronlar)ni oqilona hal etishga imkon yaratadi.

Agar sotsiologiya fan sifatida amaliy vazifalarni hal etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ysa, ijtimoiy falsafa dunyoqarash ahamiyatiga ega bo‘lgan muammolarni hal etishni, «Inson nima?», «Uning mohiyati qanday?», «Insonning yashashdan maqsadi nima?», «Jamiyat nima?», «Jamiyat taraqqiyotining asosini nima tashkil etadi?» singari savollarga javob beradi. Har bir xalq, mamlakat yoki aniq jamiyat taraqqiyoti qanchalik noyob, o‘ziga xos va betakror bo‘lishiga qaramay, o‘z navbatida umumbashariylik, umumiylilikning muhim belgilarini mujassamlashtiradi. Ana shu umumiy jihatlar qanchalik to‘laroq, yaqqolroq namoyon bo‘lishi bilan yaxlit jahon hamjamiyatining shakllanishi, umumiy tinchlik va totuvlikning qaror topishi uchun qulay imkoniyatlar vujudga keladi.

Shu ma'noda, ijtimoiy falsafa butun e'tiborini alohidalikdagi umumiylilikka qaratadi, ya'ni ijtimoiy falsafa va sotsiologiyaning nisbati umumiylilik va alohidalikning o'zaro munosabatini anglatadiki, har bir alohidalikda umumiylilik va o'ziga xoslikni ko'rish mumkin.

Ijtimoiy falsafaning maqsad va vazifalari. Jamiyat haqidagi umumiylilik fan sifatida ijtimoiy falsafa barcha gumanitar fanlarga, xususan, tarix falsafasi va sotsiologiyaga yo'naliish beradigan metodologik asos bo'lib hisoblanadi. Bu fan doirasida ijtimoiy organizmning normal faoliyat ko'rsatishida, har bir elementning qanday rol o'ynashiga, ijtimoiy taraqqiyotning bosh maqsadi nimadan iborat ekanligiga asosiy e'tibor qarataladi. Shu asnoda jamiyat hayotining moddiy, ma'naviy, siyosiy, huquqiy, madaniy, badiiy-estetik, ekologik, etnik, milliy, demografik jihatlariga alohida e'tibor qarataladi. Bu boradagi eng muhim, murakkab va dolzarb masala jamiyat hayotining ustuvor falsafiy muammolari xususida yangicha fikr yuritish, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish bilan bog'liq.

Ijtimoiy falsafaning mazkur yo'naliishdagi vazifalarini samarali hal etish uchun, avvalo, bir qator omillarni hisobga olish lozim. YA'ni ijtimoiy falsafa hayotni yaxlit holda tasvirlabgina qolmay, balki ijtimoiy institatlarning jamiyat hayotidagi o'rni va rolini ham belgilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga bu fanda shaxs va jamiyat o'zaro munosabati masalasiga alohida ahamiyat qarataladi va jamiyatning asoslarini, ya'ni mavjudlik shart-sharoitlarini aniqlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash muammolarini yechish yo'llarini aniqlaydi hamda hayotni ilmiy bilishning metodologik masalalarini har tomonlama izohlaydi.

Ijtimoiy falsafa boshqa ijtimoiy fanlar, ya'ni tarix, huquq, iqtisodiyot nazariyasi, sotsiologiya, statistika kabi fanlar bilan yaqin aloqador bo'lib, mazkur fanlardan bir qator jihatlari bilan ajralib turadi. Masalan, u ijtimoiy hayotni yuqori darajada tahlil qiladi, mavhum tushunchalar, qonunlar va tendensiyalarni ochib beradi, o'z xulosalarini umumiyligi nazariya shaklida umumlashtiradi va amaliyot uchun zarur ko'rsatmalar beradi. Shu bilan birga u aniq fanlar uchun ijtimoiy hodisalarini bilishda metodologik asos bo'lib, jamiyat rivojlanishining umumiyligi

qonunlari va tendensiyalarini o'rgatadi, ijtimoiy jarayonlar va tarixiy taraqqiyotning umumiy nazariyasi vazifasini bajaradi.

Ushbu fanning umumnazariy va metodologik vazifalari jamiyatning mohiyati, ijtimoiy hayotning asl mazmunini bilishda, jamiyatni yaxlit ijtimoiy tizim sifatida tadqiq etish, ijtimoiy hayotning asosiy sohalarini, jamiyatning moddiy va ma'naviy asoslarini atroflicha o'rganish, tarixning mohiyati va ma'nosini to'g'ri anglash, insonning falsafiy muammolarini tadqiq etishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Shu ma'noda, ijtimoiy falsafa boshqa turdosh fanlarning ilmiy nazariyalarini ishlab chiqishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi, negaki har qanday ijtimoiy fan jamiyat rivojlanishi va inson to'g'risidagi falsafiy ta'limotga tayanadi, insonga xos hayotiy zaruriyatlarni asoslab beradi. Bu esa ijtimoiy falsafaning inson faoliyatining nazariy asosi sifatidagi maqomini belgilaydi.

Jamiyat hayotini tubdan isloh qilish, insonni yanada faollashtirish, ishlab chiqarish resurslaridan to'laroq foydalanishga ehtiyoj sezilgan vaqtida ijtimoiy falsafaga xos qonunlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi eng asosiy vazifalaridan biri «Jamiyat nima?», «Uning inson hayoti uchun qanday ahamiyati bor?», «Jamiyat borlig'i nima va u bizdan nimani talab etadi?» kabi savollarga javob izlashdan iborat. Ana shu savollarga javoblar mazkur fanning asl mohiyatini belgilaydi.

Ijtimoiy hayot va ijtimoiy jarayonlar ijtimoiy falsafaning bilish obyekti bo'lib, ularga xos bo'lgan tabiiy tomonlarga, individual jihatlarga emas, balki ijtimoiy hayotning umumiy qonuniyatlarini atroflicha tadqiq etishga ko'proq e'tibor qaratiladi. Bunda ijtimoiy hayot iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalarni o'z ichiga olishi, ijtimoiy harakat va ijtimoiy munosabatlarning asosiy subyektlari ijtimoiy guruqlar yoki yaxlit jamiyat ekanligiga alohida e'tibor beriladi. Ana shu sotsial hodisalarning o'zaro aloqalari, umumiy qonuniyatları va tendensiyaları to'g'risidagi falsafiy karashlar tizimi ijtimoiy falsafaning tuzilishi va mazmunini tashkil qiladi hamda uning asosiy funksiyalarini belgilaydi. Bunda avvalo, yaxlit jamiyat rivojlanishining umumiy qonun va yo'nalishlarini tadqiq etish, yirik ijtimoiy guruqlar, ijtimoiy jarayonlar to'g'risida ilmiy bilimlar berish fanning

gnoseologik funksiyasini anglatadi.

Ijtimoiy hodisalarini bilishning ilmiy metodlari to‘g‘risida bilimlar, nazariya, kategoriya, qonun, prinsiplarni ishlab chiqish ijtimoiy falsafaning metodologik funksiyasi doirasiga kiradi.

Ushbu fanning ilmiy bashorat funksiyasi jamiyat taraqqiyoti, inson va insoniyat kelajagini taxmin qilishga imkon beradi, dunyoqarash funksiyasi esa jamiyat a’zolarining umumiy tafakkuri va hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy falsafaning aksiologik (qadriyatlar) funksiyasi jamiyat va inson qadrini, hayot va umr mazmunini anglashga yordam beradi.

Bir-biri bilan uzviy bog‘liq bu funksiyalar yaxlit holda ijtimoiy-falsafiy bilimlarning o‘ziga xosligi va mohiyatini belgilaydi, o‘z mohiyati bilan jamiyat istiqbolini ilmiy asosda ko‘rishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xilma-xil tarixiy voqealarni va ijtimoiy tizimning rivojlanish qonuniyatlarini, yo‘nalishlari, tendensiyalari hamda hal qiluvchi omillarini aniqlash ijtimoiy falsafaning asosiy vazifasidir.

Bu borada bilishning nazariy modellaridan va usullaridan foydalanish, tarixiy jarayonlarni insoniyatning o‘tmishi va kelajagi nuqtai nazaridan har tomonlama o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat va inson hayotiga bunday turli-tuman yondashuvlar ular haqida to‘liqroq tasavvur beradi, odamzodga tarixning haqiqiy subyekti va obyekti sifatida qarash, uning hayotdagisi o‘rni, umr mazmuni, hayotining ma’nosini kabi masalalarga chuqur e’tibor qaratish imkonini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy falsafaning o‘ziga xos fan sohasi ekanligidan dalolat beradi.

XX–XXI asr ijtimoiy falsafasi. XX asrda ijtimoiy falsafa sohasida turli-tuman ta’limotlar ilgari surildi. Bularga neopozitivizm, psixologik sotsiologiya, industrial sotsiologiyani misol qilish mumkin.

Shu o‘rinda ijtimoiy falsafa bilan sotsiologiya orasidagi umumiylilik va farqni aniqlash lozim bo‘ladi. Ijtimoiy falsafa jamiyat, inson, ijtimoiy taraqqiyot va ijtimoiy bilishning eng umumiy qonunlari to‘g‘risida bahs yuritadigan fan. Ijtimoiy

falsafa sotsiologiya uchun umumnazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Jamiyatning mohiyati, ichki taraqqiyoti qonuniyatlarini bilmay turib, aniq jamiyat va undagi ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ri tushunish mumkin emas. Agar ijtimoiy falsafa jamiyat haqidagi nazariyalar ta’limotlarni ifodalasa, sotsiologiyani aniq jamiyat, undagi ijtimoiy aloqa va munosabatlar qiziqtiradi. Sotsiologiya fanining rivojiga katta hissa qo‘sghan olimlardan biri, uning asoschisi fransuz faylasufi va sotsiologi Emil Dyurkgeym (1858–1917) hisoblanadi. U jahonda birinchi sotsiologiya professori, «Sotsiologik yilnomá» jurnalining asoschisidir.

XX asrdagi ijtimoiy-falsafiy bilimlarning shakllanishi va taraqqiyotida nemis olimlari O. Shpengler (1880–1936), Karl Yaspers (1883–1969.) fransuz faylasufi Anri Bergson (1859–1941)larning qarashlari muhim o‘rni tutadi. Osvald Shpengler «Yevropa quyoshining so‘nishi» asarida madaniyat va sivilizatsiyani bir-biriga o‘zaro qarama-qarshi qo‘yadi. XX asrdagi ijtimoiy-falsafiy qarashlarda inson muammosiga alohida e’tibor qaratilgan. Ijtimoiy taraqqiyotda inson aqlu zakovatining o‘rni, inson qadriyat, insonparvarlik, gumanizm g‘oyalari ijtimoiy-falsafiy qarashlar asosini tashkil etadi.

Ijtimoiy falsafa tarixiy jarayon xarakteriga mos ravishda yangicha qarashlarni ilgari surdi. Taniqli nemis faylasufi Maks Veber (1869–1920) ijtimoiy falsafa rivojiga salmoqli hissa qo‘shti. U ijtimoiy falsafa va sotsiologiyaga oid ilmiy manbalarni chuqur o‘rgandi. Maks Veber «Protestantlik axloqi va kapitalizm ruhi», «Xo‘jalik va jamiyat», «Sotsial-ilmiy va ijtimoiy-siyosiy bilishning obyektivligi», «Tushunish sotsiologiyasining ayrim kategoriyalari to‘g‘risida» va boshqa asarlarida ijtimoiy falsafa muammolarini hal etishga harakat qiladi. M. Veber ijtimoiy falsafani nazariy sotsiologiya deb ta’rifladi, ijtimoiy falsafa kishilar faoliyatini va xulq-atvorini o‘rganishi kerak. Jamiyat ayrim individlardan yoki ijtimoiy guruhlardan iborat bo‘lishi mumkin. Ular inson faoliyatining dastlabki uyushmalaridir. Shunga muvofiq ijtimoiy falsafaning muhim masalasi ijtimoiy harakatlarni o‘rganishdir. Ijtimoiy harakat, M. Veberning fikricha, kishilarning ongli, anglagan munosabatlari sistemasi, bir-biriga o‘zaro ta’siridir. Inson harakati uning boshqa kishilarning harakatiga nisbatan javobidir. Ijtimoiy harakatdagi

motivlarni, qadriyatlarni hisobga olish kerak. Ijtimoiy harakat subyektining ma’naviy dunyosini, qadriyatli yo‘nalishini tushunmoq zarur. Harakat ma’nosini tahlil qilish, sezish, tushunish sotsiologiyani vujudga keltirdi. Tushunish sotsiologiyasida subyektning ijtimoiy harakati va ichki dunyosi mantiqiy fikrlar, tushuncha va hissiyot psixologiyasi orqali ochib beriladi. M. Veber sotsiologik jarayonlarni ilmiy darajada anglash va tushunishga intilib, bu usulni keng qo‘lladi. Bu ijtimoiy harakat subyektining ma’naviy olamini o‘rganishda qadriyatlar, axloq, siyosat, estetik, diniy qadriyatlarning o‘rni katta ekanligini ko‘rsatdi.

Shaxs o‘z harakatida, niyatida qadriyatlarga asoslanadi. Bu esa inson faoliyati va xulq-atvorining mohiyati hamda mazmunini belgilaydi. Ma’lumki, sotsiolog ham faylasuf ham muayyan qadriyatlarga tayanadi. M. Veberning fikricha, qadriyatlar hayotiy bo‘lib, insonning ongli faoliyati bilan uzviy bog‘langan.

Har qanday qadriyat ijtimoiy tarixiy asosga ega. M. Veber ijtimoiy falsafada ideal tiplar konsepsiysi (g‘oyasi)ni rivojlantirdi. Ideal tip nazariyasida ideal modelni yaratdi. Bu model inson uchun foydali bo‘lib, uning manfaatlarini ifodalaydi. Ideal tiplarda axloqiy, siyosiy, diniy va boshqa qadriyatlar asosiy o‘rin egallaydi. Shunga muvofiq kishilarning faoliyati va axloqining qoida hamda normalari belgilanadi. Ideal tiplarning ijtimoiy holati hokimiyat, shaxslararo munosabat, individual va guruh onglari holatlariga qarab belgilanadi. Ma’naviy qadriyatlarning o‘zaro aloqasi ideal tiplarni ijtimoiy ahamiyatli hodisalar darajasiga ko‘taradi, inson xatti-harakatining maqsadini belgilaydi, uni faollikka undaydi. Tarixiy jarayonda inson harakati tobora tus oladi, inson faoliyati ratsionallashadi.

Inson hayotiga yangiliklar, ijtimoiy o‘zgarishlar tobora qo‘proq kirib boradi. Shuningdek, Veber huquqiy davlat haqidagi nazariyasida mazkur davlat fuqarolarining munosabatlarini ratsionallashtiradi, qonunga asoslanadi, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy normalarga tayanadi, degan g‘oyani ilgari surdi.

Falsafiy nazariya sifatida pozitivizm ijtimoiy hayotning turli hodisalarini, ayniqsa, turli-tuman ijtimoiy institutlar strukturasi va barqarorligini tahlil qilishga alohida e’tibor berdi. Natijada ijtimoiy-falsafiy tafakkurda strukturali funksional

tahlil oqimi vujudga keldi. Unga amerikalik faylasuflar T. Parsons (1902–1979) va R. Merton (1910)lar asos soldi. Strukturali funksional tahlilda ijtimoiy sistema barqarorligiga, uning normal yashashiga asosiy e'tibor qaratildi. Bu nazariya tarafdarlarinig fikricha, jamiyat o'zgaradi, inqirozga uchraydi, shuningdek, turli ijtimoiy tashkilotlarning funksiyalari o'zgarib turadi. Bu oqim ijtimoiy sistemadagi funksional tomonlarning paydo bo'lishini, adaptatsiya (moslashuv, ko'nikish) va maqsadga erishish, integratsiya, birlashuv, qo'shilish, strukturani qayta tashkil etish, ijtimoiy keskinlikni yumshatish yo'llarini o'rganadi. Ijtimoiy garmoniya esa ijtimoiy kelishuvga qarama-qarshi bo'lgan muammolarni o'rganib, ijtimoiy sistemani buzishga, inqirozga olib keladigan har qanday holatlarni tahlil etadi.

Xususan, R. Darendorfning fikricha, ijtimoiy konfliktlar:

- a) ijtimoiy sistemadagi muvozanat holatining buzilishini va shu jarayonda rivojlanishning ro'y berishini anglatadi;
- b) jamiyatni inqirozga olib keladi.

XXI asr boshlariga kelib ijtimoiy falsafa tarixiy jarayon xarakteriga mos boshqa ko'plab qarashlarni ilgari surmoqda. Uning yo'naliishlari ko'p qirrali bo'lganligi sababli tarixiy jarayonning mohiyati va uning harakatlantiruvchi kuchlari to'g'risida ham turlicha qarashlar vujudga keldi.

Ayrim nazariyotchilar tarixiy qonunlarning o'rni salmoqli ekanligini e'tirof etsa, ayrimlari buni inkor etadi. Tarixning ma'nosi masalasidagi qarashlar ham bir xil emas. Shu ma'noda, tarixiy jarayon tahliliga turlicha metodlar asosida yondashiladi. Shunday bo'lishi tabiiy. Chunki insoniyat tarixi murakkab va xilmal reallikdan iborat bo'lib, unda turli kuchlar hamda omillar amal qiladi va jamiyat hayotini belgilaydi.

Insoniyat tarixiga va ijtimoiy hayotiga geografik muhit, ishlab chiqarish kuchlari, texnikaning rivojlanish darajasi, mafkura, axloq, qadriyat, iqlim va boshqalar ham ta'sir ko'rsatishi ma'lum. Bu omillar bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Tarixiy rivojlanish qanday bo'lishidan qat'i nazar, u umumiy obyektiv xarakterga ega. Insonning hayotiy faoliyati uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini, manfaatlarini qondirishga qaratilgan jarayon. U muayyan

qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Ijtimoiy falsafanining vazifasi ana shu qonunlarni xolisona o'rganish va izohlash. Tarixiy jarayonning obyektivligi uning birligi, ajralmasligi va bir butunligidadir. Tarix, albatta, ko'p qirrali va xilma-xil, lekin u bir butundir. Tarixiy rivojlanish muayyan sharoitga, vaziyatga, muammolarni hal etishga qarab turlicha namoyon bo'ladi.

Lekin insoniyat tarixi sifatida bir butun va yaxlit jahon tarixidir. Dunyodagi mavjud xalqlar tarixi jahon tarixi bilan uzviy bog'liq. Shu ma'noda jahon integratsiyasi obyektiv jarayon bo'lib, murakkab va ziddiyatli tarzda kechadi. Bu jarayonda turli mamlakat va xalqlar o'z manfaatlari, maqsadlari, istaklarini amalga oshirishga harakat qilishi ma'lum. Bunga ko'ra esa insoniyat tarixinining ziddiyatli xarakterga ega ekanligi unda obyektiv va subyektiv omillarning o'zaro ta'siri mavjudligi bilan belgilanadi.

Mazkur jarayonning yaxlitligi va turli-tumanligi uning bir xil va to'g'ri chiziqli emas, balki ko'p variantli va ziddiyatli xarakterga ega ekanligini anglatadi. Bugungi kunda ana shu ko'p variantlilik va ziddiyatlarni tinchlik va barqarorlik tamoyillari asosida hal qilishga harakat qilish davr talabiga aylandi.

Hozirgi davr va ijtimoiy-falsafiy kategoriylar modernizatsiyasi. Bugungi kunga kelib ijtimoiy-falsafiy tushuncha va kategoriylar o'ziga xos yangi mazmun va mohiyatga ega bo'lmoqda, ya'ni ular shunchaki ijtimoiy borliqning oddiy in'ikosi bo'lmay, balki uning mohiyatini belgilovchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Har qanday fan kabi ijtimoiy falsafanining shakllanishi va rivojlanishi uning tushuncha va kategoriylar tizimi takomillashuvi bilan ham bog'liq. Xususan, taraqqiyot jarayonida ijtimoiy muhitning o'zgarib borishi, ayni paytda ijtimoiy voqelik haqidagi kishilarning tasavvurlari, tafakkuri va tushunchalari o'zgarib, takomillashib borishini taqazo qiladi. Bu borada ijtimoiy tushunchalar va kategoriylar yaxlit tizim sifatida bilish subyektining muayyan hodisalar va jarayonlar haqida xaqqoniyligini bilimga ega bo'lishini ta'minlaydi, ijtimoiy voqealarni dialektik jarayon sifatida atroflichcha o'rganishga imkon yaratadi.

Ushbu tushunchalarni boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda, jumladan, tarixiy, iqtisodiy va siyosiy fanlarda qo'llanilishi jamiyat hayoti bilan bog'liq murakkab

masalalarga ilmiy yondashuvni shakllantiradi hamda ularning ziddiyatli jihatlari yechilishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy-falsafiy tushunchalar tarixiy asosga ega bo‘lib, doimiy rivojlanish va takomil jarayonida, tarixiy taraqqiyot dinamikasida namoyon bo‘ladi. YA’ni ijtimoiy hayot tezkorlik bilan rivojlansa, aynan bunday jarayonlar ijtimoiy tushunchalarda

ham namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda ijtimoiy falsafa tushunchalari muttasil takomillashuv jarayonida bo‘lib, bu jarayon esa dialektikaning o‘zgaruvchanlik va barqarorlik tamoyili asosida amalga oshadi. Ijtimoiy voqelikdagi narsa, hodisalar va jarayonlar dialektikasi hayotdagi tushunchalar va kategoriyalar dialektikasini belgilaydi. Ta’kidlash joizki, ijtimoiy tushunchalar amaliyot bilan birga boshqa bir qator ijtimoiy-falsafiy tushuncha va kategoriyalar, jumladan, manfaat, ehtiyoj, qadriyatlar, zaruriyat kabilar bilan ham uzviy bog‘liq. Ularning rivojlanishi o‘z mantig‘iga ega bo‘lib, avvalo, jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlash, uning rivojlanish qonun va qonuniyatlarining mohiyat mazmunini aniqlash, ularning o‘ziga xos jihatlarini bilib olishga imkon yaratadi.

Ijtimoiy falsafaning bu boradagi eng muhim xulosalaridan biri shuki, jamiyat rivojlanishining umumiyligi qonunlarisiz ushbu fan kategoriyalari mavjud bo‘la olmaydi va aksincha, uning kategoriyalarisiz ijtimoiy taraqqiyot qonunlari haqidagi haqqoniy bilimga erishish qiyin.

Har qanday fan kabi ijtimoiy falsafa fani ham mohiyat-e’tiboriga ko‘ra muayyan kategoriyalar va tushunchalar tizimidan iborat. Mazkur kategoriyalar tizimining mohiyat-mazmunini aniqlash, ularning mazkur boshqa kategoriyalar bilan bog‘liqligini anglash muhim ahamiyatga ega. Ushbu kategoriyalar tizimi tarixiylik va mantiqiylikning birligini ifodalaydi.

Ta’kidlash joizki, ijtimoiy falsafa fanining jamiyat hayotidagi voqeasi va hodisalar jarayonlarini bilishdagi roli falsafiy kategoriyalarni ijtimoiy hayotga oddiygina joriy etish, deb tushunish masalaga bir yoqlama yondashishga olib keladi. Ilmiy taraqqiyotni bilishning eng murakkab obyektlaridan biri jamiyat hisoblanadi. Bu jarayonda tarixni yaratuvchi inson o‘z oldiga

istiqbolga qaratilgan maqsad va vazifalarni, manfaatlarini belgilab oladi,

shuningdek, ularni amalga oshirish uchun tinimsiz harakat qiladi.

Bugungi kunda jahon falsafasi va o'tmishdagi boy falsafiy ta'limotlar yutuqlariga suyangan holda ijtimoiy voqelikni ilmiy tushuntirib, voqeа va hodisalar mohiyatini bilishda muhim metodologik vazifani bajaradigan ijtimoiy-falsafiy kategoriylar yangicha mazmuniga ega bo'lib bormoqda.

Ijtimoiy falsafa kategoriyalari ijtimoiy voqelikning in'ikosi, uning muhim sifatiy belgilarini umumlashtiruvchi tushunchalardir. Ular o'zaro dialektik bog'liq bo'lib, bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi, ushbu kategoriylar faqatgina mavhum umumiyligi tushunchalar bo'libgina qolmay, ayni paytda amaliy ahamiyatga ham ega. Chunki ular ijtimoiy hodisalarni bilishning zarur bosqichi bo'lib, bu jarayon oddiy bilib olish bilan chegaralanmaydi. Balki jamiyat mohiyatini anglab yetish va u haqda haqqoniy bilimga ega bo'lishda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy falsafa fani kategoriyalari va qonunlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish yoki ularni bir-biridan ajratish maqsadga muvofiq emas. Ular bir-birlarini to'ldiradi va boyitib boradi. Mazkur kategoriylar real voqelikka mos ravishda shakllansagina ijtimoiy tizimlar rivojlanishi va hayot qonunlari haqida to'laroq bilimga ega bo'lish imkonini ochiladi. Bu esa o'z navbatida jamiyat rivojlanishi qonunlari ijtimoiy falsafa fani tushuncha va kategoriylarining obyektiv mazmunini tashkil etishini anglatadi

Nazorat savollari.

1. XX asr falsafasining xarakterli xususiyatlari nimalarda ko'rindi?
2. Ekzistentsial falsafaning mohiyati nimadan iborat?
3. Neopozitivismning asosiy xususiyatlari qanday?
4. Strukturalizmning mohiyati nima?
5. Germenevtika nima?
6. Stsientizm va antstsientizm nima?

3-MAVZU: ANALITIK FALSAFANING VUJUDGA KELISHI. ANALITIK EPISTEMOLOGIYA. (2 soat)

Reja:

1. Analitik falsafaning vujudga kelishi.
2. Gnoseologik ta'limotlar va ularning zamonaviy tahlili.
3. Ilmiy bilish metodlari va ulaming zamonaviy tasnifi.

Falsafa ularning muhim xususiyatlari, birinchi sabablari va asoslarini aniqlashdan manfaatdor. U yoki bu munosabatni dunyoga yondashuv mezoni sifatida tanlash (masalan, dunyoga uyg'unlik, go'zallik, mutanosiblik nuqtai nazaridan yondashish) u yoki bu falsafiy fanni (ayni holda estetikani) belgilaydi. Dunyoga uni bilish imkoniyatlari va qonuniyatları nuqtai nazaridan yondashish bilish nazariyasi - gnoseologiyani vujudga keltiradi.

«Inson - dunyo» tizimiga hokimiyat munosabatlari nuqtai nazaridan yondashish siyosatshunoslikning predmetini tashkil etadi. Munosabatlar o'zagini axloqiy meyorlar tashkil qilishi etika sohasida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, falsafaning asosiy masalasi falsafaning strukturasida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, falsafaning asosiy masalasi xususida mulohaza yuritish jarayonida biz borliq nima, tafakkur nima degan savollarga turli xil javoblar olamiz. Vaqt o'tishi bilan bu javoblar o'z dalillar tizimi, metodologik tamoyillarini shakllantiradi va falsafiy yo'nalishlarga aylanadi. Masalan, borliqda eng avvalo faqat fan doirasida aniqlanishi va til tizimida belgilar yordamida ifodalanishi mumkin bo'lgan aloqalar va qonuniyatlarni ko'rish maxsus yo'nalish - pozitivizm, aniqroq aytganda, uning oxirgi bosqichi - analitik falsafa nuqtai nazari bilan muvofiq keladi. Bu erda borliq nima degan masala u yoki bu bilimlarni to'g'ri ifodalash muammosiga, til tahliliga borib taqaladi. Analitik falsafa doirasida «lingistik burilish» amalga oshirilgan va til falsafasi butun falsafaning asosi sifatida qabul qilingan.

Pozitivizm falsafani konkret fanlarga qarama-qarshi qo'yadi va ilmiy bilimni dunyonи o'zlashtirishning birdan-bir ijobiy shakli deb etirof etadi. Metafizika

falsafaning sinonimi sifatida eng avvalo til mantiqiy meyorlari nuqtai nazaridan mazmundan xoli deb elon qilinadi. Neopozitivistlar fikriga ko‘ra, falsafaning hayot mazmuni, cheklilik va cheksizlik, borliqning birinchi asoslari, universumning atributivligi kabi azaliy muammolari soxta tushunchalar sanalgan atamalar yordamida shakllantiriladi, zero ularga berilgan tariflarni tekshirish mumkin emas.

Ayni shu darajada fan falsafasi ham amal qiladi va ilmiy bilish faoliyati muammolarini tadqiq etadi. Avvaliga unda ilmiy faoliyatni muayyan metodologik tamoyillar va normativ-mantiqiy ideallar bilan muvofiq holatga keltirish, aniqroq aytganda fanni fizika tili negizida unifikatsiya qilish vazifasi qo‘yilgan edi. U fizikalizmga qarab mo‘ljal olardi. Keyinchalik bilishning ijtimoiy-madaniy omillariga qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Bilish jarayoniga normativ yondashuvning imkoniyatlari tor ekanligi namoyon bo‘lganidan so‘ng ilmiy bilish faoliyati meyorlarining relyativligi g‘oyasi tug‘ildi. Fan falsafasiga ijtimoiy-madaniy bilim (sotsiologiya, psixologiya, lingvistika, antropologiya va kulturologiya) natijalari va metodlari kirib kela boshladi.

Borliq nima?, degan savolga javob izlar ekan, falsafa borliqni eng avvalo inson mavjudligi dunyosi sifatida qayd etuvchi nuqtai nazarda to‘xtaydi. Bu o‘ziga xos tushunchalar apparatiga ega bo‘lgan ekzistensial falsafa vujudga kelganini anglatadi. Ikkinci jahon urushidan, insoniyat sivilizatsiyasida yuz bergen tub o‘zgarishlardan so‘ng borliq insoniyat ko‘z o‘ngida metafizik dahshat, qo‘rquv, tashvish, zerikish va hatto behuzurlik tarzida namoyon bo‘ladi. Ekzistensial falsafa ikki yo‘nalishda - ham diniy, ham ateistik falsafa sifatida rivojlanadi. Diniy ekzistensial falsafa borliqni e’tiqod sifatida tushunadi, e’tiqodni va ayni paytda uning inson borlig‘i ufqida paydo bo‘lishini «haqiqiy mayjudlik»ka erishish usuli deb elon qiladi. Ateistik ekzistensializmda esa butunlay boshqacha kayfiyat hukm suradi. Tariflarda ko‘p sonli ziddiyatlar mavjudligi tufayli Xudoning borli gi inkor etiladi. Mustaqil va anonim tarzda o‘z-o‘zida mayjud bo‘lgan borliq ongga ega bo‘lishi mumkin emas, u insonga nisbatan rahmsizdir, bu esa amalda Xudo yo‘qligini anglatadi, degan xulosaga kelinadi.

Borliq hayot fenomeni sifatida, materiya va ruhning ajralishidan oldin yuz

bergan yaxlit organik jarayon sifatida talqin qilinganda hayot falsafasi paydo bo‘ladi. Bu erda birlamchi hayot voqeligi o‘zini turli xil ko‘rinishlarda namoyon etadi. Nitsshening volyuntarizmida u «hokimiyatga intilish» sifatida namoyon bo‘ladi. Bergson tasavvurida hayot kosmik yuksalish bo‘lib, uning mohiyati ong va o‘ta yuksak ong bilan belgilanadi. Diltey va Zimmel hayotni madaniy-tarixiy xususiyatga ega bo‘lgan kechinmalar oqimi sifatida tavsiflaydi. Biroq taklif qilingan talqinlarning barchasida hayot ijodiy shakllanish jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Harakat, eng avvalo - oqilona unumli harakat sifatida tushunilgan borliq AQSHda keng tarqalgan pragmatizm sohasiga olib kiradi. Ushbu falsafiy konsepsiaga ko‘ra har qanday harakat kelajakka qaratilgandir. Amerikalik faylasuf CH.Pirs (1839-1914)ning: «Narsa g‘oyasi uning hissiy oqibatlari g‘oyasidir», degan tezisi pragmatizmning manifesti sifatida qaralishi mumkin. Haqiqat u yoki bu g‘oyaning samaraliligi va ish qobiliyati, uning maqsadga erishish uchun foydaliligi demakdir.

Borliqqa intuitiv tarzda anglab etiladigan sir sifatida yondashuv, intuitivizm deb nomlanadi. Intuitsiya intellektga qarama-qarshi turadi va predmetning mohiyatiga biron-bir manfaatni ko‘zlamasdan, xolisona nazar tashlashni, subekt va obekt o‘rtasidagi masofani qisqartirishni nazarda tutadi. Intuitivizmda bilim kechinma tarzida amal qiladi.

Borliq vaziyatlardan tarkib topsa va ularni talqin qilish usuli birinchi darajali ahamiyat kasb etsa, demak, bu erda gap germenevtika haqida boradi. Uning doirasida tushunuvchi talqin qilish borliqni gavdalantirishning asosiy modusi hisoblanadi. Biror narsani tushunish uchun uni tushuntirish kerak, tushuntirish uchun esa - tushunish zarur.

Falsafiy muammolar mohiyatini tushunib yetish, ularning eng muhimlarini aniqlash va nihoyat, falsafiy bilimlar bilan oshno bo‘lish - ko‘rsatilgan bodimlami sinchiklab o‘rganish, bunda ularga yaxlit bir butunning tarkibiy qismlari sifatida yondashish demakdir. Pirovardida biz falsafaning o‘ziga xos tili, o‘z yondashuvlari va metodlari, nihoyat, tabiat, jamiyat va tafakkurga oid eng muhim aloqalar,

xossalari va qonunlarni o‘zida aks ettiruvchi umumiy tushunchalar - kategoriyalar tizimi vujudga kelganining guvohi bo‘lamiz. Bunda falsafadagi har bir bo‘lim yoki yo‘nalish ham o‘z tushunchalar apparatiga, yani bilimning faqat shu sohasiga xos bo‘lgan va uning asosiy mohiyatini yoritib beradigan kategoriyalar tizimiga egadir.

Falsafada ko‘rib chiqilgan mavzular bilan bir qatorda shunday bili m sohalari ham mavjudki, ular qolgan barcha bilim sohalariga kirib boradi, ular bilan uyg‘unlashadi va ularni to‘ldiradi. Masalan, tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkurida yuz beruvchi harakat, rivojlanish va o‘zgarishlar haqidagi falsafiy talimot - dialektika ana shunday bilim sohalaridan biri hisoblanadi.

Ob’ektiv sabablarga ko‘ra falsafiy bilimning ayrim sohalari sezilarli darajada rivojlandi va vaqt o‘tishi bilan mustaqil falsafiy fanlarga aylandi. Bunday bilim sohalari qatoriga, masalan, insonning bilishni amalga oshirish shakllari, qonunlari va usullarini o‘rganadigan fan - mantiqni; ma’naviyat va axloq haqidagi ta’limot - etikani; go‘zallik qonunlariga muvofiq ijodning mohiyati va shakllari haqidagi fan - estetikani kiritish mumkin.

Shu manoda falsafa tarixi fani alohida diqqatga sazovordir, zero u, mohiyat etibori bilan, nafaqat falsafiy, balki tarixiy fan hisoblanadi. Ayni vaqtida u falsafiy bilim tarkibiga ham kiradi, chunki falsafiy tafakkurning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini, falsafiy g‘oyalar evolyusiyasi va xususiyatini turli faylasuflar, yo‘nalishlar, oqimlarning talimotlarida qanday tavsiflangani nuqtai nazaridan o‘rganadi. Falsafa tarixi fanida falsafiy talimotlarni tizimga solish va tasniflashga, matnlar, tarixiy sanalarni tahlil qilishga, daliliy material, biografik malumotlar yig‘ishga alohida etibor beriladi. Shu munosabat bilan dunyoqarashni kengaytirish va teranlashtirishga, o‘z falsafiy yondashuvlarini yaratishga qaratilgan falsafani o‘rganish, uning tarixi, asosiy namoyandalari va eng muhim falsafiy asarlari bilan albatta tanishishni nazarda tutadi.

Gnoseologiya yoki bilish nazariyasi falsafiy bilimlar sifatida insonning dunyoni bilish imkoniyatini, o‘zlikni anglash jarayonini, bilishning bilmaslikdan bilim sari yuksalishini, bilimlar tabiatini va ularning mazkur bilimlarda aks etuvchi narsalar bilan o‘zaro nisbati masalalari o‘rganiladi. Demak, gnoseologiya ong,

bilish, bilimni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Ijtimoiy jarayonda inson ongning o'z-o'ziga, boshqalarga va umuman jamiyatga tasiri natijalarini fiziologik jihatdan his qiladi va uning mavjudligini sezadi, Biroq bunda ongning o'zi ko'rinxaydi. Moddiy dunyo hodisalaridan farqli o'laroq, ongni kuzatish mumkin emas. U go'yo vaqt va makon chegaralaridan tashqarida turadi.

Ko'rinxmas ongni idrok etish, uning moddiy narsa va hodisalar dunyosi bilan o'zaro aloqalarini aniqlash, uni o'z muhokama va tadqiqot predmetiga aylantirish masalasi gnoseologiyaning asosiy vazifasini tashkil etadi.

Bilish jarayoni rivojlanish qonuniyatlarining shakllari, haqiqatning tagiga etish imkoniyatlari nuqtai nazaridan o'rganiladi. Natijada, falsafada inson bilishining tabiatini va mohiyati haqida turli xil talimotlar, turli xil qarashlar kelib chikqan.

Bir guruh faylasuflar insondan, uning ongidan tashqari dunyo mavjud emas, dunyo faqat bizning ongimizda, bizning sezgi va idroklarimiz yig'indisidan iborat xolos, binobarin biz o'z sezgi va idroklarimiznigina bilaolamiz, degan fikrlarni bildirishganlari malum.

Boshqa bir guruh faylasuflar esa insonning dunyoni va o'zini bilishga shubha bilan qaraydilar, inson dunyoni to'liq bilolmaydi, deyishib, inson bilishini cheklaydilar yoki dunyoni bilishni butunlay inkor qiladilar. Skeptitsizm (skeptitsizm — yunoncha: spektoman — shubhalanaman) - talimoti vakillari inson bilishining nisbiyligi, uning turli sharoitlar va vaziyatlar bilan bog'liq ekanligini aytishib, hamma etirof qiluvchi, isbot talab qilinmaydigan inson bilimlarining bo'lishi mumkinligiga shubhalanadilar. Masalan, Skeptitsizmning asoschilaridan biri Pirron (eramizdan oldingi taxminan 365-275 yillar) xissiy idrokni ishonchli deb hisoblagan (masalan, agar biron narsa subektga achchiq yoki shirin tuyulsa, shu haqidagi fikr haqiqat bo'ladi), yanglishuv esa, uningcha subekt bevosita hodisadan mohiyatni, obekt asosini bilishga o'tmoqchi bo'lganda paydo bo'ladi. Uning fikricha, obekt haqidagi har qanday davoga uning mazmuniga zid bo'lgan davoni qarama-qarshi qo'yish mumkin. Demak skeptik uzil-kesil hukmlardan

tiyilib turmog‘i lozim.

Dunyoni bilishni qisman yoki butunlay inkor qiluvchi falsafiy talimot bo‘lgan agnostitsizm vakillari inson dunyoni bilishga qodir emas, degan g‘oyani ilgari surishadi. Masalan, ingliz faylasufi D.Yum talimotiga ko‘ra, bilish obekti, bilimlarimizning manbai obektiv borliq emas, balki subektiv sezgi va idroklarimizdir, biz o‘z sezgi va idroklarimiz chegarasidan tashqarida nima borligini bila olmaymiz.

Ilm va fan yutuqlariga asoslangan faylasuflar insonning dunyoni va o‘zini bilishni doimo etirof etib kelganlar. G‘arb falsafiy tafakkuri va unga xos bilish tamoyillari rivojida antik davr muhim o‘rin tutadi. Bunda Milet, Ioniya, Eley maktablari vakillari, ayniqsa, Geraklit, Zenon, Protagor, Demokrit, Epikur kabi allomalarning fikr mulohazalari ahamiyatga molikdir. Geraklitning hamma narsa o‘tmishdan kelajak tomon oqib, abadiy o‘zgarib turadi, bilish ana shu tamoyilni o‘zlashtirib olish lozim, degan xulosasi hozirgacha ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Suqrot insonni, uning bilish xususiyatlari, ahloqi va aqlini falsafiy izlanishlar markaziga qo‘ygan, eng avvalo o‘zining xayoti, turmush tarzi va fikrlashini o‘z g‘oyalariga monand qilishga uringan edi. Chunki, Kadimgi Yunonliklarga manaviy komillik bilan jismoniy barkamollik, dunyoqarash bilan amaliy turmush, so‘z bilan ish uyg‘unligi aynanligiga intilish xislati xos edi. Uning fikricha, birinchidan, dunyo bilan inson o‘rtasidagi aloqadorlik ikki tomonlamadir. Ulardan birini ustun qo‘ygan zaxoti yo mutloq pragmatizm yoki mutloq relyativizm vujudga keladi. U aql-idrokni ulug‘langanligi bilan insonni borliqdan ajratmaydi, iloxiy kuch uni o‘z tasir doirasida ushlab turadi. Ikkinchidan, inson passiv obektiv emas, unga izlanish, yon atrofni o‘zgartirish xos. Biroq, bu say-harakat «o‘zgartirish uchun» bo‘lmasligi kerak, chunki barcha o‘zgarish negizida inson manaviyatining takomillashuvi yotadi. Uchinchidan, tashqi dunyoni o‘zgarishi kishiga tom manoda baxt keltirmaydi, chunki o‘zgargan tashqi dunyoni qabul qila olishga, u bilan uyg‘un yashashga loyiq ichki dunyo, ruhiy manaviy olamni o‘zgartirish zarur keyin xayotni, tashqi dunyoni o‘zgartirish maqsadga muvofikdir.

Suqrot nazarida inson qiziquvchanlik orqali ko‘p narsani bilishi mumkin. Uning «Agar qiziquvchan bo‘lsang, ko‘p narsani biladigan bo‘lasan», deya takidlashi bejiz emas. Bilish insonga ilohiy ruh tomonidan berilgan. Inson ilohiy ruxga intilib, ko‘p narsani biladi yoki bilishi mumkin, agar unga intilmasa nopol, yomon yo‘llarga kirib ketadi. Demak, inson ilohiy kuchning, ruhning borligini yodda tutgan holda bilimga intilishi zarur, zero bilim ezgu amallar asosidir.

Platonning bilish nazariyasi uning g‘oyalari talimoti va ruh, jon xaqidagi qarashlaridan kelib chiqadi. Faylasuf fikriga ko‘ra, hamma ham xaqiqatni to‘la to‘kis bilish qobiliyatiga ega emas. Ayniqsa falsafani bilish ayrim kishilargagina xosdir. Uni xaqiqiy bilimga ega bo‘lмаган ham to‘la idrok eta olmaydi. Xaqiqiy bilimga ega xudo uchun bilimning xojati yuq, bilimi yuq g‘ofil uchun esa falsafa kerak emas, chunki u o‘zining g‘ofilligi bois bilimning nima uchun kerakligi bilmaydi. Faylasuf esa oqil (xudo) bilan g‘ofil (banda) o‘rtasida turadi.

Platon inson bilimga ega bo‘lganligi uchun barcha narsalar meyoridadir, degan tezis ilgari suriladi. Platon inson bilimini, bilish faoliyatini mavjudlik va taraqqiyot belgilardan, mezonlaridan biri sifatida talqin etadi.

Aristotel Platonning bilish nazariyasidan farqli tarzda, Demokrit singari olamni, tabiatni bilish sezgilar orqali amalga oshadi, bilishning predmeti va manbai kishi ongidan tashqaridagi mavjud olam, degan fikrni ilgari surgan. Uning takidlashicha, olamni bilish sezgidan boshlanadi. Sezgi tirik organizmga taalluqli bo‘lib, u tashqi olamning tasiri tufayli yuzaga keladi. Sezgilar ko‘rish, eshitish, tam bilish va xid sezgilariga bo‘linadi. Sezgi azolari orqali yakka-yakka jism va xodisalarning sifat hamda xususiyatlari to‘g‘ri aks ettiriladi. Bundan ko‘rinadiki, Aristotel olamni bilishda empirik, sensualistik fikrda bo‘lgan ayni paytda ratsionalizmga ham katta ahamiyat bergen. Aristotel bilish jarayonida empirik va ratsional bilimlarning birligini takidlaydi-yu, ammo bu masalada izchil bo‘la olmagan. U tafakkurni sezgilardan obektiv reallikdan ajratib qo‘yib, uning manbaini mutloq aql, mutloq shakl tashkil etgan degan xulosaga kelgan.

Ajdodlarimizning qadimgi kitobi «Avesto» diniy-falsafiy merosimizning eng yorqin namunasidir. Malumotlarga ko‘ra, kitob bir necha avlodlar tomonidan

yaratilgan bo‘lib, shu asnoda unda gnoseologik tushuncha va tamoyillar tizimi takomillashib borgan. «Avesto» zardo‘shtiylikning asosiy kitobi bo‘lganidan bu dinga xos bilimlar tizimini o‘zida ifodalagan. Shu bilan birga, kitobda inson qobiliyatlariga, ularning manaviyat va amaliy faoliyat uchun ahamiyatiga katta o‘rin berilgan. Kitobda aytishicha, insonning olamn i anglash jarayonidagi bilimi haqiqatning g‘alabasi uchun kurashda befarq turmasligida, yashash tarzi, manaviy qiyofasi, ijtimoiy faoliyati, «ezgu fikr», “ezgu so‘z” va «ezgu amal»ida o‘z ifodasini topadi. Ana shunday fazilatlarga ega bo‘lgan kishigina zul mat va jaholat ustidan g‘alaba qilishi, yaxshilik urug‘ini sochishi, yaxshi nom qoldirishi, boshqalarning taqsini va minnatdorchiligiga sazovor bo‘ladigan bilimlarga erishishi mumkin.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Navoiylar ham insonning dunyoni va o‘zini bilish masalasi haqida to‘xtalib, inson tabiat va jamiyatni hamda o‘zini bilishga qodir, inson bilishi sezgi va idroklardan boshlanib, tafakkurga tomon rivojlanib boradi, inson aqli — faol, u bilishning asosiy qurolidir, deyishadi. Ular inson bilishi malum narsalardan nomalum narsalar tomon rivojlanib boradi, deb ko‘rsatishgan.

«Sharq Arastusi» yuksak unvoniga sazovor bo‘lgan o‘z davrining buyuk mutafakkirlaridan biri, Forobiy fikricha, inson bilimlarni tashqi dunyodagi hodisalarni bilish jarayonida o‘zlashtiradi. Bu jarayon sezish, idrok etish, xotira, tasavvur qilish va eng muhimi - mantiqiy mulohaza yuritish, tafakkur kabi usullarni qamrab oladi. Bu vositalar yordamida inson fanni o‘rganadi. Forobiy «Fan va sanatning o‘ziga xos xususiyatlari» asarida tabiatni bilishning uzluksizligini, bilish - bu bilishdan bilimga, sababni bilishdan oqibatni bilishga, hodisani bilishdan mohiyatni bilishga eltuvchi yo‘l ekanligini qayd etadi.

Abu Rayhon Beruniy, tabiat va uning obektiv qonunlari mayjudligiga shubha qilmagan. U tabiat muttasil o‘zgarish va rivojlanishda bo‘ladi, materiya narsalar shaklini o‘zi yaratadi va o‘zgartiradi, jon (tafakkur, manaviy hodisalar) tananing muhim xossasidir, deb takidlagan. Malumki, tajriba, eksperiment borliqni bilish usullaridan biri hisoblanadi. Beruniy shunday deb yozadi: «Mendagi ishtibohni

faqat tajriba va takroriy sinov bartaraf etishi mumkin, ...so‘zlovchilarning yakdilligiga qaramay, buning haqiqiyligi tajribada o‘z tasdig‘ini topmagan». Tajribada olingan bilimni mutafakkir ayrim meyorlarga muvofiq ishonchli bilim deb talqin qiladi. Ularning orasida obektlarning kuzatuvchanligi, tajribalarning qayta o‘tkaziluvchanligi va kuzatishlarning tekshiriluvchanligini qayd etish mumkin.

Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Masud qonunlari”, “Xindiston” kabi asarlarida ijtimoiy bilimlarning mazmun -moxiyatiga katta etibor bergan. Olim fikricha, odamlar o‘rtasidagi munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy extiyoj, qiziqish, manfaat, talab va maqsadlari ijtimoiy bilimlarni vujudga keltirgan va takomillashtirgan. Masalan, kishilar o‘rtasidagi hamfikrlilik odamlarning birlashish ehtiyojlari mavjudligi, himoya qilish qurollari kamligi va dushmanlardan o‘zini ximoya qilish zaruratini xis qilishi tufayli vujudga kelgan. Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari «Geodeziya», «Mineralogiya» asarlarida o‘z ifodasini topib, unda dunyoning o‘ziga xos tabiiy-ilmiy manzarasi va tabiat hodisalarini bilish masalalariga katta etibor qaratilgan.

Bilish masalalari Ibn Sinoning «Qushlar tili», «Donishnama», «Tib qonunlari» kabi (100 ga yaqin) asarlarida ham o‘z ifodasini topgan. Uning nazarida, o‘z ibtidosini Allohdan olgan borliq va tabiat insonni o‘rab turuvchi abadiy makondir. Shu jixatdan uni bilishdagi ahamiyati, qadri beqiyos, inson esa hamma ilmlarni tabiatdan oladi, undan o‘ziga davo izlaydi va topadi.

Ibn Sino moddiy dunyo predmetlarini sezgilar manbai deb hisoblab, ularning obektiv tabiatini tashqi moddiy dunyo inikosi sifatida yoritadi. Bundan tashqari, u sezgini materiyaning xossalardan biri deb etirof etadi. Alloma sezgini materiyaning oliy shakllari bilan bog‘laydi. Ibn Sino mavjud narsalarni tasniflar ekan, sezgi hayvonlar deb ataluvchi jismlarga xosligini qayd etadi.

Ibn Sino bilishda xissiy bilish, sezgilar va sezgi azolarining ahamiyatini takidlagan. Uningcha, tashqi va ichki sezgilar mavjud, tashqi sezgilar odamni olam bilan bog‘laydi va besh xilga bo‘linadi: ko‘rish, eshitish, tam-maza bilish, xid va teri sezgisi. Ichki sezgilar qabul etish, xotirada saqlash va tasavvur etish uchun

xizmat qilib, tashqi sezgilar asosida shakllanadi. Ibn Sino sezgi va xissiy qabullashdan tashqari, aql, tafakkur va tajribaning bilishdagi ahamiyatiga o‘z diqqatini qaratgan. Mantiqiy bilish, uning mohiyati va xususiyatlari to‘g‘risida qimmatli fikrlarni bayon qilgan.

Tasavvuf falsafasi vakillari esa o‘z qarashlarida insonning hissiy bilishi tashqi bilishni, akliy bilish esa ichki bilishni tashkil qilishini aytishib, ularning o‘zaro bog‘likligini ham uqtirganlar. Shu bilan birga, ular inson dunyoni va o‘zini bilishi uchun manaviy kamolotga erishmog‘i lozim, lekin bu kamolotga erishish quruq intilish bilan emas, balki o‘qish, o‘rganish, bilimlarni va hunarlarni egallash, jamiyatda boshqa kishilar bilan o‘zaro muloqotda va munosabatda bo‘lish orqali yuzaga keladi, deyishadi.

Tasavvuf ilmining eng ulug‘ namoyandalaridan biri Ahmad Yassaviy tafakkurning o‘sha zamonga mos keladigan tushunchalarini namoyon bo‘lishi va amal qilish shartlarini tariflab bergan So‘fiylik asoslarini targ‘ib qiladigan «Devoni xikmat» majmuasida manaviy tafakkurning asosiy shakllari poklik, xayo, bardosh va sabr-qanoat, xushxulqlik, beozorlik, xokisorlik kabi xislatlar ekanligini ko‘rsatgan.

Tasavvufning boshqa oqimlari kabi Naqshbandiylikda ham olamni bilish, avvalo, Allohnini bilish, uning kuch-qudratini anglashdir. Bu borada insonga ong, tafakkur ato etilgan. Har bir kishi ular vositasida dunyoni anglaydi, uning sirlaridan voqif bo‘ladi, olamdagini botiniy va zoxiriylar mazmun-moxiyatini bilib oladi. Naqshbandiya tariqatida Alloh visoliga etish uchun dunyodan voz kechish yoki tarki dunyo qilish emas, balki “Dil ba yoru, dast ba - kor” («Qo‘ling ishda, ko‘ngil allohda») bo‘lmog‘i, poklik, hayo, kamtarinlik komil insonning asosiy fazilatlari bo‘lishi lozimligi uqtiriladi.

Umuman olganda, Naqshbandiya talimotidagi kamtarinlik, saxiylik, bag‘rikenglik, mehr-shavkat, xayri-exson, o‘zaro yordam, do‘stlik va birodarlik, tenglik va totuvlik, sofkillik, mehnatsevarlik, poklik, odillik va bilimdonlik kabi olg‘a surilgan g‘oyalar o‘z mazmuni va mohiyati bilan umuminsoniy xarakterga ega bo‘lib, o‘zining nazariy va amaliy ahamiyatini yo‘qtgani yo‘q.

Yangi davrda Evropa faylasuflari ham insonning dunyoni va o‘zini bilishi haqida qimmatli fikrlarni bildirishadi. Masalan, ingliz faylasufi F.Bekon, inson bilishi sezgilardan boshlanadi, bilishning manbai tajribadir, sezgilar orqali olingan dalillarni inson tafakkur yordamida qayta ishlab chiqadi, deydi. U inson bilish jarayoni fan va amaliyot bilan bog‘liq ekanligini, ularga xizmat qilishi lozimligini aytadi. Bilishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘li Bekonning fikricha, tajriba va tahlildir. Yani xususiy dalillardan umumiy nazariyalar tomon yo‘nalish, mavjud barcha narsa va xodisalarga ilmiy uslubda yondashish g‘oyasini ilgari suradi.

Fransuz olimi Rene Dekartning bilish falsafasida bilimning xaqiqiyligiga shubxa uyg‘otmaydigan, xaqiqatga erishishning aniq usullari masalasi ustivor edi. Bunday yondashish Dekartning barcha asarlarida, jumladan, «Uslub xaqida fikrlar» deb nomlangan falsafiy asarida o‘z ifodasini topgan. Hamma narsaga shubha bilan qarash, shubha qilish Dekartning bilishdagi asosiy tamoyili edi.

Falsafa tarixida Dekart ratsionalizmning asoschisi xisoblanadi. Ratsionalizm (bilish nazariyasi yo‘nalishi) matematik bilimning mantiqiy xarakterim bir yoqlama tushunish natijasida vujudga keladi. Matematik bilimning umumiy va zaruriy xarakteri Dekartga aqlning o‘z tabiatidan kelib chiqqandek tuyulishi sababli, u bilish jarayonida deduksiyaning favqulotda rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Bu deduksiya intuitiv tarzda payqaladigan, to‘la ishonchli aksiomalarga tayanadi.

Nemis faylasufi I.Kant esa insondan va uning ongidan tashqarida obektiv borliqning mavjudligini etirof qilgan holda, undagi predmet va hodisalarini «narsalar biz uchun» va «narsalar o‘zida»ga bo‘ladi. Uning fikricha, «narsalar biz uchun» — bu insonni qurshab turgan predmetlar va hodisalar, shu jumladan, tabiat ham. «Narsalar o‘zida» esa: erkinlik, o‘lmaslik, xudo va shu kabilardir. Ularni inson hech qachon to‘liq bila olmaydi. Kant o‘z bilish nazariyasida e’tiqodga o‘rin qoldirish, uni mustahkamlash uchun aqlni tanqid qiladi va cheklaydi. U inson aqlini nazariy va amaliy aqlarga bo‘ladi, amaliy aql uningcha, cheklangan. Uning qarashicha, ins on tajriba va amaliyot bilan har qanday bilishga ham ega bo‘lavermaydi. Inson bilishida insonning tajribasigacha unda aprior (lot. arriori - so‘zidan olingan bo‘lib, tajribadan oldin degani) bilimlar bo‘ladi. Bu aprior

bilimlar tug‘ma bilimlardir. Inson aqli bu bilimlarga tajribagacha ega bo‘lgan bo‘ladi. Kantning fikricha, falsafiy bilimlar ayni shunday aprior bilimlardan iboratdir.

Nemis mumtoz falsafasining so‘nggi vakili L.Feyerbax inson dunyoni bilishga qodir, inson dunyoni bilish uchun qancha sezgi azosi kerak bo‘lsa, shuncha sezgi azosi insonda mavjud deb uqtiradi. Uningcha, sezgilar bilish jarayonining boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, sezgi azolari insonni tashqi dunyo bilan bog‘laydi. Feyerbax fikricha, sezgi azolari insonni tabiat bilan tanishtiradi, lekin tabiatni tushuntirmaydi. Inson bilishining yuqori bosqichi tafakkurdir. Tafakkurning asosiy vazifasi esa sezgi azolari orqali yig‘ilgan malumotlarni to‘plash, solishtirish, tahlil qilish, izoxlash, umumlashtirish, shular asosida ularning ichki mazmunini ochish va ulardan xulosalar chiqarishdir. Tafakkur tashqi dunyoni bevosita, chuqurroq aks ettiradi.

Fransuz marifatchilari Didro, Golbax, Gelvetsiy, Volter va Lammetriylar esa insonning dunyoni bilishi masalasida fikr yuritishib, sezgilar tafakkurning asosi ekanligini, ular inson bilishining quyi boshlang‘ich bosqichi, tafakkur esa eng yuqori, murakkab bosqichi ekanligini tan olaganlar.

Malumki, turli ijtimoiy-iqtisodiy davrlardagi kishilarning bilish darajasi fan taraqqiyoti, texnika rivojining darajasi va ko‘lami, jamiyat ishlab chiqarish usuli qo‘ygan vazifalari bilan belgilanadi. Inson dunyoni va o‘zini bilishi bilan cheklanmaydi, balki bu bilish natijasida hosil qilgan bilimlari orqali u tabiat va jamiyatni, dastavval, o‘zini - o‘z ongini, o‘z manaviy dunyosini o‘zlashtiradi va o‘zgartiradi.

Bilishda obekt va subektning o‘zaro aloqasi. Bilish jarayoni juda murakkab bo‘lib, u subektiv va obektiv tomonlarning birligidan, subektning obektga tomon borishidan iborat.

Bilishning falsafiy nazariyasiga ko‘ra, bilish moddiy va manaviy borliqning inson miyasidagi muayyan maqsadga qaratilgan faol aks etishidir. Inson bilishining manbai moddiy va manaviy borliq, ularni tashkil qilgan narsa va hodisalardir. Bilish moddiy va manaviy borliqning inson miyasidagi subektiv obrazlari, ramzlari

va belgilaridir. Inson o‘z miyasida faqat tabiiy va ijtimoiy borliqni, ulaming qonuniyatlarini aks ettirib qolmasdan, balki o‘zining manaviy-ruhiy va insoniy borlig‘ini ham inikos ettiradi. Buning manosi shuki, inson borliqni oynada aks ettirgandek inikos ettirmaydi. Insonning dunyoqarashi, bilim darajasi, hayotiy tajribasi va hokazolar bilish jarayonida o‘z tasirini ko‘rsatadi. Bilish obektiv dunyoning subektiv obrazidir, degan fikrda katta mano bor.

Inson bilishi o‘z moxiyatiga ko‘ra ijtimoiy bo‘lib, u inson ijtimoiy faoliyatining bir shakli sifatida tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining qonunlarini inson tomonidan o‘zlashtirishning real jarayoni tarzida subekt va obektning o‘zaro munosabatida vujudga keladi.

Inson bilishining obekti va subekti deganda nimani tushunamiz?

Bilishning subekti umuman olganda insondir. Ammo abstrakt inson yo‘q, bo‘lmaydi. Shu sababli bilishning subektini borliqdagi predmet va hodisalar bilan bevosita yoki bavosita muayyan tabiiy va ijtimoiy munosabatlarda bo‘luvchi, kishi yoki kishilar guruhi tashkil qiladi.

Bilishning obekti subektning bilish doirasiga kirgan, uning bilishi qaratilgan borlikdagi aniq narsa va hodisalardir.

Inson bilishining tabiatini obekt-subekt o‘rtasidagi munosabatini to‘g‘ri tushunish asosida bilib olish mumkin. Bunda inson faolligi muhim rol o‘ynaydi.

Inson borliqni faqat bilib olish uchungina o‘rganmaydi, balki u borliq va uning qonunlarini bilib olishi bilan tabiatga, jamiyatga va o‘ziga faol tasir ko‘rsatib, tabiatni, jamiyatni va o‘zini o‘zgartirib boradi. Bu erda inson bilishining amaliyot bilan chambarchas bog‘liqligini namoyon bo‘ladi.

Inson bilishini unda borliq qanday aks etishiga qarab oddiy-kundalik va ilmiy bilishlariga ajratish mumkin. Insoniyat tarixining dastlabki davrlaridayoq tabiat va olam haqidagi eng oddiy malumotlar beruvchi kundalik amaliy bilimlarning manbai, asosi kundalik turmush tajribalari bo‘lib, unga oddiy malumotlar yig‘indisi sifatidagi tarqoqlik va notizimlilik xosdir. Oddiy kundalik bilish kundalik oddiy kuzatish, hayotiy tajriba asosida borliqdagi narsa va xodisalarni insonning o‘z sezgi va tafakkurlari orqali bilishidir. Masalan, hammaga ayonki

kechadan so‘ng kunduz va yana kecha kelishini va u Cheksiz davom etishini hamma biladi, yoki yil fasllarini almashinib turishi, biridan keyin ikkinchisi kelishini ham hamma biladi. Ammo hamma ham nega shunday bo‘ladi? Sababi nimada ekanligi bilan qiziqmaydi?

Kundalik bilim haqiqatni qayd etsada, uni nomuntazam va isbotsiz amalga oshiradi. Bunday bilimning xususiyati shundaki, odatda, u inson tomonidan ongsiz, kundalik tajribaga asoslangan holda qo‘llaniladi.

Kundalik noilmiy bilim tarqoq, notizimli bilim bo‘lib, u qonunlar bilan izohlanmaydi va formallashtirilmaydi. Voqeа va hodisalarни ilmiylik mezonlari nuqtai nazaridan asosli tushuntirmaydi. Kundalik noilmiy bilimning qatiy tizimi va klassifikatsiyasi bo‘lmaydi.

Bugungi kunda, noilmiy bilimning quyidagi shakllari ham etirof etiladi: Parailmiy bilim (mavjud standartlarga mos kelmaslik), yolg‘on ilm (turli aqidalardan ongli ravishda foydalanish), kvaziilmiy bilim (zo‘ravonlik va majbur qilish metodlariga asoslanib o‘ziga hamkor izlaydi), antiilmiy bilim (haqiqat haqidagi tasavvurlarni ongli buzish va utopizm), psevdoilmiy bilim (ananaviy nazariyalarni targ‘ib qiluvchi intellektual faollikda namoyon bo‘ladi) va boshqalar.

Demakki, noilmiy bilim tarqoq, notizimli bilim sifatida tushunilib, u qonunlar bilan izohlanmaydi va formallashtirilmaydi, mavjud dunyoning ilmiy manzarasiga qarama-qarshi turadi. Noilmiy bilim kimningdir uydirmasi yoki yolg‘on emasligini anglash zarur. Chunki u (ratsionallikdan farq qiluvchi) o‘zining normalari, etalonlari, bilish vositalari va manbalariga ega bo‘lgan aniq intellektual asoslarda shakllanadi.

Eng umumiy manoda ilmiy bilish obektiv olamdagи narsa va hodisalar haqida obektiv haqiqiy bilimni egallash jarayonidir. Ilmiy bilish narsa va hodisalarни izohlash, tushuntirish va bashorat qilish kabi vazifalarni bajaradi.

Ilmiy bilish esa ana shu hodisalarining mohiyati, sababi, qonun va qonuniyatlarini ochib berishga yo‘naltirganligi bilan ajralib turadi. Demakki, ilmiy bilish borliqdagi predmet va hodisalarning qonuniyatlarini, ularning mohiyatini bilishdir. Ilmiy bilish, odatda ilmiy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borish

asosida amalga oshadi.

Inson bilishi bilmaslikdan bilishga, aniq bo‘lmagan bilishlardan, to‘liq bo‘lmagan, qisman bilishlardan to‘liqroq bilishlarga, oddiy bilishdan murakkab ilmiy bilishlarga tomon borishidan iboratdir.

Hissiy, mantiqiy, empirik, nazariy, intuitiv bilish darajalari, ularning o‘ziga xosligi va aloqadorligi. Inson bilishida bilishning qanday paydo bo‘lishi jihatidan hissiy, mantiqiy, empirik, nazariy, intuitiv, g‘oyibona bilish kabi ko‘rinishlari ham mavjud.

Hissiy bilish - insonning his qilishi, sezgi azolari orqali predmet va hodisalarini, ularning tashqi tomonlarini bevosita idrok qilish tushuniladi.

Hissiy bilish inson bilishining dastlabki bosqichi bo‘lib, uning natijasida inson miyasida predmet va hodisalarning belgilari, signallari, hissiy obrazlari hosil bo‘ladi.

Hissiy bilish bosqichi: his qilish, sezgi, idrok va tasavvur kabi shakllarda sodir bo‘ladi.

His qilish - inson bilishining shunday shakliki, unda kishi o‘z-o‘ziga, atrofdagi narsa-hodisalarga, kishi yoki kishilarga bo‘lgan munosabatida o‘zining muayyan holatga kirishi, muayyan holda bo‘lishidir.

Sezgi - hissiy bilishning dastlabki shakllaridan bo‘lib, u insonning borliqni, undagi narsa va hodisani bilishning o‘ziga xos ko‘rinishidir.

Sezgi va sezgilar insonning sezgi azolariga borliqdagi predmet va hodisalarning bevosita yoki bilvosita tasiri natijasida yuzaga keladigan hissiy obrazlardir. Sezgilarni hosil qiluvchi bunday sezgi azolari insonda tashqi va ichki holatlarda joylashgan bo‘lib, ular: ko‘rish, tam bilish, teri sezgisi va eshitish sezgi azolaridir, qolganlari ichki sezgi azolari hisoblanadi. Bu sezgi azolari insonning borliqni bilishida o‘ziga xos bir vosita bo‘lib, ular orqali predmet va hodisalar haqidagi dastlabki malumotlar inson miyasiga qabul qilinadi. Inson bu sezgi azolari orqali borliqdagi predmet va hodisalarning tashqi belgi va xususiyatlarini bilib oladi.

Biroq his qilish va sezgilar insonning borliqni bilishi uchun hali etarli emas.

Buning uchun inson o‘zining hissiy bilishida his qilish va sezgilar shakllarida hosil qilgan malumotlarini to‘plab, umumlashtirib, ularni bir butun holda inikos ettirishi ham lozim bo‘ladi. Hissiy bilishning bunday yangi shakli idrokdir.

Idrok - borliqdagi predmet va hodisalarini yaxlit hissiy obraz idir. U o‘zida his qilish va sezgilar shakllaridagi obrazlarni jamlab ifodalovchi xususiyatga ega. Biroq insonning hissiy bilishi idroklar shakllarida yuzaga kelgan hissiy malumotlar inson miyasida qayta ishlanib, hissiy bilishning yangi, yuksak shaklini hosil qiladi. Bu tasavvurdir.

Tasavvur - ilgari idrok etilgan, ammo ayni vaqtda bevosita idrok etilmayotgan predmet va hodisalarning inson miyasidagi qayta ishlanib, tiklangan hissiy obrazidir.

Hissiy bilishning tasavvur shaklida predmet va hodisalarning ikkinchi darajali, muhim bo‘lmagan xususiyatlari tashlab yuborilib, faqat ayrim muhim xususiyatlarigina inikos etgan bo‘ladi. Shu tufayli tasavvur predmet va hodisalarini umumlashtirgan, mavhumlashtirgan darajada aniq hissiy shaklida inikos ettiradi.

Aqliy yoki mantiqiy bilish hissiy bilish bergen malumotlarga suyangan holda insonning predmet va hodisalarini ularning eng muhim tomonlari, mohiyatlarini tafakkur orqali umumlashtirib, mavhumlashtirib va konkretlashtirib, ularni fikrda ifodalanishidir. Faqatgina aqliy bilishgina bizga narsa va hodisalarning mohiyatini bilib olish imkoniyatini beradi.

Aqliy bilishda inson tafakkuri borliqdagi predmet va hodisalarning izchil bog‘lanishlari va aloqadorliklarini, ularning harakat, o‘zgarish va rivojlanish qonunlarini malum fikr shakllari —tushuncha, hukm va xulosa chiqarish kabilarda ifodalaydi.

Tushuncha - predmet va hodisalar, ularning muhim va zaruriy belgi va xususiyatlarining umumlashtirilgan, mavhumlashtirilgan va ayni choqda aniqlashtirilgan fikri obrazidir. U bilish jarayonida malum guruhdagi narsalarni bazan malum, umumiyligi, muhim belgilari ko‘ra umumlashgan xolda ajratib aks ettiradi. Umuman olganda, tushuncha abstrakt tafakkur shakli sifatida bazi narsalarni umumlashtirish va shu narsalar uchun umumiyligi bo‘lgan belgilari

yig‘indisini fikran ajratish natijasidir. Tushuncha muhim jihatlar va xossalarni aniqlaydi va ularni o‘zida mujassamlashtiradi: tushuncha mohiyatning fikrda ifodalangan obrazidir. Shuning uchun ham oz sonli tushunchalar son-sanoqsiz narsalar - xossalari va munosabatlarni qamrab oladi.

Hukm — mantiqiy bilishning shunday fikriy shakliki, unda borliqdagi muayyan predmet va hodisalar, ular o‘rtasidagi bog‘lanish va aloqadorliklar haqida tasdiq yoki inkor fikr ifodalanadi. Hukm - fikrning shunday shakliki, uning yordamida tushunchalarning haqiqatga mosligi tasdiqlanadi yoki inkor etiladi.

Xulosa chiqarish - mantiqiy bilishning shunday shakliki, unda bir yoki bir necha hukmlar asosida yangi hukm — yangi fikr hosil bo‘ladi. Xulosalash inson mantiqiy bilish bosqichining yuqori shaklidir.

Shunday qilib, insonning bilish jarayoni hissiy bilish shakllari: his etish, sezgi, idrok va tasavvurlardan boshlanib, aqliy bilish shakllari: tushuncha. xukm va xulosa chiqarish shakllarida tafakkurda qayta ishlanib, bilishning «quyi» bosqichidan, «yuqori» bosqichi tomon ko‘tarilib boradi.

Xissiy va akliy bilish, bilish jarayonining bir-biridan ajralmas ikki boskichi bo‘lib, ularning birini rolini oshirib yuborish va absolyutlashtirish mumkin emas. Xissiy bilish bergen dalillarsiz akliy bilishning bo‘lishi mumkin bo‘lmaganidek, akliy bilishsiz narsa va xodisalarining moxiyatini bilib bulmaydi.

Shuningdek bilish empirik va nazariy ilmiy bilish darajalariga ham bo‘linadi. Ilmiy bilishning empirik darajasi kuzatish, eksperiment, o‘lchash, guruhlarga ajratish, sinflarga bo‘lish, ilmiy tasnifga doir amallarni o‘z ichiga oladi.

Ilmiy bilishning nazariy darajasida gipotezalarni ilgari surish, ilmiy nazariyni yaratish, qonunlarni tariflash, bir gipoteza va nazariyani boshqalari bilan taqqoslash, shuningdek, umumlashtirish, tushuntirish va avvaldan aytish amallari bajariladi.

Malumki, empirik bilish biluvchi inson - subektning hissiy qobiliyatları bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi. Biroq tajribaning vosita va shakllari xissiy qabullashga nisbatan muayyan avtonomlikda bo‘ladi. Masalan, bosimni aniqlovchi asbobning ko‘rsatishi qayd qilinsa, bu bilish amali hali ilmiy dalil bo‘la olmaydi.

Ilmiy dalil kuzatishlar natijalarini biror fikr ko‘rinishida - yani «strelka shkala bo‘limlarining 760 mm simob ustunini ko‘rsatayapti», - degandan boshlanadi. Agar nazariy bilish to‘g‘risida gapiradigan bo‘lsak, bu bilishda bizning hissiy qobiliyatlarimiz qatnashadi. Buning uchun elementar geometriyadagi teoremlarni isbotlashni ko‘rsatishimiz mumkin, bu erdagи fikrlar geometrik shakllarni uchburchaklar, kvadratlar, aylanalar va shunga o‘xshash qabullashimizga asoslanadi.

Avvalo, bu bilish darajalari o‘zlarining predmetlari bo‘yicha farqlanadi. Izlanuvchi ilmiy bilishning bu ikki darajasida ham ayni bir obekt bilan ish ko‘radi, biroq obekt har bir darajada turlicha namoyon bo‘ladi. Empirik bosqichda subekt hodisalarni kuzatish bilan band bo‘ladi, hodisalarning munosabatlari - bog‘lanishlarini qayd qiladi. Nazariy darajada esa kuzatilayotgan hodisal arni yuzaga keltirgan sabablari to‘g‘risidagi gipotezalar aytiladi. Odatda sabablarni aniqlash o‘rganilayotgan obektning mohiyatini ochish bilan bog‘liqdir. Nazariyaning vazifasi, jumladan sababni aniqlagan holda hodisaning tabiatini tushuntirishdir.

Empirik va nazariy ilmiy bilish darajalari bilish vositalari bo‘yicha farq qiladi. Empirik darajada subekt o‘zi o‘rganayotgan obekt bilan bevosita o‘zaro tasirda bo‘ladi, uni kuzatadi yoki parametrlarini o‘lchaydi. Bunda bilish vositasi sifatida obekt to‘g‘risida malumot olib beradigan tegishli asboblar bilan qurollangan holda ko‘rish yoki eshitish qobiliyatidan foydalanish mumkin. Nazariy darajada subekt bilish obekti to‘g‘risida bilvosita fikrlashi mumkin, yani bunda u tajribada olingan natijalar asosida ish ko‘radi.

Ilmiy bilish darajalari shuningdek, tushuncha vositalari va tili bilan ham farq qiladi. Empirik atamalar belgilarini sistemalashtirish (tavsiflash) asosida shakllanadi. Hosil qilingan tushunchalar (atamalar) empirik tavsiflash sistemasini tashkil qiluvchi fikr - davolar tarzida tartibланади. Bunday empirik fikrlarni bevosita tekshirish imkonи bo‘ladi. Masalan, «dmamometmmg strelkasi 100 bo‘linish shkalasini ko‘rsatib turipti», - degan fikr haqiqiy bo‘ladi, agar o‘sha asbob rostdan ham shkalaning shu bo‘limini ko‘rsatayotgan bo‘lsa. Nazariy

fikrlarga kelsak, ularning mavqeい empirik fikrlardan anchagina farq qiladi. Nazariyaning tushunchalari - atamalar nazariy bilish darajalariga xos vositalari bilan o‘rganiladigan obektlarning yuksak abstraksiyalar, ideallashtirishlardir. «Moddiy nuqta», «absolyut qattiq jism», «ideal gaz» singari ideallashtirilgan tushunchalar yaxshi tanish. Bunday ideallashtirishlarni o‘z ichiga olgan nazariy fikrlarning ham haqiqiyligi sinab ko‘riladi. Biroq bunday sinov - tekshirishlarda tajribaga bevosita «chiqish» bo‘lmaydi, bunday ularni nazariya ichida ham, empirik fikrlarni amallarni talab qiladi.

Odatda empirik fikrlar ham nazariy yuklamaga ega bo‘lib, nazariyasiz inson aslida nimani kuzatayotganini va nima uchun eksperiment o‘tkazayotganini, yani u nimani izlayotganini, nimani o‘rganayotganini bilmagan bo‘lardi. Masalan, kuzatishlar asosida «jism to‘g‘ri chiziqli tekis harakat qilayapti» deb aytilagan fikr bunday harakatni tasnif qilish mumkin bo‘lgan ideal sxemaga t ayanishnitalab qiladi, bu o‘z navbatida, klassik mexanikadagi to‘g‘ri chiziqli tekis harakat nazariyasini foydalanishni taqozo qiladi. Tajriba dalillarining nazariyaga bog‘liqligi bazan go‘yo kuzatishlar va eksperimentlarning natijalari turli nazariyalar uchun birday bo‘lmaydi. Biroq bunday davo bilan kelishib bo‘lmaydi, chunki kuzatishlar va o‘lchash amallarida ayni bir vosita, asbob, sonli shkalalar va shunga o‘xhashlardan foydalaniladi. Bundan tashqari, fan tarixi shuni ko‘rsatadiki, empirik bilish natijalari uzoq vaqtgacha o‘zining avtonomligini saqlashi va malum vaqt o‘tgandan keyingina nazariy bilishga o‘z tasirini o‘tkazishi mumkin. Masalan, fransuz fizigi A.Bekkerelning (1896 yilda) kashf etgan uran tuzining tabiiy nur aktivligi fizikaning taraqqiyoti uchun ulkan ahamiyatga ega bo‘ldi. Faqat yillar o‘tgandan so‘nggina «radioaktivlik», yani nur aktivligi nomini oldi. Bu avval M.Kyuri nazariyasi so‘ngra E.Rezerford nazariyasida tushuntirib berildi. Biologiyadagi buyuk voqealar, angliyalik olim Robert Guk tomonidan (1668 yilda) hujayraning mavjudligi aniqlangandan boshlandi. Yillar o‘tgach, M.Shleyden va T.Shvan (1838 - 1839 yillar) tomonidan hujayra nazariyasi deb atalgan konsepsiya ilgari surilib, shakllantirildi.

Nazorat savollari

1. XX asr falsafasining xarakterli xususiyatlari nimalarda ko'rindi?
2. Ekzistentsial falsafaning mohiyati nimadan iborat?
3. Neopozitivizmning asosiy xususiyatlari qanday?
4. Strukturalizmning mohiyati nima?
5. Germenevtika nima?
6. Stsientizm va antistsientizm nima?

4-MAVZU: O'ZBEKISTONDA YANGILANISH KONSEPSIYASINING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI. (2 soat)

Reja:

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va yangilangan konstitutsiya.
2. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining mazmun mohiyati va ustuvor yo'nalishlari.
3. "Taraqqiyot strategiyasi" doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.

Harakatlar strategiyasining uzviy davomi o'laroq, O'zbekistonning kelajagi bilan bevosita bog'liq bo'lgan eng muhim hujjat – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Bu bilan, kelgusi yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O'zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida 100 ta maqsadga erishishga qaratilgan. Ushbu maqsadlarga erishish yo'lida amalga oshiriladigan sa'y-harakatlar ham aniq. Ular, o'z navbatida, samaradorlik va natijadorlikni nazorat qilishni anchayin osonlashtiradi. Boshqacha qilib aytganda, rejalashtirilgan islohotlar natijadorligini taraqqiyotning maqsadlariga erishganlik darajasiga muvofiq ravishda baholash tizimi joriy etildi.

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi mazkur taraqqiyot strategiyasi va uning doirasida qabul qilinadigan Davlat dasturlarining qanday amalga oshirilayotgani va ijrosi qay tarzda ta’minlanayotgani haqida bir qator risola, to‘plam va boshqa targ‘ibotga doir materiallarni tayyorlab, milliy va xalqaro jamoatchilikka taqdim etib borishni rejalashtirmoqda.

Mamlakatimizni 2017 — 2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o‘tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Shuningdek, inson huquqlarini ta’minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqr qayta ishslashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta’minlash bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rildi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta’lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta’minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

So‘nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqr tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson

huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida:

1. Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (:

inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash;

adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;

milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;

mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

2022 — 2026 YILLARGA MO‘LJALLANGAN YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI

I. INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ORQALI XALQPARVAR DAVLAT BARPO ETISH

1-maqsad: Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish.

Hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni joyida hal etish maqsadida mahallalar vakolatlarini kengaytirish, ularning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish.

Fuqarolarning o‘z mahallasi hayotidagi ishtirokini hamda davlat organlari va

mahallalar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani ta’minlash, mahallalarda aholi bilan ishslashga qaratilgan jarayonlarni raqamlashtirish.

Mahalladan turib barcha davlat idoralariga murojaat qilish tizimini yaratish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko‘rsatish.

Mahallalarning “o‘sish nuqtalari” va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish.

Mahallalar uchun yuqori malakali mutaxassislarini maqsadli tayyorlash, barcha mahalla raislari va hokim yordamchilarida boshqaruв asoslari, bandlikni ta’minlash, bank-moliya, tomorqa, er, chorvachilik va parrandachilik bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi institutining samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

2-maqsad: Xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo‘g‘inga aylantirish.

Xalq deputatlari Kengashlarida doimiy asosda faoliyat yurituvchi deputatlar korpusini shakllantirish va ularning vakolatlarini kengaytirish orqali hududiy ijo organlari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish.

Xalq deputatlari Kengashlarining mahallalardagi muammolarni hal qilishdagi rolini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish, mahalliy budgetni shakllantirish va nazorat qilish bo‘yicha ularning mas’uliyatini kuchaytirish.

Mahallalarning joylardagi vakillik organlari bilan, xalq deputatlari Kengashlarining Oliy Majlis Senati bilan, hokimliklarning vazirliklar va ularning hududiy bo‘linmalari bilan aloqalarini mustahkamlash.

Mahalliy kengashlarning kotibiylari faoliyatini yanada kuchaytirish choralarini ko‘rish.

3-maqsad: Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirish.

Joylardagi masalalarni hal etishda mahalliy hokimliklarning moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish va har bir vazifa ijrosi, shuningdek sarflanayotgan mablag‘lar yuzasidan jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish.

Mahalliy ijro hokimiysi organlarini demokratik tamoyillar asosida shakllantirish, shu jumladan hokimlarni saylash tizimini joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish.

Mahalliy davlat hokimiysi organlari tomonidan hududiy ijro organlarining shtat birligi va tuzilmalarini belgilash amaliyotini bosqichma-bosqich kengaytirish, hududlarda amalga oshiriladigan vazifalar bo‘yicha “vakolatlar reyestri”ni shakllantirish.

Mahalliy boshqaruvi faoliyatiga axborot texnologiyalarni keng joriy qilish, hududlarning 40 dan ortiq, jumladan transport, infratuzilma, ijtimoiy va boshqa sohalar bo‘yicha ma’lumotlarni jamlovchi tahliliy geoportallarini ishga tushirish.

4-maqсад: Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “fuqarolarga xizmat qilishga yo‘naltirish” tamoyili asosida transformatsiya qilish.

Vazirlik va idoralarni tashkil etish va tugatishning aniq tartibi, ularni bir-biridan farqlovchi mezonlarni nazarda tutuvchi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqib, amaldagi davlat boshqaruvi tizimini qayta ko‘rib chiqish.

Davlat boshqaruvi organlarining shtat birliklarini oshirishga cheklov o‘rnatishning tartibini hamda kadrlar va moddiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha aniq mezonlarni belgilash.

Davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvi vujudga kelishini bartaraf etish, mazkur jarayonga keng jamoatchilikni jalb qilish.

Vazirlik va idoralar faoliyatining barcha yo‘nalishlarini “Davlat — xalq xizmatchisi” tamoyili asosida fuqaroga xizmat qilishga yo‘naltirish.

5-maqсад: Ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish.

Vazirlik va idoralar rahbarlariga tashkiliy-huquqiy masalalarni o‘zları mustaqil hal etishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, qabul qilinayotgan

qarorlarning ular tomonidan samarali ijro etilishini ta'minlash.

Davlat boshqaruvi organlarining hududiy masalalarni hal qilishdagi mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish hamda ularning strategik yo'nalishlarini rejalashtirishga qaratilgan yangi tizim yaratish.

Vazirlik va idoralarda ish yuritish va ma'muriy boshqaruv jarayonlari sifatini oshirish.

6-maqсад: Davlat boshqaruvi tizimida ma'muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirish.

Xususiy sektorga o'tkaziladigan ayrim davlat funksiyalari sonini 3 barobarga oshirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish.

Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish ishlarini jadallashtirish hamda davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash.

Hududlarni rivojlantirish bo'yicha vazifalarni hal qilishda barcha darajadagi davlat boshqaruvi organlari hududiy boshqarmalarining samarali ishini tashkil etish.

7-maqсад: Mamlakatimizdagi islohotlarni izchil davom ettirishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish.

Oliy Majlis palatalarining davlat hokimiyati tizimidagi o'rmini mustahkamlash, ularning ichki va tashqi siyosatga oid muhim vazifalarni hal etishdagi vakolatlarini kengaytirish.

Barcha sohalarda vaziyatni har tomonlama o'rganish va mavjud muammolarni hal etish uchun ta'sirchan choralar ishlab chiqishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada kuchaytirish, qabul qilingan qonunlarning amaliyotda so'zsiz va to'liq ijro etilishini ta'minlashda parlamentning ishtirokini kengaytirish.

Qonun ijodkorligi va parlament nazoratini amalga oshirishning amaldagi mexanizmlarini samaradorlik nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish, mazkur jarayonlarda fuqarolarning ishtirokini ta'minlash orqali jamoatchilikning davlat boshqarividagi tashabbuskorligini oshirish.

Davlat budgetini tasdiqlash va uning ijrosini nazorat qilish doirasida parlament tomonidan mas’ul tashkilotlarga aniq strategik vazifalarni qo‘yish va natijaga qarab ularga so‘rov yuborish amaliyotini joriy qilish.

Oliy Majlis palatalarida hududlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri, shu jumladan masofaviy ishlash amaliyotini keng joriy qilish, hududlarni rivojlantirish va investitsiya dasturlari muhokamasida tegishli hududdan saylangan deputat va senatorlarning ishtirokini kuchaytirish.

“Elektron parlament” doirasida deputatlarni o‘z saylovchilari bilan, senatorlarni hududlardagi fuqarolar bilan bog‘lash, ular bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot olib borish, saylovchilarni qiynayotgan muammolarni muhokama qilish va hal etish jarayonini raqamlashtirish.

Qonunchilik palatsasi boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish, parlament saylovlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida yanada takomillashtirish.

8-maqсад: Norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjatlarining qat’iy ijrosini ta’minalash.

Qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolik jamiyatni institutlari bilan maslahatlashuvlar o‘tkazish amaliyotini takomillashtirish.

Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barqarorligi, sifati va samaradorligini ta’minalash maqsadida “aqlii tartibga solish” modeli elementlarini qo‘llash doirasida qonunchilik hujjatlarining tartibga solish ta’sirini baholashni rivojlantirish va kengaytirish.

Huquq tizimining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyotning yangi drayverlarini harakatga keltirish doirasida zamonaviy texnologiyalarga va raqamli faoliyatga bo‘lgan talablarni qayta ko‘rib chiqish.

Sohalarda “tartibga solish yuki”ni kamaytirish doirasida qonunchilik hujjatlarini qisqartirish, davlat organlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligin rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish.

Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish vakolatiga ega davlat

organlari doirasini qisqartirish, shuningdek ushbu hujjatlar sonini maqbullashtirish ishlarini davom ettirish.

9-maqsad: “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish hamda byurokratiyani bartaraf etish.

Davlat xizmatlarini mobil ilovalar orqali ko‘rsatishni kengaytirish.

Davlat xizmatlarini ko‘rsatishda shaxsni identifikatsiya qilishning Mobile ID tizimini joriy qilish.

“Elektron hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali davlat organlari hamda xususiy tijorat tashkilotlari o‘rtasida ma’lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yish asosida byurokratik jarayonlarni qisqartirish.

Shaxsga doir ma’lumotlarning himoyasini ta’minlaydigan ruxsat berish hamda xabardor qilish tizimini joriy etish.

Fuqarolarga muddatli, muayyan faktni tasdiqlovchi hujjatlarni berish va almashtirishni hamda kompozit davlat xizmatlarini ularning murojaatini kutmasdan turib taklif etish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.

Keksa va nogironligi bo‘lgan shaxslarga davlat xizmatlari ko‘rsatishni soddalashtirish, ularga qulayliklar yaratish.

“Raqamli idora” loyihasi doirasida davlat organlarida ish yurituvini raqamlashtirish orqali ma’muriy tartib-taomillarni optimallashtirish va boshqaruv jarayonini avtomatlashtirish.

“Fuqarolarning raqamli pasporti” loyihasini joriy qilish hisobiga aholidan muayyan faktlarni tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish amaliyotini bekor qilish.

Xorijdagi O‘zbekiston fuqarolariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish amaliyotini kengaytirish.

Davlat xizmatlarini raqamlashtirish va ularning 20 foizini xususiy sektorga o‘tkazish.

10-maqsad: Davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish.

Davlat xizmatida korrupsiya omillarini bartaraf etish, kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish va ular faoliyati samaradorligini baholashning huquqiy asoslarini

takomillashtirish.

Davlat xizmatchilar va davlat organlari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) asosida baholash tizimi bo‘yicha “Milliy reyting” tizimini joriy etish.

Davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta’minot darajasini oshirish tizimini takomillashtirish.

Mahalliy hokimlik organlari, vazirlik va idoralarga rahbarlik lavozimlari uchun munosib nomzodlarni tayyorlash maqsadida Milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish.

Davlat xizmatiga kirish, zaxirani shakllantirish, baholash va xizmatni o‘tash bilan bog‘liq jarayonlarni raqamlashtirishni nazarda tutuvchi “Raqamli davlat xizmati” loyihasini amalga oshirish.

Davlat organlarida ish vaqt va mehnat me’yorlari bo‘yicha talablarni qayta ko‘rib chiqish.

11-maqsad: Xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish.

Xalq bilan ochiq muloqotning mexanizmlarini yanada takomillashtirish, muhim qarorlarni jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qabul qilish amaliyotini kengaytirish.

Davlat organlariga kelib tushgan murojaatlarni jamlovchi markazlashgan tizimni yaratgan holda ularni ko‘rib chiqish muddati va sifati ustidan raqamli nazorat o‘rnatish, aholining kundalik turmush tarziga bevosita ta’sir qiluvchi masalalar bo‘yicha murojaatlar tezkor va sifatli ko‘rib chiqilishini ta’minlash.

“Davlat xalqqa xizmat ko‘rsatishi shart” g‘oyasini tatbiq etishni nazarda tutuvchi “Xalqparvar davlat” milliy dasturi izchil amalga oshirilishini ta’minlash.

Jamoatchilik palatasining faoliyatini samarali tashkil etib, uning fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish va aholini qiynayotgan muammolarni hal etish yo‘llarini belgilash jarayoniga faol jalg etish.

12-maqsad: Ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini

rivojlantirish, jamoaviy murojaatlar asosida hududiy, tarmoq va davlat dasturlari ijro sifatini tekshirish amaliyotini joriy etish.

Ayrim davlat funksiyalarini amalgalash jarayoniga jamoatchilik nazorati subyektlarini keng jalb qilish, davlat organlari faoliyatini o‘rganishda ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish hamda aniqlangan kamchiliklarni ochiq muhokama qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.

Aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini va saylov madaniyatini oshirish, saylovlarga oid xalqaro standartlarni qonunchilikka implementatsiya qilish ishlarini davom ettirish.

Ommaviy axborot vositalarining roli va jurnalistlarning kasbiy faoliyati himoyasini yanada kuchaytirish, odamlarni qiynayotgan muammolar hamda islohotlarning ijrosi ahvolini o‘rganishda ularning mehnatidan samarali foydalanish.

Ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shakllarida qo‘llab-quvvatlash hajmini ikki barobarga oshirish.

Xalq deputatlari Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarni va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondlariga ajratilayotgan mablag‘lar hajmini yetti barobarga oshirish.

II. MAMLAKATIMIZDA ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI TAMOYILLARINI TARAQQIYOTNING ENG ASOSIY VA ZARUR ShARTIGA AYLANTIRISH

13-maqsad: Mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash.

Xususiy mulk daxlsizligi va himoyasi kafolatlarini kuchaytirish, mulkiy, shu jumladan yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarni so‘zsiz ta’minlash.

Xususiy mulk ustuvorligini asosiy tamoyil sifatida belgilash, shu jumladan davlat idorasining rasmiy ma’lumotiga ishonib mol-mulk sotib olgan shaxsning huquqini himoya qilish tizimini joriy etish.

14-maqsad: Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash.

Mahkumlar va jazoni o'tab bo'lgan shaxslarning mehnat, ijtimoiy ta'minot va xalqaro e'tirof etilgan boshqa huquqlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga reintegratsiyasiga ko'maklashishning samarali mexanizmlarini joriy etish, ushbu yo'nalishda davlat va jamiyat institutlarining birgalikdagi faoliyatini yo'lga qo'yish.

Fuqarolarga huquqiy ta'sir ko'rsatish, shu jumladan harakatlanish erkinligini cheklash bilan bog'liq choralarni qo'llashda qonuniylikni so'zsiz ta'minlash hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Fuqarolarni yashash joyi bo'yicha hisobga olish tizimini yanada soddalashtirish va aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratish, ushbu yo'nalishda boshlangan islohotlarni yakuniga yetkazish.

Jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish.

Qiynoqlarning oldini olish bo'yicha preventiv mexanizmlarni takomillashtirish va ushbu yo'nalishda maxsus qonun qabul qilish.

Yuvenal adliya tizimini shakllantirish hamda bola huquqlari qonunchiligini kodifikatsiyalash.

15-maqsad: Davlat organlari va mansabdar shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish.

Ma'muriy sudlarda mansabdar shaxslarning qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish tizimini takomillashtirish orqali sud nazoratini qo'llash sohasini kengaytirish.

"Xabeas korpus" institutini yanada rivojlantirish orqali tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish.

Sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuv tamoyillarini ro'yobga chiqarish.

Sudlar tizimida “yagona darcha” tamoyilini keng joriy etish maqsadida arizalarni sudga taalluqliligidan qat’iy nazar, qabul qilish va vakolatli sudga yuborish hamda muayyan ish doirasida barcha huquqiy oqibatlarni hal qilishni ta’minlash tizimini joriy etish.

Sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, byurokratik g‘ov va to‘siqlarni bartaraf etish orqali fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini tubdan oshirish.

Nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, yarashuv institutini qo’llash doirasini yanada kengaytirish.

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlashda sudyalar hamjamiyati organlarining rolini yanada oshirish, sudyalarning o‘zini o‘zi boshqarish tamoyilini keng joriy etish hamda sudyalarga g‘ayriqonuniy tarzda ta’sir o‘tkazishning oldini olish bo‘yicha ta’sirchan mexanizmlarni yaratish.

Sudyalar korpusini shakllantirishda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, sud tizimidagi rahbarlik lavozimlariga tayinlashda saylanish va hisobdorlik kabi demokratik tamoyillarni joriy etish.

Sud tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish ishlarini olib borish.

16-maqsad: Jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish.

Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish.

Jamoat tartibini saqlash bo‘yicha patrullik xizmati faoliyatini tubdan takomillashtirish, shu jumladan zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etgan holda fuqaroni ichki ishlar bo‘limiga tekshirish uchun olib borish amaliyotidan voz kechish.

Yo‘l infratzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo‘llarda avariya va o‘lim holatlarini qisqartirish, shu jumladan

harakatni boshqarish tizimini to‘liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta’minlash.

17-maqsad: Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish.

Ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishslashga yo‘naltirish.

Qonuniylikni qat’iy ta’minlovchi, ochiq va adolatli prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish hamda “Qonun — ustuvor, jazo — muqarrar” tamoyilini bosh mezonga aylantirish.

Tezkor-qidiruv va tergov faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, fuqarolarning qadr-qimmati va erkinligini samarali himoya qilishning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda jinoyatlar haqida xabarlarni hisobga olish tizimini tubdan isloh qilish, jinoyatlarni yashirish holatlarining oldini olishda zamonaviy usullardan foydalanish.

18-maqsad: Sud va boshqa organlar hujjatlarining o‘z vaqtida va to‘liq ijrosini ta’minlash.

Sud va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishning samarali mexanizmlarini joriy etish.

Sud va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishning muqobil, shu jumladan suddan tashqari usullaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish.

Majburiy ijro organlari faoliyatiga xalqaro standartlarni bosqichma-bosqich joriy etish va ayrim funksiyalarni (sud hujjatlaridan tashqari) xususiy sektorga o‘tkazish, davlat ijrochilari ish yuklamasini kamaytirish.

19-maqsad: Advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlарини himoya qilishдаги salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo‘lgan talabini to‘liq qondirish.

Advokatura institutini to‘laqonli o‘z-o‘zini boshqarish tizimiga o‘tkazish, Advokatlar palatasi boshqaruvi organlarining advokatlar hamjamiyati oldidagi hisobdorligini kuchaytirish, tizimga yosh malakali kadrlarni jalg qilish.

Advokatlar malakasini oshirish tizimining zamonaviy va samarali mexanizmlari va institutsional asoslarini shakllantirish.

Advokatlik faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali ortiqcha byurokratiya va qog‘ozbozlikka chek qo‘yish, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari bilan elektron hujjatlar almashinuvini yo‘lga qo‘yish.

Bepul huquqiy yordam ko‘rsatish ko‘lамини kengaytirish, notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlarining xizmatlaridan ovoragarchiliksiz, shu jumladan masofadan turib va “yagona darcha” tamoyili asosida foydalanishni ta’minlash.

20-maqsad: Faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o‘rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish.

Aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat organlarining fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari va ta’lim tashkilotlari bilan o‘zaro samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish.

Tadbirkorlar va aholi, ayniqsa uning kam ta’minlangan qatlamlari uchun huquqiy hujjatlarni yurist ishtirokisiz tayyorlash imkonini beruvchi “Legal Tech” platformasini ishga tushirish.

III. MILLIY IQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISH VA YUQORI O‘SISh SUR’ATLARINI TA’MINLAsh

21-maqsad: Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va yillik inflatsiya darajasini 2023-yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish.

Davlat budgeti taqchilligini qisqartirish va 2023-yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash.

Har bir tuman budgetining kamida 5 foizini “Fuqarolar budgeti” dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzARB muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish.

Davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori 4,5 milliard AQSh dollaridan oshib ketmasligini ta'minlash.

22-maqсад: Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish.

Sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash.

Energiya resurslari va tabiiy gaz bozorlarini ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilagan holda erkinlashtirib, sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish hamda ehtiyojmand aholini himoya qilish uchun ijtimoiy iste'mol normalarini kiritish.

Iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga neft-gaz mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berilishini ta'minlash.

Mis sanoati klasterini tashkil etish orqali mis va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 baravar ko'paytirish hamda 8 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarish uchun asos yaratish.

Kimyo va gaz-kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishslash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish orqali kimyo sanoatida 2 milliard AQSh dollariga teng mahsulot ishlab chiqarish.

Avtomobil sanoatida kooperatsiyani yanada rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga, eksport hajmini 2 baravarga ko'paytirish va mahalliy lashtirish darajasini oshirish. Chirchiq shahrida qishloq xo'jaligi mashinasozligi ishlab chiqarishini yagona sanoat klasteri usulida tashkil etish.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish.

To'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga

ko‘paytirish.

Charm-poyabzal sohasini rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 3 baravarga ko‘paytirish.

Farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 baravar ko‘paytirish va mahalliy bozorni ta’minlash darajasini 80 foizga yetkazish.

Elektrotexnika sanoatida yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga va eksportini 3 baravarga oshirish.

Mebel mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2,8 baravarga ko‘paytirish.

Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish.

Yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o‘rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish.

Sanoat tarmoqlarida mehnat unumdarligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish.

23-maqsad: Geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg‘or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish.

Istiqlolli maydonlarda geologiya-qidiruv va konlarda qazib olish ishlariga shaffof mexanizmlar asosida mahalliy va xorijiy investorlarni keng jalb qilish.

Iqtisodiyot uchun zarur mineral xomashyo bazasini kengaytirish.

Uglevodorod xomashyosi mavjud konlar, geologiya-qidiruv maydon va strukturalarini tahlil qilgan holda ularga shaffof mexanizmlar asosida investorlarni jalb qilish orqali qazib chiqarish hajmlarini oshirish.

Geologiya sohasida zamonaviy ta’lim standartlarini keng joriy etgan holda malakali kadrlarni tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish hamda ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyatga tatbiq etish.

24-maqsad: Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzlucksiz ta’minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish.

2026-yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko‘rsatkichini qo‘shimcha 30 milliard kVt.suatga oshirib, jami 100 milliard kVt.suatga yetkazish.

2026-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga

yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash.

O‘zbekiston energetika tizimining qo‘shti davlatlar energetika tizimlari bilan barqaror ishlashini ta’minlash.

Sanoat tarmoqlarida yo‘qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish.

Uy-joy-kommunal xo‘jaligi, ijtimoiy soha obyektlari va boshqa sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya samaradorligini oshirish.

Elektromobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bo‘yicha choralarini ko‘rish.

Iqtisodiyot tarmoqlarining havoga chiqaradigan zararli gazlar hajmini bir birlik Yalpi ichki mahsulot hisobida 10 foizga qisqartirish.

25-maqsad: Raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish.

Raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali barcha aholi maskanlarini va ijtimoiy obyektlarni hamda magistral avtomobil yo‘llarini keng polosali ulanish tarmoqlari bilan qamrab olish.

Iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish.

Dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 million AQSh dollariga yetkazish.

26-maqsad: Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish.

Investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo‘yicha, “pastdan-yuqoriga” tamoyili asosida, yangi tizimni yo‘lga qo‘yish.

2026-yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish.

Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog‘liqni saqlash,

ta’lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo‘jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investitsiya jalg etish.

Respublika hududlari va xorijiy mamlakatlar biznes vakillari o‘rtasida tashqi iqtisodiy aloqalarini o‘rnatish, jumladan Sirdaryo viloyatining Xitoy Xalq Respublikasi, Surxondaryo viloyatining Rossiya Federatsiyasi hamda Jizzax viloyatining Hindiston biznes doiralari bilan investitsiya va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish.

Surxondaryo viloyatida “Investorlarga ko‘mak markazi”, Navoiy viloyatida Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan “Biznesga ko‘maklashish markazi” va Toshkent shahrida “Ilg‘or loyihalar va injiniring markazi” va har bir tumanda “Innovatsiya va texnologiya markazlari” tashkil qilib, tadbirkorlarga amaliy yordam ko‘rsatish.

Toshkent shahrida har yili “Toshkent xalqaro investitsiya forumi”ni o‘tkazib borish.

27-maqsad: Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish.

Mamlakatimizda kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish hamda yirik korxonalarini va ulardagi ulushlarni (aksiyalarni), shu jumladan fond birjasi orqali xususiy lashtirish.

Davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish.

28-maqsad: Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish.

Eksportchi korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish.

Mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish.

Tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish va

mashhur brendlarni jalg qilish.

Xususiy sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish.

Avtotransport vositalari eksportini 3 baravarga oshirish va 1 milliard AQSh dollariga yetkazish.

Turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan dasturiy ta'minotlar va boshqa xizmatlar eksportini 1,7 baravarga oshirish yoki 4,3 milliard AQSh dollariga yetkazish.

Eksportchi korxonalarga ko'rsatilayotgan tashkiliy va moliyaviy yordam berish tizimini takomillashtirish.

Eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravar ko'paytirib, Yevropa davlatlariga GSP+ tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish.

Mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijiy davlatlarga chiqarishda ko'maklashish tizimini takomillashtirish hisobiga eksportchi korxonalar sonini hozirgi 6 500 tadan 15 000 taga, tovarlarning eksport geografiyasini 115 tadan 150 taga yetkazish.

“Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” g'oyasi asosida 200 ta eksportchini ochiq tanlov asosida saralab, ularni yetakchi eksportyorlarga aylantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

Qo'shni davlatlar bilan chegara hududlarda erkin savdo zonalari faoliyatini yo'lga qo'yish.

29-maqсад: Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish.

Har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan “Ochiq muloqoti”ni o'tkazish.

Hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish. Sharoiti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish.

Ilg'or xorijiy tajriba asosida faktoring amaliyotini rivojlantirish.

2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish.

Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatini boshlashi uchun zarur ma'lumotlarni erkin foydalanishga chiqarish. Qurilish faoliyatida qurilish nuqsonlari yoki muammolarining oldini olish.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo'l ochish. Iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish.

30-maqсад: Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish.

Tumanlarni aniq mahsulot turini yetishtirishga ixtisoslashtirish.

Qishloq xo'jaligida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish.

Yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming hektar maydonni o'zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish. 200 ming hektar paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hamda aholiga ochiq tanlov asosida uzoq muddatli ijara ga berish.

Eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog'lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarini 2 baravar ko'paytirib, eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSh dollariga oshirish.

Tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish.

Ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish. Agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish.

Agrologistika markazlarini rivojlantirish va zamonaviy laboratoriylar sonini ko'paytirish. Urug'chilik va ko'chat yetishtirish bo'yicha milliy dasturni amalga oshirish.

Nufuzli xalqaro ilmiy markazlar va oliv ta’lim muassasalari bilan birlashtirish. Xalqaro qishloq xo‘jaligi universitetini tashkil etish. Agrar sohada ilm-fan va amaliyot integratsiyasini chuqurlashtirish.

Aholi tomonidan tomorqalardan samarali foydalanilishi uchun sharoitlar yaratish.

31-maqsad: Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo‘yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish.

Suv resurslaridan samarali foydalanish hisobiga kamida 7 milliard kub metr suvni iqtisod qilish.

Suv xo‘jaligi obyektlarida elektr energiyasi iste’molini kamaytirish.

Suv xo‘jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida boshqarish.

32-maqsad: Chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5 — 2 baravar ko‘paytirish.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini 1,5 — 2 barobarga oshirish.

Chorvachilik ozuqa bazasini mustahkamlash.

33-maqsad: Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4 — 1,6 baravarga oshirish.

14 ta hudud bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan besh yillik hududiy dasturlarni amalga oshirish. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reyting ko‘rsatkichlari “qoniqarsiz” bo‘lgan shahar va tumanlar bo‘yicha amaliy choratadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirish. Samarqand va Namangan shaharlarini istiqbolda “millionlik shaharlar”ga aylantirish bo‘yicha choralar ko‘rish. 450 ming aholiga mo‘ljallangan Yangi Andijon shahrining dastlabki bir nechta mavzelerini qurib, foydalanishga topshirish. Qashqadaryo viloyatining urbanizatsiya darajasini 50 foizga yetkazish.

Shaharlardagi aholining turmush tarzi qulayligini baholovchi “Shaharlar

qulayligi” indeksini joriy etish.

Shaharlarni raqamlashtirish, qurilish va loyihalashtirish ishlari sifatini oshirish va “Aqli shahar” konsepsiyasiga muvofiq rivojlantirish.

Toshkent shahrida barpo etilgan “INNO” innovatsion o‘quv-ishlab chiqarish texnoparkini 4 ta hududda tashkil etish. Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtirish.

Oliy ta’lim muassasalarida arxitektura-qurilish sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish.

Qurilish sohasini texnik tartibga solish. Aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimini tubdan takomillashtirish va shaharsozlik hujjatlari bilan ta’minalash dasturini ishlab chiqib, amalga oshirish.

Aholini joylashtirishning bosh sxemasini ishlab chiqish. Renovatsiya va uy-joylar dasturlari asosida shaharlarda eskirgan uylar o‘rniga 19 million kvadrat metrdan ortiq zamonaviy uy-joylarni barpo etish, 275 mingdan ziyod oilaning yangi massivlarga ko‘chib o‘tishi uchun sharoit yaratish.

34-maqсад: Hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish.

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida hududlarning “o‘sish nuqtalari”dan kelib chiqib, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurishga alohida e’tibor qaratish.

Respublika hududlarida qariyb 80 ming kilometr magistral va taqsimlovchi elektr tarmoqlari, 20 mingdan ortiq transformator punktlari hamda 200 dan ziyod podstansiyani qurish va yangilash.

Respublika aholisining ichimlik suvi bilan ta’minalanganlik darajasini 87 foizga yetkazish, 32 ta yirik shaharlar va 155 ta tuman markazlarida oqova suv tizimlarini yangilash.

Suv ta’minoti quvurlaridagi suv sirqish nuqtalarini sun’iy yo‘ldosh texnologiyasi orqali masofadan zondlab aniqlash va ta’mirlashga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish.

Toshkent shahrida oqova suvini tozalash tizimini shahar hududidan tashqariga chiqarib, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi inshootlarni barpo etish.

Hududlarda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko‘rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo‘nalishda jami 3,5 million yangi ish o‘rinlarini yaratish.

Shahar va tumanlar markazlarida aholining kundalik ehtiyoji yuqori bo‘lgan maishiy va kommunal xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha pullik santexnika, elektrik, uy jihozlarini ta’mirlash, keytering kabi xizmatlarni ko‘rsatish punktlarini rivojlantirish.

Respublika hududlarida savdo va yo‘lbo‘yi xizmatlarini rivojlantirish orqali 130 ta zamonaviy bozorlar va savdo komplekslari, shuningdek, yo‘lbo‘yi infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha 65 ta yirik hamda 5000 ta kichik xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish.

Servis sohasida yashirin iqtisodiyot ulushini 3 baravarga qisqartirish. Xizmatlar sohasining jozibadorligini oshirish maqsadida sohadagi tadbirkorlik subyektlariga qo‘srimcha imtiyozlar taqdim etish.

35-maqsad: “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyoohlар sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish.

To‘siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026-yilgacha turizm sohasida band bo‘lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish.

Turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo‘yicha davlat dasturini qabul qilish.

Zomin, Forish, Baxmal tumanlari va “Aydar-Arnasoy” ko‘llar tizimida qo‘srimcha turistik zonalar va dam olish maskanlarini barpo etish, 300 million AQSh dollariga teng loyihalarni amalga oshirish, 25 ming ish o‘rinini yaratish.

Samarqandni “Turizm darvozasi”ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 baravarga oshirish. Turizm sohasida 40 ming

kishi bandligini ta'minlash. 2022-yilda “Abadiy shahar” tarixiy majmuasini o‘z ichiga olgan Samarqand turizm markazini va zaruriy infratuzilmani tashkil etish.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Orol bo‘yida ekoturizmni rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturni amalga oshirish. Bunda, Mo‘ynoqning yangi aeroporti imkoniyatlaridan keng foydalanish.

Xorazm viloyatida turizm yangi ish o‘rinlarini yaratishda asosiy drayver soha bo‘lishi uchun alohida dastur qabul qilish.

Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturni amalga oshirish.

Navoiy viloyatida ziyorat va ekoturizm salohiyatidan samarali foydalanish.

Toshkent shahrida turizm infratuzilmasini yanada yaxshilash.

Toshkent viloyatida turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqish.

36-maqsad: Barcha transport turlarini uzviy bog‘lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o‘rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish.

Toshkent shahri va hududlarda jamoat transporti tizimini takomillashtirish va uning infratuzilmasini rivojlantirish.

Shaharlararo va shahar atrofi temir yo‘l qatnovlari jozibadorligini oshirish.

Transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo‘llari tarmog‘ini jadal rivojlantirish.

Transport sohasida tashqi savdo uchun “yashil koridorlar” hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish.

IV. ADOLATLI IJTIMOIY SIYOSAT YURITISH, INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH

37-maqsad: Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlargacha o‘qitish va bu jarayonda nodavlat ta’lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish.

Kasbiy ta’lim bilan tizimli ravishda shug‘ullanish masalalarini to‘liq ravishda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ixtiyoriga o‘tkazish.

Kasbga o‘qitish ko‘lамини 2 baravarga oshirish, jami 1 million nafar ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish.

Umumta’lim maktablarining kasb o‘rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko‘maklashuvchi tizimni joriy etish.

38-maqsad: Maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish.

2022/2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025 o‘quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish.

Maktabgacha ta’lim tizimiga xususiy sektor mablag‘larini jalg qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish.

39-maqsad: Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish.

Bog‘cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish.

2022 — 2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish.

Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish.

40-maqsad: Maktabgacha ta’lim tizimida budjet mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini ta’minalash.

Maktabgacha ta’lim tizimida moliyaviy jarayonlarning shaffof tarzda amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish.

41-maqsad: Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta’limi tizimida qo‘srimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratish.

Yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko‘paytirish, ta’lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish.

O‘quv o‘rinlari sonini 2026-yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazish.

Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi tashkilotlarga sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish orqali ularning ulushini 2026-yilda 8 foizga, shu jumladan 2022-yilda 3 foizga oshirish.

2022 — 2026-yillarda 217 ta “Barkamol avlod” bolalar məktəbinə rivojlantirish bo‘yicha dasturni amalga oshirish.

Yoshlarni san’at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta’minlangan 100 mingdan ortiq bepul to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

Chekka hududlarda məktəb hamda məktəbgacha ta’lim muassasalarigacha transport qatnovini yo‘lga qo‘yish.

42-maqsad: 2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish.

Milliy o‘quv dasturiga asosan 2026-yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan 2022-yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish.

Milliy o‘quv dasturi bo‘yicha yangi metodikalarga o‘qituvchilarni o‘qitish maqsadida Elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026-yilga qadar jami 769 ta videodars yaratish.

Umumta’lim məktəblarida darslik va o‘quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o‘tkazish tizimini joriy etish.

43-maqsad: Malakali o‘qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish.

Iqtidorli o‘qituvchilarning ish haqlarini malaka toifasiga qarab tabaqaqlashtirilgan holda oshirib borish.

O‘qituvchilarga malaka toifalarini berish tartibini tubdan qayta ko‘rib chiqish hamda malakani baholash metodikasi asosida adolatli va shaffof tizimni joriy etish.

44-maqsad: Məktəblarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish.

Məktəbda faoliyat olib borishi uchun har bir fan bo‘yicha mahalliy yoki

xalqaro sertifikatsiya talablarini belgilash.

Toifaga ega bo‘limgan maktab o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini diagnostikadan o‘tkazish.

Umumta’lim maktablarini, ayniqsa, chekka hududlardagi ta’lim maskanlarini oliv ma’lumotli pedagog kadrlar bilan to‘ldirish ishlarini davom ettirish.

Maktablarda direktor va uning o‘rinnbosarlarini tayinlash tizimini maktab o‘qituvchilari va ota-onalarning ishtiroki ta’milanishini nazarda tutgan holda yanada takomillashtirish.

Xalq ta’limi tizimi tuman bo‘linmalari faoliyatini to‘liq raqamlashtirish hisobiga optimallashtirish.

45-maqsad: Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqat bilan ta’minlash.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida tajriba-sinov tariqasida boshlang‘ich sinf (1 — 4-sinf) o‘quvchilarini bepul ovqat bilan ta’minlash tizimini joriy etish.

Tajriba-sinov natijalariga ko‘ra boshlang‘ich sinf (1 — 4-sinf) o‘quvchilarini bepul ovqat bilan ta’minlash tizimini kengaytirish masalasini ko‘rib chiqish.

46-maqsad: Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta’lim sifatini oshirish.

Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini 2022-yilda oshirish.

2022-yilda yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 38 foizga yetkazish.

To‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish parametrlarini oliy ta’lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash tartibini joriy etish.

2026-yilda qabul ko‘rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish.

Davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to‘lash, xodimlar soni, to‘lov-kontrakt miqdori va ta’lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo‘lga qo‘yish.

Davlat oliy ta’lim muassasalarining tegishli huquq va vakolatlarini aniq belgilash.

47-maqсад: 2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta’lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash.

Oliy ta’lim muassasalarining QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishi uchun maqsadli dasturni ishlab chiqish.

10 ta salohiyatli oliy ta’lim muassasasini tanlash.

Salohiyati va o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, xalqaro reytinglarga kiritish bo‘yicha 5 yilga mo‘ljallangan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va tasdiqlash.

48-maqсад: Qariyb 100 ming o‘rinli talabalar turar joylarini barpo etish.

Talabalar turar joylarini davlat-xususiy sheriklik asosida barpo etishda loyihalarni moliyalashtirishning maqbul usullarini yo‘lga qo‘yish.

2022-yilda 18 800 o‘rinli 47 ta talabalar turar joylarini barpo etish.

2026-yilga qadar 72 400 o‘rinli 181 ta talabalar turar joylarini barpo etish natijasida talabalarni yotoqxona bilan ta’minlash darajasini 60 foizdan oshirish.

49-maqсад: 2026-yilgacha nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish.

2022-yilda Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahrida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta’lim tashkilotini tashkil etish orqali ularning jami sonini 34 taga yetkazish.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 5 ta nufuzli mahalliy va xorijiy oliygochlarning filiallarini hamda Toshkent viloyatida 5 ming nafar talabaga mo‘ljallangan Nurafshon davlat universitetini tashkil etish.

Andijon viloyatida 4 ta xususiy oliygoh tashkil etish. Natijada hududdagi yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrovini 23 foizdan 50 foizga yetkazish.

Namanganda kelgusi 5 yilda 7 ta oliygoh tashkil etib, jami oliy o‘quv yurtlari sonini 10 taga yetkazish.

Samarqand shahrida 20 ming nafar talabaga mo‘ljallangan “Yoshlar shaharchasi”ni barpo etib, unda kamida 4 ta xorijiy universitetning filial va kampuslarini joylashtirish. Xorijiy davlatlarning yetakchi texnika universiteti bilan birgalikda Samarqand texnologiya universitetini tashkil etish.

Urganch davlat universiteti qoshida Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika markazi va jamg‘armasini, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali va uning qoshida Urganch boshlang‘ich raqs san’ati mакtab-internatini tashkil etish.

2026-yilga qadar respublika hududlarida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarini tashkil etish orqali ularning sonini 50 taga yetkazish.

50-maqsad: “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o‘qishga yuborish ko‘lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o‘qitish.

Xorijiy davlatlarning eng nufuzli universitetlarida bakalavriat, magistratura va doktoranturada ta’lim olish uchun ochiq saralash tanlovlарini o‘tkazish.

Xorijiy oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat, magistratura va doktorantura ta’lim dasturlarida qatnashish maqsadida Jamg‘arma tomonidan ochiq tanlov e’lon qilish va o‘tkazish.

51-maqsad: Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish.

Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda mavjud analoglaridan 50 foizgacha arzonlashtirilgan va sifatli, xomashyo narxiga nisbatan 2-3 baravar yuqori qo‘silgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtirish, shu jumladan umumiyligi qiymati 165,9 milliard so‘mlik jami 195 ta loyihani amalga oshirish.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlarida to‘lov-grant asosida o‘qishni tashkil etish.

52-maqsad: Global innovatsion indeksda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish.

Global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo‘yicha O‘zbekiston pozitsiyasini yaxshilash.

Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo‘nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish.

53-maqsad: Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish.

Aholining muhtoj qismini zamonaviy protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash darajasini 60 foizga yetkazish.

Majburiy ijtimoiy kafolatlar bo'yicha qonunchilikni tizimlashtirish va takomillashtirish, belgilangan ijtimoiy himoyaning qat'iy ta'minlanishini nazorat qilish.

Majburiy ijtimoiy kafolatlardan, shu jumladan ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish imkoniyatini sohani raqamlashtirish hisobiga kengaytirish, ushbu jarayoniga ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy qilish.

54-maqsad: Pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish.

Fuqarolarning pensiya miqdorlari mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlariga muvofiq izchil oshib borishini ta'minlash.

Xalqaro tamoyil va standartlarga muvofiq ko'p bosqichli va davlat tomonidan kafolatlangan pensiya ta'minoti tizimini joriy qilish.

Fuqarolardan ortiqcha hujjatlar talab qilmasdan idoralararo elektron ma'lumot almashinuvi asosida pensiya tayinlash tizimiga o'tish.

55-maqsad: Ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish.

Namangan, Farg'ona, Sirdaryo, Qashqadaryo, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida tibbiyot klasterlarini tashkil etish.

56-maqsad: Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, budjet mablag'laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug'urtalash amaliyotini joriy qilish.

Markazlashgan laboratoriya, sterilizatsiya va yuqori texnologik tekshiruvlar tizimini tashkil etish.

Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, aholi salomatligini saqlash va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish dasturini 2022-2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni, shuningdek, sog'liqni saqlash

sohasini raqamlashtirishning 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirish.

Aholini tibbiy sug‘urtalash tizimini bosqichma-bosqich joriy qilish.

57-maqsad: Tibbiy asbob-uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish.

Davlat tibbiyot muassasalaridagi tibbiy asbob-uskuna va jihozlarga texnik xizmat ko‘rsatish tizimini yaratish.

Tibbiy asbob-uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha alohida korxona va uning 13 ta hududiy bo‘limlarini tashkil etish.

58-maqsad: Dori-darmon va tibbiy buyumlar muomalasini tartibga solish hamda aholiga arzon va sifatli mahsulotlar yetkazib berish tizimini takomillashtirish.

Elektron retsept tizimini takomillashtirish va keng joriy etish hamda narxlarga rioya etilishini onlayn kuzatishning axborot tizimini yaratish.

Farmatsevtika mahsulotlarini markirovkalash tizimini joriy qilish.

Dori-darmon va tibbiy buyumlarni aholi uchun yetkazib berish tizimini olis hududlar va mahallalar ehtiyojlaridan kelib chiqib, zamonaviy mexanizmlar asosida takomillashtirish.

59-maqsad: Birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, sohaga ajratiladigan mablag‘larni oshirish.

Davlat budgetidan dori vositalari va tibbiy buyumlarga ajratilgan mablag‘larning 3 barobarga oshirilishini ta’minlash. Bunda asosiy e’tiborni xonardonbay tibbiy profilaktikani kuchaytirishga qaratish va “maqsadli” skrining o‘tkazish choralarini ko‘rish.

Tibbiy-sanitariya xizmatining jozibadorligini oshirish va sohani malakali kadrlar bilan ta’minlash.

Birlamchi tibbiy-sanitariya xizmati xodimlarining mehnatga haq to‘lash tizimini takomillashtirish.

Birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Davlat tibbiyot muassasalarida dori-darmon va tibbiy buyumlar ta'minotini yanada yaxshilash hamda yetkazib berish va saqlash tizimini takomillashtirish.

60-maqsad: Reproduktiv yoshdag'i va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish.

46 ta tumanlararo perinatal markazlarni tashkil etish, ularni kadrlar, zarur tibbiy texnika va buyumlar bilan ta'minlash.

Yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

61-maqsad: Tibbiy xizmatlardagi xususiy sektorning ulushini 25 foizga yetkazish.

Xususiy tibbiyotni yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash.

Tibbiy faoliyatni yuritishda bino va inshootlarning yerto'la qismidan foydalanish, shuningdek, laboratoriya va diagnostika bo'limlari faoliyatiga qo'yilgan talablarni yengillashtirgan holda xalqaro tajribadan kelib chiqib, belgilangan texnik jihatdan tartibga solish hujjatlarini qayta ko'rib chiqish.

Tibbiy faoliyat ixtisosliklarini tashkil etishda moddiy texnik baza va tibbiy asbob-uskunalarga belgilangan eng kam talablarni soddallashtirish.

62-maqsad: Mamlakatda ishlab chiqariladigan dori-darmon va tibbiy vositalarining ulushini 80 foizga yetkazish.

Import mahsulotlar hajmini va tarkibini optimallashtirish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash.

Zamonaviy farmatsevtika klasterlari hamda zonalarini tashkil etish va mavjudlarini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

63-maqsad: Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xalqaro maqomga ega laboratoriylarini tashkil etish.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining 263 ta obyektlarini zarur asbob-uskunalar bilan jihozlash.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining 249 ta obyektida qurilish, rekonstruksiya va ta'mirlash ishlarini olib borish.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining kadrlar salohiyatini oshirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish.

64-maqsad: Hududlarda birlamchi tibbiy xizmatni “bir qadam” tamoyili asosida tashkil etish.

Hududlardagi mavjud ehtiyoj, aholining takliflarini inobatga olgan holda 2022-2023-yillarda 61 ta oilaviy poliklinikalar, 215 ta oilaviy shifokor punktlarini tashkil etish.

Aholiga sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanishda yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida birlamchi tibbiy xizmatni mahallalarda tashkil etish uchun zarur choralarini ko‘rish.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda aholiga masofadan turib tibbiy xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirish.

65-maqsad: Malakali shifokorlarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish.

Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to‘lashda ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat turi va murakkabligi, shuningdek erishilgan natijaga ko‘ra o‘zgarishini nazarda tutuvchi tizim yaratish.

66-maqsad: Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish.

Nogironlik belgisi bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda teng sharoitlarni va ularni buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta’minlash sohasidagi umume’tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish.

Tibbiy-mehnat ekspertizasi va nogironlikni belgilashning shaffof, zamonaviy uslub va mezonlarini joriy etish, nogironligi bo‘lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish darajasi va sifatini oshirish.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning oilasi, jamiyat va davlat bilan o‘zaro aloqasini kuchaytirish, ularning qulay muhitda bo‘lishi, shahar yo‘lovchi transporti, ijtimoiy va boshqa infratuzilma obyektlaridan erkin foydalanishi uchun zarur sharoitlar yaratish.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta’minlovchi inklyuziv ta’lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish.

Nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o‘tish.

67-maqsad: Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish.

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish.

Respublika yoshlari o‘rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish.

O‘zbekistonda sportning ommaviyligini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini rivojlantirish.

Yurtimizning chekka hududlari va qishloqlarida sog‘lomlashtirish ishlarini yanada rivojlantirish.

Barpo etiladigan har bir “Yashil hudud”da yugurish, velosipedda harakatlanish uchun “Salomatlik yo‘lklari” hamda badminton, stritbol va vorkaut maydonchalarini tashkil etish.

Vazirlik, idora hamda tashkilotlar xodimlarini va aholini sport tadbirlariga jalb qilish, ular o‘rtasida musobaqalar tashkil qilish.

Milliy olimpiada sport o‘yinlarini o‘tkazish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Sport o‘yinlari o‘tkaziladigan sport obyektlari infratuzilmasini yaxshilash va zarur sport inventarlari bilan jihozlash.

Milliy olimpiada o‘yinlarini yuqori darajada tashkil etish hamda g‘olib va sovrindorlarni munosib rag‘batlantirish.

Milliy olimpiada o‘yinlariga tayyorgarlik ishlarining borishini ommaviy axborot vositalari orqali, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘ida keng

yoritilishini tashkil etish.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda uning filiallariga qabul ko‘rsatkichlarini oshirish hisobiga faoliyat yuritayotgan oliy ma’lumotli trenerlarning amaldagi 54 foizlik ulushini 2022-yilda 62 foizga, 2026-yilda 85 foizga oshirish.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning filiallari bitiruvchilarini sport ta’limi muassasalariga jalb etish.

68-maqсад: Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish.

Olimpiya o‘yinlariga kiritilgan jamoaviy (futbol, gandbol, basketbol, voleybol, regbi, chim ustida xokkey, badminton, suv sporti turlari) va boshqa sport turlarini rivojlantirish.

Jamoaviy va boshqa sport turlari bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasining nufuzli xalqaro musobaqalarda ishtirok etishini ta’minalash.

Yozgi paralimpiya sport turlarini rivojlantirish. Bunda:

paralimpiya sportchilari orasida sog‘lom turmush tarzini yanada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish. Xususan, mazkur tashabbusni xalqimizning imkoniyati cheklangan vakillari qatlamida targ‘ib qilish;

paralimpiya sport turlari ro‘yxatiga kiritilgan sport turlarini sport ta’lim muassasalarida tashkil etish orqali Parij-2024 Paralimpiya o‘yinlariga 100 dan ortiq litsenziyalarni qo‘lga kiritish.

Yoshlarni sportga jalb etish va ularni qamrab olish.

2026-yilga qadar qishki va ekstremal sport turlari, shu jumladan tog‘-chang‘i sportini rivojlantirish maqsadida eng ilg‘or va innovatsion texnologiyalarni jalb qilgan holda salohiyatlari hududlarda zarur infratuzilmani yaratish.

Mavjud salohiyat va imkoniyatdan kelib chiqib, hududlarni qishki Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga sportchilarni tayyorlash bo‘yicha ixtisoslashtirish.

Qishki sport turlariga ixtisoslashtirilgan hududlarda tegishli sport turlarini rivojlantirish, milliy jamoa a’zolarini shakllantirish va 2023-yildan boshlab, xalqaro musobaqalarda ularning ishtirokinini ta’minalash.

Qishki sport turlarini rivojlantirishni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash,

2026-yildagi qishki Olimpiya o‘yinlariga kamida 10 ta litsenziyani qo‘lga kiritish.

69-maqsad: Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash.

Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash.

Gender tenglikni ta’minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish.

Xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish.

Hududlarda, ayniqla, qishloqlarda xotin-qizlarga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini ta’minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish.

Turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta’minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko‘paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash.

Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko‘rsatish, ularni manzilli qo‘llab-quvvatlash.

“Ayollar daftari” bilan manzilli ishslash, mutasaddi tashkilotlar tomonidan xotin-qizlarning muammolari o‘z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.

70-maqsad: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash.

Yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar o‘rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog‘lom turmush tarzini mustahkamlash.

Yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish.

Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, ta’limning barcha

bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishini ta’minlash, hududlarda inklyuziv ta’lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish.

Yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish.

Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash.

Yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish.

Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish.

Iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish.

Yoshlar tadbirdorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo‘s sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Yosh oilalarni ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish.

Yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

V. MA’NAVIY TARAQQIYOTNI TA’MINLASH VA SOHANI YANGI BOSQICHLAR OLIB CHIQISH

71-maqsad: Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish.

“Yangi O‘zbekiston — ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish.

Aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy-ma’rifiy

tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish.

Targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish hamda ularni o'z vaqtida amalga oshirish choralarini ko'rish.

O'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.

Oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash.

Ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarni o'z vaqtida berib borish orqali yolg'on ma'lumotlar tarqalishining oldini olish.

“Mahalla — tuman — viloyat — respublika” prinsipi asosida hududlar kesimida ijtimoiy-ma'naviy muhitni optimallashtirish xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish.

Ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish.

Maktablarni chinakam ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish uchun ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo'llash.

Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida bирgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash ko'nikmasini shakllantirish.

“Yoshlar — Yangi O'zbekiston bunyodkorlari” shiori ostida “Yangi O'zbekiston — Uchinchi Renessans” g'oyasining ro'yobga chiqarilishini ta'minlash.

72-maqсад: Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda “Kitobsevar millat” umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish.

Aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda sohada yagona boshqaruв tizimini joriy etish.

73-maqsad: Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish.

IHT, IRSIKA, AYSESKO, YUNESKO kabi dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlari bilan hamkorlikda “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans” shiori ostida xalqaro konferensiya, simpozium va anjumanlar tashkil etish.

Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini keng targ‘ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub 100 ta asarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish.

Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish maqsadida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

74-maqsad: Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash.

Milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish.

Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta’minlash.

Turli millat yoshlari uchun qo‘srimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag‘rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish.

Xorijiy tillarda faoliyat yuritayotgan hamda millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini yoritayotgan ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo‘srimcha qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish.

Xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida do‘stlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish.

75-maqsad: Tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn yo‘nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish.

Atoqli O‘zbekiston xalq rassomlari va amaliy san’ati ustalarining namunali hayoti va ijodini keng targ‘ib qilish hamda ular xotirasini abadiylashtirish.

O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’atini xalqaro darajada ommalashtirish.

Tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn yo‘nalishlarida yetuk mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish.

76-maqsad: Madaniyat va san’at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash.

Madaniyat va san’at sohasi vakillari, ijodkorlar, shuningdek, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchi va xodimlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash hamda ularning yashash sharoitlarini yaxshilash.

Teatr san’atini rivojlantirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Madaniyat markazlari faoliyatini takomillashtirish va ular tomonidan aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, shuningdek, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash.

Hududlarda yangi madaniyat obyektlarini barpo etish va ularning samarali faoliyat olib borishini ta’minalash.

O‘zbek sirk san’atini yanada rivojlantirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Milliy madaniyatni xalqaro darajada ommalashtirishga qaratilgan tadbirlarni hududlarda o‘tkazishni joriy etish.

O‘zbek xalqi madaniyati va san’atini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shgan atoqli ijodkor ziyolilar yubileyalarini munosib nishonlash, hayoti va faoliyatini keng targ‘ib qilish, xotirasini abadiylashtirish.

Respublika hududida joylashgan madaniy meros obyektlarini saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish bilan bog‘liq kompleks tadbirlarni amalga oshirish.

77-maqsad: O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirish.

Tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish.

78-maqsad: Milliy kino san'atini rivojlantirish.

Kino san'atini jamiyatning ma'naviy, madaniy-ma'rifiy hayotida, jumladan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda strategik manba sifatida shakllantirish.

Kino sanoatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini bozor tamoyillari asosida takomillashtirish, shuningdek, xorijiy kinokompaniyalarni mamlakatga jalg qilish va hamkorlikda filmlar ishlab chiqarishni rivojlantirish.

Milliy multiplikatsiya industriyasini shakllantirish.

Kino sanoatini iqtisodiyotning alohida tarmog'i sifatida rivojlantirish, zamonaviy va yuqori texnologik moddiy-texnika bazasiga ega infratuzilmani yaratish.

Kinematografiya sohasida kadrlar tayyorlash, kino ijodkorlari va texnik xodimlari malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish.

Milliy seriallar ishlab chiqarishni davlat tomonidan rag'batlantirish, animatsion filmlar ishlab chiqarishga yosh multiplikator va animatorlarni keng jalg qilish.

Sohada mualliflik huquqining kafolatli himoya qilinishini ta'minlash, kinoprokat tizimini rivojlantirish va milliy filmlarni jahon kino bozorlariga olib chiqish.

VI. MILLIY MANFAATLARDAN KELIB ChIQQAN HOLDA UMUMBASHARIY MUAMMOLARGA YONDASHISH

79-maqsad: Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish.

Xalqaro maydonda atrof muhitga oid tashabbuslar, shu jumladan Butunjahon ekoliya xartiyasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surish.

Atrof muhitga ta'sir xavfi yuqori daraja (I toifa)dagi obyektlarning ifloslantiruvchi manbalaridan avtomatik ravishda namunalar olish tizimini tatbiq etish.

Atrof muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, atrof muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini prognoz

qilish, davlat ekologik nazoratini doimiy axborot bilan ta'minlash, ifoslantiruvchi manbalarning holati va atrof muhitga ta'siri ustidan monitoringni amalga oshirish.

Respublika hududida amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa turdag'i faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash yuzasidan davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish.

80-maqсад: Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida har yil kamida 200 million tup daraxt ekish. "Yashil makon" umummilliy loyihasi tashabbuslariga mos tarzda respublikaning 10 ta hududida aerobiologik monitoring tizimini yo'lga qo'yish.

Maishiy chiqindilarni yig'ishni 100 foizga, ularni qayta ishslash darajasini 2026-yilga qadar 21 foizdan 50 foizga yetkazish.

Respublika bo'yicha 51 ta yer usti tabiiy suv obyektlari (daryolar, kichik daryolar va tabiiy ko'llar)ning sanitariya-muhofaza zonalari va sohil bo'yini mintaqalarini belgilash ishlarini yakunlash.

Toshkent shahrini aholiga qulay, ekologik toza va yashash uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lgan hududga aylantirish, ko'kalamzorlashtirish darajasini 30 foizga yetkazish.

Orol dengizining qurigan tubida qo'shimcha 500 ming hektar yashil maydonlarni barpo etib, 2026-yil yakuniga qadar ularning umumiy hajmini 2,5 million hektarga yoki hududning 78 foiziga yetkazish.

Orolbo'yida xalqaro "Yashil iqlim" va Global ekologik jamg'armalarning bioxilma-xillik, iqlim o'zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida 300 million AQSh dollari qiymatidagi loyihalarni amalga oshirish.

Shahar va tuman markazlarida har 50 — 100 ming aholi uchun "jamoat parklari"ni tashkil etish.

Orolbo'yidagi mintaqasida yashovchi aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish.

81-maqsad: O‘rmonlar maydonini kengaytirish.

Respublika hududlarida o‘rmonlar maydonini kengaytirish va o‘rmon fondi yerlaridan samarali foydalanish.

O‘rmon fondining tog‘ va tog‘oldi hududlari plantatsiyalarini barpo qilish.

Cho‘l hududlarida o‘simgiliklarni ko‘paytirish, hududlarda himoya o‘rmonzorlari barpo etish.

Sug‘oriladigan yerkarni eroziyadan va melioratsiya obyektlarini qum ko‘chishidan saqlash uchun ihota daraxtzorlarini barpo etish.

Davlat o‘rmon fondi yerlarida o‘rmonlardan foydalanish, o‘rmon fondini kengaytirishni tartibga solish.

O‘rmonlarni qo‘riqlash va muhofaza qilish mexanizmini tubdan qayta ko‘rib chiqish.

82-maqsad: Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlashga imkon beradigan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha samarali davlat siyosatini amalga oshirish.

Ekstremizm va terrorizmni keltirib chiqaruvchi omillarning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlarni takomillashtirish, ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaxshilash, yet g‘oyalar ta’sirini oldini olish va ularning ta’siriga tushib qolganlar bilan tizimli ishslash orqali ularning muammolarini bartaraf etish.

Aholi, ayniqsa yosh avlodda terrorizm va ekstremizm mafkurasiga qarshi qat’iy va barqaror immunitetini shakllantirish.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning xalqaro-huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda xorijiy davlatlar, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini kengaytirish.

Diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, shuningdek, chet elga uzoq vaqtga ketayotgan hamda yashab kelayotgan fuqarolar bilan shug‘ullanuvchi boshqa idoralarning kadrlar

salohiyati va resurslarini mustahkamlash.

Xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm, terrorizm va ularni moliyalashtirishga qarshi kurash sohasida axborot hamda tajriba almashish.

Faoliyati ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda faol ishtirok etish.

Markaziy Osiyoda BMTning Global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha hamkorlikdagi sa’y-harakatlarni birgalikdagi harakatlar rejasi doirasida muvofiqlashtirish.

Markaziy Osiyoda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha birgalikdagi ishlar doirasida axborot almashinuvi va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beruvchi xalqaro tashabbuslarni amalga oshirishda O‘zbekistonning rolini kengaytirish.

Dunyo hamjamiyati va mintaqaviy tashkilotlar e’tiborini Afg‘onistonda tinchlik va hamjihatlikni ta’minalashga jalb qilish borasidagi tashabbuslarni jadallashtirish va ushbu mamlakatni mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga, shu jumladan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga jalb qilish.

83-maqsad: Davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish.

Davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulklarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish.

Davlat xizmatida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha samarali mexanizmlarni yaratish, korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatda ochiqlikni ta’minalash va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish.

84-maqsad: Korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga zamонавиy axborot, shu jumladan sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, jamoatchilik nazoratini olib borishni qo‘llab-quvvatlash.

Korrupsiyaga qarshi kurashish amaliyatida tizimli preventiv choralarni kuchaytirish.

Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzlucksiz oshirish tizimini joriy qilish.

Normativ-huquqiy hujjatlarning “korrupsiyadan xoli qonunchilik” tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta’minlash.

85-maqsad: Mamlakatda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag‘allikni kamida 2 baravarga qisqartirish.

Kambag‘allikni qisqartirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Norasmiy ishlayotgan 2,5 million nafar fuqaroning bandligini legallashtirishga yordam berish orqali ularda ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to‘liq foydalanish imkoniyatini yaratish.

Ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravar kamaytirish, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish. Ish bilan band bo‘lмаган xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va o‘zini o‘zi band qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko‘rsatishda mahalliy darajada (“mahallabay” tamoyili asosida) ijtimoiy ishlarni olib borish mexanizmini yo‘lga qo‘yish.

Hududlar, shaharlar va tumanlar kesimida kambag‘al toifadagi oilalar, ayollar va yoshlarni yagona elektron hisobga olish tizimini yaratish, kambag‘allikning qayta tiklanish xavfini bartaraf etish. Hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish.

Ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan barcha ehtiyojmand aholining kamida 85 foizini ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va aholi qatlamlariga, shuningdek, vaqtinchalik og‘ir sharoitga tushib qolgan fuqarolarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat ijtimoiy yordamini ko‘rsatish.

86-maqsad: Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini ta’minlash

hamda samarali migratsiya siyosatini yuritish.

Noqonuniy tashqi mehnat migratsiyasi va odam savdosiga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish.

Xorijga ishslashga ketishdan oldin fuqarolarni kasb-hunarga va chet tillarga o‘qitish, ularga kasbiy malakani tasdiqlovchi xalqaro sertifikatlar berish borasidagi chora-tadbirlarni hayotga tizimli ravishda va jadal tatbiq etish.

Mehnat migrantlarini moliyaviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning hayoti va sog‘lig‘ini sug‘urtalash amaliyotini kengaytirish.

Mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish, shu jumladan ularning bandligini ta’minalash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirish.

Xorijiy davlatlarda ishslash istagida bo‘lgan kamida 300 ming nafar fuqaroni kasb-hunar va xorijiy tillarga o‘qitish. Xavfsiz, tashkillashtirilgan xorijiy mehnat migratsiyasiga 400 ming nafar fuqaroni yuborishni tashkil etish, xorijda mehnat qilayotgan fuqarolar haq-huquqlarini ta’minalashda manzilli ko‘mak ko‘rsatish.

“O‘z kelajagimga o‘zim investor” loyihasini samarali amalga oshirishni ta’minalash.

87-maqsad: “Vatandoshlar” jamoat fondi orqali xorijiy davlatlardagi yurtdoshlarimiz bilan doimiy va samarali aloqalar o‘rnatish.

Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni O‘zbekiston hududida tadbirkorlik, investitsiyaviy, ilmiy, ma’rifiy va madaniy faoliyat bilan shug‘ullanishga faol jalb qilish.

Xorijdagi vatandoshlar va ular tomonidan tuzilgan jamoat birlashmalarni qo‘llab-quvvatlash. Yurtimizning boy ilmiy, madaniy va ma’naviy merosini keng targ‘ib qilish va ommalashtirish, vatandoshlarga madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda ko‘maklashish.

Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik o‘rnatish va olib borish sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni tizimli asosda tahlil qilib borish va ularning yechimi yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqish.

Xorijda o‘zbek tili, madaniyati va an‘analarini saqlab qolish va

rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni qo'llab-quvvatlash, yurtimizning boy ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini keng targ'ib qilish va ommalashtirish.

Xorijdagi vatandoshlarning salohiyatini O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishga jalb etish va ularni rag'batlantirish choralarini ko'rish.

88-maqсад: Pandemiyalarga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish.

Pandemiya va shu kabi ofatlar bilan bog'liq jarayonlarning barvaqt oldini olish, vaziyatni har tomonlama chuqur tahlil qilib, bo'lajak xavf-xatarlarni, ular bilan bog'liq muammolarni oldindan prognoz qilish, ularning yechimiga aniq reja va choralar bilan tayyor turish tizimini yaratish.

Kasalliklarni yengish yo'lida barcha davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish.

Bemorlarni davolash bo'yicha telemeditsina orqali olib borilayotgan muloqotlarni kengaytirish, xalqaro tajribalar va tavsiyalarni faol joriy etish.

Koronavirus qaytadan tarqalishining oldini olish hamda uning iqtisodiyot va insonlar hayotiga salbiy ta'sirini imkon qadar cheklash uchun aholining eng muhim hayotiy ehtiyojlarini ta'minlash, narx-navoning oshib ketmasligiga erishish va kam ta'minlangan oilalarни qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni davom ettirish.

VII. MAMLAKATIMIZ XAVFSIZLIGI VA MUDOFAA SALOHIYATINI KUCHAYTIRISH, OCHIQ, PRAGMATIK VA FAOL TASHQI SIYOSAT OLIB BORISH

89-maqсад: Fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada mustahkamlash.

Axborot sohasini tartibga soluvchi yagona tizimlashtirilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.

Fuqarolarning axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish madaniyatini oshirish.

Shaxsiy va sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni Internet tarmog'ida oshkor qilish bilan bog'liq daxlsizlik huquqi buzilishining oldini olish.

Kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini yaratish.

90-maqsad: Davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish.

Barcha bo‘g‘indagi hokimiyat organlari rahbarlarining qo‘shinlar kundalik hayotida, harbiy shaharchalar barpo etish, ularning infratuzilmasini yaxshilash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda faol ishtirok etishini ta’minlash.

Harbiy xizmatni o‘tab qaytgan yoshlarning ijtimoiy muammolarini hal etish, ularni ish bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratish, Qurolli Kuchlarning barcha davlat idoralari, muassasa va korxonalar uchun yetuk kadrlar tayyorlaydigan maktabiga aylanishiga erishish.

Mamlakat harbiy xavfsizligini ta’minlash va mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish.

Qurolli Kuchlar yagona avtomatlashtirilgan boshqaruvi tizimini yaratish va raqamlashtirishni yanada takomillashtirish.

Qurolli Kuchlarda yagona axborot-kommunikatsiya tizimini yaratish va axborot xavfsizligini ta’minlash.

Mudofaa vazirligi qo‘shinlarining jangovar shayligi va tayyorgarligi hamda o‘quv moddiy-texnika bazasini yanada takomillashtirish.

Fuqarolarning harbiy xizmatni o‘tash tartibini yanada takomillashtirish.

Oliy harbiy ta’lim muassasalariga nomzodlarni saralash va tanlab olish tizimini yanada takomillashtirish.

Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida rahbar lavozimlariga kadrlar zaxirasini yaratish tizimini rivojlantirish.

Mudofaa vazirligi tizimida geraldika ishlarini samarali yo‘lga qo‘yish.

Qo‘shinlarni zamonaviy qurol-aslaha, harbiy va maxsus texnika hamda jihozlar bilan ta’minlash.

91-maqsad: Harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolarining ijtimoiy himoyasini har tomonlama kuchaytirish.

Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ularga

ko‘rsatilayotgan tibbiy ta’minot sifatini yanada oshirish.

Qurolli Kuchlarda axloqiy-ruhiy ta’minotni va harbiy psixologlar institutini yanada takomillashtirish hamda harbiy xizmatchilarning jangovar ruhiyatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tadbirlarini yanada kuchaytirish.

Mudofaa vazirligi harbiy qism va muassasalarida mavjud xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a’zolari bilan ishlash bo‘yicha yetakchi mutaxassislar ish faoliyati samaradorligini oshirish.

92-maqsad: Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika maxsus qutqaruv markazini INSARAG (qidiruv-qutqaruv masalalari bo‘yicha xalqaro maslahat guruhi) standartlari asosida tayyorgarlikdan o’tkazish.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi aviatsiya xizmatini tashkil etish.

Respublikaning turistik zonalarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va tezkor bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni tizimlashtirish.

Aholini favqulodda vaziyatlarda xabardor qilish tizimini modernizatsiyalash.

Respublikaning olis hududlarini professional va ko‘ngilli yong‘in-qutqaruv bo‘linmalari bilan qamrab olish ko‘rsatkichini yaxshilash.

Yong‘in-texnik vositalarni ishlab chiqarishga xususiy sektorni jalb etish.

O‘rmon yong‘inlarini bartaraf etish tadbirlari samaradorligini oshirish.

93-maqsad: Mamlakatning xalqaro munosabatlardagi teng huquqli subyekt sifatidagi rolini oshirish.

Hamkor mamlakatlar bilan hamda xalqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muvozanatli, doimiy muloqot olib borish, ular bilan ikki va ko‘p tomonlama uchrashuvlar o’tkazish, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda hamda turli darajadagi maslahatlashuvlarni tashkil etish.

Yetakchi davlatlar bilan keng qamrovli hamkorlikni strategik darajaga olib chiqish hamda ular bilan kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlarni kelishish.

Yirik tadbirlarda (xalqaro tashkilotlar doirasida va xorijiy hamkorlar bilan sherikchilik asosida hamda ikki tomonlama hamkorlik darajasidagi konferensiya, forum, seminar va davra suhbatlari) mintaqaviy va xalqaro masalalar bo‘yicha O‘zbekiston pozitsiyasi hamda umumjahon miqqosidagi tashabbuslarini ilgari surish.

94-maqsad. Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorlikni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan oliy darajadagi muloqot va ikki tomonlama hamkorlikning barcha formatdagi mexanizmlari asosida (hukumatlararo komissiyalar, siyosiy maslahatlashuvlar, parlamentlararo hamkorlik komissiyasi va boshqalar) yig‘ilishlarni tashkil etish.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini har yili muntazam tashkil qilishni ta’minalash va ularda faol ishtirok etish.

Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy hamkorlik strategiyasini ishlab chiqish ishlarini boshlash.

Mintaqaviy tashkilotlar doirasida O‘zbekistonning milliy manfaatlarini faol ilgari surish.

O‘zbekiston Respublikasining chegaraoldi nazorat-o‘tkazish punktlarini rekonstruksiya qilish va kengaytirish orqali ularning o‘tkazuvchanligini oshirish.

Markaziy Osiyoda ekologiya, atrof-muhitning ifloslanishini oldini olish va tabiatni muhofaza qilish borasida hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari muzeylari hamda arxivlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kengaytirish, ikki mamlakat tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi kataloglarni birgalikda nashr etish.

Turizm sohasida yangi voqelik va epidemiologik talablarni hisobga olgan holda muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni qabul qilish.

Markaziy Osiyo davlatlarida O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi muxbirlik punktlarini ochish.

O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi (YI) institutlari bilan savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan hamkorlik shakllarini qo‘llab-quvvatlash.

95-maqсад: An’anaviy hamkorlarimiz bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalar geografiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratib, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish.

Oliy darajadagi tashriflar orqali Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish.

O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, chet ellarda mamlakatimizning yangi diplomatik vakolatxonalarini ochish.

Milliy manfaatlarni ilgari surish va himoya qilishda iqtisodiy diplomatiya samaradorligini oshirish va uni faollashtirish.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi an’anaviy strategik sheriklar bilan hamkorlikni kengaytirish (Xitoy, Koreya Respublikasi, Yaponiya).

Osiyo-Tinch okeani mamlakatlarining istiqbolli bozorlariga eksport hajmi va nomenklaturasini oshirish.

AQSh, Kanada va Amerika mamlakatlari bilan strategik va har tomonlama hamkorlik aloqalarini kengaytirish.

AQSh ishbilarmon doira vakillari bilan investitsion, eksport va ilg‘or texnologiyalar sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirish.

Janubiy Osiyo, Yaqin, O‘rta Sharq va Afrika mintaqasidagi hamkorlar bilan mavjud aloqalarni yanada kengaytirish (Saudiya Arabistoni, BAA, Quvayt, Qatar, Pokiston, Hindiston, Eron).

Arab davlatlari (BAA, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Qatar, Misr) bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda o‘zaro hamkorlikni jadallashtirish.

O‘zbekistonning Afg‘oniston bilan ko‘p qirrali munosabatlarini rivojlantirish

va uning ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishiga ko‘maklashish.

Janubiy Osiyo, Yaqin, O‘rta Sharq va Afrika mamlakatlarining istiqbolli bozorlariga eksport hajmi va nomenklaturasini oshirish.

MDH mamlakatlari doirasidagi an'anaviy strategik sheriklar bilan ikki va ko‘p tomonlama hamkorlikni kengaytirish.

MDH mamlakatlarining istiqbolli bozorlariga eksport hajmi va nomenklaturasini oshirish.

96-maqsad: O‘zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatini kuchaytirish.

O‘zbekistonni BMT tuzilmalari orqali dunyo hamjamiyatiga keng tanitish.

O‘zbekiston Rahbariyatining BMT doirasidagi tashabbuslarini amalga oshirishni ta’minlash.

BMT va uning muassasalari bilan iqtisodiy-moliyaviy va konsultativ hamkorlikni rivojlantirish.

BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan madaniy-gumanitar hamkorlikni jadallashtirish.

BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari doirasida o‘tkaziladigan siyosiy-diplomatik va targ‘ibot-tashviqot tadbirlari miqyosini kengaytirish.

BMTning “Inson huquqlari yo‘lida harakatga da’vat” tashabbusini ilgari surish uchun barcha sheriklar bilan yaqin hamkorlikni davom ettirish.

97-maqsad: Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish.

Jahon savdo tashkilotiga a’zo davlatlar bilan muzokaralar o‘tkazish.

O‘zbekistonlik mutaxassislarning Jahon savdo tashkiloti va ko‘p tomonlama savdo tizimi sohasida salohiyatini oshirish.

Texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya va fitosanitariya choralari va intellektual mulk himoyasi sohalarida milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlarining talablariga muvofiqlashtirish bo‘yicha tegishli takliflar ishlab chiqish.

O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishining metallurgiya,

to‘qimachilik, oziq-ovqat, avtomobil ishlab chiqarish sohalariga ta’sirini o‘rganish.

O‘zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishining milliy iqtisodiyotga ta’sirini o‘rganish.

Jahon savdo tashkiloti qoidalariga muvofiq bo‘lgan ichki bozorni notarif choralar orqali himoya qilish tizimini rivojlantirish.

Jahon savdo tashkiloti qoidalariga muvofiq bo‘lgan eksportni qo‘llab-quvvatlash va subsidiyalash choralarini ishlab chiqish.

Yevroosyo Iqtisodiy Ittifoqi bozoriga samarali kirish uchun texnik jihatdan tartibga solish va standartlashtirish masalalari bo‘yicha milliy siyosatni Ittifoq tajribasi asosida yanada takomillashtirish.

Yevroosyo Iqtisodiy Ittifoqi to‘g‘risidagi shartnomani chuqur tahlil qilish va tegishli takliflarni ishlab chiqish.

Yevroosyo Iqtisodiy Ittifoqining umummilliyyidan ustuvor bo‘lgan savdo siyosatini hamda uchinchi davlatlar bilan kelishuvlarini o‘rganish.

98-maqсад: Jahon hamjamiyatida mamlakatimiz imidjini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirish.

“Dunyo” axborot agentligi faoliyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish.

Jahondagi yetakchi axborot agentliklari bilan hamkorlikni yanada jadallashtirish.

O‘zbekiston imidjini jahon sahnasida ilgari surishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar majmuini tayyorlash va amalga oshirish, mamlakatimizda islohotlarning borishi, jamiatni demokratik yangilash jarayonlari haqida xolis axborot tarqatishning samarali davom ettirish.

Xorijiy davlatlarda o‘zbek tili, madaniyati va milliy an’analaramizni keng ommalashtirish, gumanitar aloqalarni mustahkamlashdan iborat bo‘lgan Alisher Navoiy xalqaro institutini tashkil etish.

Xorijda keng axborot kampaniyasini o‘tkazish, jumladan, nufuzli xorijiy ommaviy axborot vositalarida O‘zbekiston haqidagi materiallarni e’lon qilishni tashkil etish uchun O‘zbekiston Respublikasining asosiy diplomatik

vakolatxonalariga moliyaviy resurslar ajratish.

Yevropa mamlakatlarining siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy, ishbilarmon, madaniy-gumanitar va tahliliy doiralari vakillari bilan doimiy muzokaralar olib borish, ularga O‘zbekistonda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar to‘g‘risida xolis axborot yetkazish.

Xorijda keng maqsadli targ‘ibot tadbirlarini, jumladan, “O‘zbekiston madaniyat kunlari”, davra suhbatlari, ko‘rgazmalarni o‘tkazish.

Chet ellarda O‘zbekistonning yutuqlarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish uchun Vatandoshlar resurslarini jalb qilish.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqaro media makonda xolisona yoritishga qaratilgan hamkorlikni kuchaytirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining o‘zaro hamkorligi va sohada mavjud muammolarni o‘rganish, ularni bartaraf etish hamda istiqbollarni belgilab olish uchun qulay media-maydon yaratish.

Xalqaro axborot bozorlariga chiqish, O‘zbekistonning ijobiy imidjini ilgari surish mexanizmlari, vositalari va kanallarini birgalikda ishlab chiqish, xalqaro maydonda PR-sheriklik loyihalarini amalga oshirish maqsadida yetakchi xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro aloqalarni rivojlantirish va hamkorlik aloqalarini o‘rnatish.

99-maqсад: Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Janubiy Osiyo, Yaqin, O‘rta Sharq va Afrika davlatlari bilan iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikning huquqiy asoslarini takomillashtirish (Saudiya Arabiston, BAA, Quvayt, Qatar, Pokiston, Hindiston, Eron).

MDH hududidagi va Amerika mintaqasidagi kuchli iqtisodga erishgan davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikning huquqiy asoslarini takomillashtirish.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyatini tartibga solishning

zamonaviy mexanizmlarini joriy etish.

Diplomatik xizmat faoliyatini zamon talablaridan kelib chiqib qayta ko'rib chiqish.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish tizimini takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama hamkorligining shartnomaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni muvofiqlashtirish.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini yagona tarzda hisobga olish, xatlovdan o'tkazish va ularning amalga oshirilishini monitoring qilishga mo'ljallangan elektron ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish.

100-maqсад: O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari tomonidan O'zbekistonning chet ellardagi fuqarolariga xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish.

Tashqi ishlar vazirligi, xorijdagi O'zbekiston Respublikasi va chet el fuqarolariga konsullik xizmatlarini ko'rsatishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish.

O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining xizmat ko'rsatish qamrovini kengaytirish.

IV AMALIY MASHHULOT MATERIALAR

1–Mavzu: Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o'rni.

Reja:

1. Falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o'rni.
2. Dunyoni falsafiy idrok etishning o'ziga xos xususiyati.
3. Tarkibiy funktsional tahlil.
4. Globalizatsiya va falsafaning dolzarb muammolari

Amaliy mashg'ulot mashg'ulotini olib borish tartibi: Tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda kichik guruqlar shakllantiriladi, mavzu buyicha asosiy tushunchalarni javdal va sxemalari shakllantiriladi. Tinglovchilar o'zlari bajargan amallarini individual yoki guruhiy tarzda izohlab,himoya etadilar.

Amaliy mashg'ulot mashg'ulotini olib borishda qo'llaniladigan metodlar: “Bumerang”, “Charxpalak”, “Venna diagrammasi”, “BBB” “FSMU”, “Tushunchalar izoxi”

“BAHS-MUNOZARA” METODI

Metod ikki undan ortiq shaxslar tomonidan muayyan vaqt oralig'i va qat'iy qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan og'zaki bahs bo'lib, tinglovchi larda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha erkin, asosli fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quv mashg'ulotlarida bahs-munozaradan foydalanishda mavzuga doir ma'lum masalalar hal qilinadi.

Metodni qo'llashda quyidagi tartibda ish ko'rildi:

Izoh: 1) bir tinglovchi ga ikki marta so'zga chiqishga ruxsat etilmaydi;

2) o'qituvchi (boshlovchi) tinglovchi larning mavzudan chetga chiqmasliklarini qat'iy nazorat qilib boradi, bordi-yu, shunday holatlar sodir etilsa, so'zlovchilar bu haqida ogohlantiriladi.

Bahs-munozara uchun tanlangan mavzu o'quvchi (talaba)larga oldindan ma'lum qilinadi

Jarayon o'qituvchi (yoki boshlovchi) tomonidan boshqarilib boriladi

O'quvchi (talaba)lar individual, guruh (juftlik) nomidan bahs yuritilayotgan masala bo'yicha shaxsiy mulohazalarни bayon qiladi

Baxsda masalanimg mohiyati, yechimi bo'yicha bir biriga zid fikirlar ilgari suriladi

Yechim bo'yicha asosiy fikri bayon etadigan o'quvchi (talaba)larga 10 daqiqa, qo'shimcha qilish istagida bo'lganlarga esa 5 daqiqadan vaqt beriladi

O'qituvchi (boshlovchi) tomonidan bahs-munozara yuzasidan yakuniy xulosa bildiriladi

BILIB OLDIM” (BBB) METODI

Metod tinglovchilarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo'llashda tinglovchi lar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishslashda mashg'ulot yakunida guruhrular tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.

Guruhrular faoliyati quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:



Har bir guruh umumiyyatli sxema asosida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi; mashg'ulot yakunida loyiha bandlari bo'yicha guruhrarning munosabatlari umumlashtiriladi

Guruhrular umumiyyatli sxemaning alohida bandlari bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarib, g'oyalarni umumlashtiradi

2–Mavzu: Borliq falsafasi va uning zamonaviy kontseptsiyalari.

Reja:

1. Borliq tushunchasi, uning asosiy xususiyatlari va tamoyillari.
2. Borliq to'g'risidagi Sharq allomalarining qarashlari.
3. G'arb falsafasida borliq kategoriyasi.
4. Zamonaviy falsafda borliq to'g'risidagi kontseptsiyalar.

Amaliy mashg'ulot mashg'ulotini olib borish tartibi: Tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda kichik guruhlar shakllantiriladi, mavzu buyicha asosiy tushunchalarni javdal va sxemalari shakllantiriladi. Tinglovchilar o'zлari bajargan amallarini individual yoki guruhiy tarzda izohlab,himoya etadilar.

Amaliy mashg'ulot mashg'ulotini olib borishda qo'llaniladigan metodlar:
“Bumerang”, “Charxpalak”, “Venna diagrammasi”, “BBB” “FSMU”,
“Tushunchalar izoxi”

“BAHS-MUNOZARA” METODI

Metod ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan muayyan vaqt oralig'i va qat'iy qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan og'zaki bahs bo'lib, tinglovchi larda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha erkin, asosli fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quv mashg'ulotlarida bahs-munozaradan foydalanishda mavzuga doir ma'lum masalalar hal qilinadi.

Metodni qo'llashda quyidagi tartibda ish ko'rildi:

Izoh: 1) bir tinglovchi ga ikki marta so'zga chiqishga ruxsat etilmaydi;
2) o'qituvchi (boshlovchi) tinglovchi larning mavzudan chetga chiqmasliklarini qat'iy nazorat qilib boradi, bordi-yu, shunday holatlar sodir etilsa, so'zlovchilar bu haqida ogohlantiriladi.

Bahs-munozara uchun tanlangan mavzu o'quvchi (talaba)larga oldindan ma'lum qilinadi

Jarayon o'qituvchi (yoki boshlovchi) tomonidan boshqarilib boriladi

O'quvchi (talaba)lar individual, guruh (juftlik) nomidan bahs yuritilayotgan masala bo'yicha shaxsiy mulohazalarni bayon qiladi

Baxs masalaning mohiyati , yechimi bo'yicha bir biriga zid fikirlar ilgari suradi

Yechim bo'yicha asosiy fikrni bayon etadigan o'quvchi (talaba)larga 10 daqiqa, qo'shimcha qilish istagida bo'lganlarga esa 5 daqiqadan vaqt beriladi

O'qituvchi (boshlovchi) tomonidan bahs-munozara yuzasidan yakuniy xulosa bildiriladi

BILIB OLDIM” (BBB) METODI

Metod tinglovchilarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo'llashda tinglovchi lar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg'ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.

Guruhlar faoliyati quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:



Har bir guruh umumiyligida sxema asosida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi;
mashg'ulot yakunida loyiha bandlari bo'yicha guruhlarning munosabatlari umumlashtiriladi

Guruhlar umumiyligida sxemaning alohida bandlari bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarib, g'oyalarni umumlashtiradi

3–Mavzu: Ilmiy bilish metodlari.

Reja:

1. Ilmiy bilish va uning o'ziga xosligi.
2. Bilish metodlari va metodologiyasi.
3. Bilishning falsafiy metodlari va ularni amaliyotda qo'llash.
4. Falsafada nazariya va amaliyot birligi: prakseologiya.

Amaliy mashg'ulot mashg'ulotini olib borish tartibi: Tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda kichik guruhlар shakllantiriladi, mavzu buyicha asosiy tushunchalarni javdal va sxemalari shakllantiriladi. Tinglovchilar o'zlari bajargan amallarini individual yoki guruhiy tarzda izohlab,himoya etadilar.

Amaliy mashg'ulot mashg'ulotini olib borishda qo'llaniladigan metodlar: “Bumerang”, “Charxpalak”, “Venna diagrammasi”, “BBB” “FSMU”, “Tushunchalar izoxi”

“BAHS-MUNOZARA” METODI

Metod ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan muayyan vaqt oralig'i va qat'iy qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan og'zaki bahs bo'lib, tinglovchi larda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha erkin, asosli fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quv mashg'ulotlarida bahs-munozaradan foydalinishda mavzuga doir ma'lum masalalar hal qilinadi.

Metodni qo'llashda quyidagi tartibda ish ko'rildi:

Izoh: 1) bir tinglovchi ga ikki marta so'zga chiqishga ruxsat etilmaydi;
2) o'qituvchi (boshlovchi) tinglovchi larning mavzudan chetga chiqmasliklarini qat'iy nazorat qilib boradi, bordi-yu, shunday holatlar sodir etilsa, so'zlovchilar bu haqida ogohlantiriladi.

Bahs-munozara uchun tanlangan mavzu o'quvchi (talaba)larga oldindan ma'lum qilinadi

Baxs munozara uchun tanlangan mavzu o'quvchi (talaba)larga oldindan malum qilinadi

Jarayon o'qituvchi (yoki boshlovchi) tomonidan boshqarilib boriladi

O'quvchi (talaba)lar individual, guruh (juftlik) nomidan bahs yurutilayotgan masala bo'yicha shaxsiy mulohazalarni bayon qiladi

Bahsda masalaning mohiyati, yechimi bo'yicha bir-biriga zid fikrlar ilgari suriladi

Yechim bo'yicha asosiy fikrni bayon etadigan o'quvchi (talaba)larga 10 daqiqa, qo'shimcha qilish istagida bo'lganlarga esa 5 daqiqadan vaqt beriladi

O'qituvchi (boshlovchi) tomonidan bahs-munozara yuzasidan yakuniy xulosa bildiriladi

“BILAMAN. BILISHNI XOHLAYMAN.

BILIB OLDIM” (BBB) METODI

Metod tinglovchilarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo'llashda tinglovchi lar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg'ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.

Guruhlar faoliyati quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:



Har bir guruh umumiyligida sxema asosida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriplarni bajaradi; mashg'ulot yakunida loyiha bandlari bo'yicha guruhlarning munosabatlari umumlashtiriladi

Guruhlar umumiyligida sxemaning alohida bandlari bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriplarni bajarib, g'oyalarni umumlashtiradi

4–Mavzu: Hozirgi zamon metodologiyasi.

Reja:

1. Metod, metodika va metodologiya: falsafiy tahlil.
2. Kumatoid – yangi metod sifatida.
3. Abduktsiya va keys stadi falsafani o'rganishda muhim metod sifatida.
4. Hozirgi zamon metodologiyasining yo'nalishlari va printsiplari.

Amaliy mashg'ulot mashg'ulotini olib borish tartibi: Tinglovchilardan ixtiyoriy ravishda kichik guruqlar shakllantiriladi, mavzu buyicha asosiy tushunchalarni javdal va sxemalari shakllantiriladi. Tinglovchilar o'zlari bajargan amallarini individual yoki guruhiy tarzda izohlab,himoya etadilar.

Amaliy mashg'ulot mashg'ulotini olib borishda qo'llaniladigan metodlar: “Bumerang”, “Charxpalak”, “Venna diagrammasi”, “BBB” “FSMU”, “Tushunchalar izoxi”.

“BAHS-MUNOZARA” METODI

Metod ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan muayyan vaqt oralig'i va qat'iy qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan og'zaki bahs bo'lib, tinglovchi larda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha erkin, asosli fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quv mashg'ulotlarida bahs-munozaradan foydalananishda mavzuga doir ma'lum masalalar hal qilinadi.

Metodni qo'llashda quyidagi tartibda ish ko'rildi:

Izoh: 1) bir tinglovchi ga ikki marta so'zga chiqishga ruxsat etilmaydi;
2) o'qituvchi (boshlovchi) tinglovchi larning mavzudan chetga chiqmasliklarini qat'iy nazorat qilib boradi, bordi-yu, shunday holatlar sodir etilsa, so'zlovchilar bu haqida ogohlantiriladi.

Bahs-munozara uchun tanlangan mavzu o'quvchi (talaba)larga oldindan ma'lum qilinadi

Bahs-munozara uchun tanlangan mavzu o'quvchi (talaba)larga oldindan ma'lum qilinadi

Jaravon o'qituvchi (voki boshlovchi) tomonidan boshqaarilib horiladi

O'quvchi (talaba)lar individual, guruh (juftlik) nomidan bahs yuritilayotgan masala bo'yicha shaxsiy mulohazalarni bayon qiladi

Bahsda masalaning mohiyati, yechimi bo'yicha bir-biriga zid fikrlar ilgari suriladi

Yechim bo'yicha asosiy fikri bayon etadigan o'quvchi (talaba)larga 10 daqiqa, qo'shimcha qilish istagida bo'lganlarga esa 5 daqiqadan vaqt beriladi

O'qituvchi (boshlovchi) tomonidan bahs-munozara yuzasidan yakuniy xulosa bildiriladi

BILIB OLDIM” (BBB) METODI

Metod tinglovchilarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo'llashda tinglovchi lar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg'ulot yakunida guruhlар tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.

Guruhlар faoliyati quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:



Har bir guruh umumiyyatli sxema asosida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi; mashg'ulot yakunida loyiha bandlari bo'yicha guruhlarning munosabatlari umumlashtiriladi

Guruhlар umumiyyatli sxemaning alohida bandlari bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarib, g'oyalarni umumlashtiradi

V GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilida sharxi	Ingliz tilidagi sharxi
Agnostitsizm	inson ob'ektiv borliqni to'liq bilishi mumkin emas, deb hisoblaydigan falsafiy ta'limot.	Agnosticism is a philosophical doctrine that holds that man cannot fully comprehend objective existence.
Antissientizm	fanning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini salbiy baholaydigan falsafiy nuqtai nazar.	Anticentism a philosophical view that negatively assesses the role and importance of science in the life of society.
Antropogen	inson faoliyati bilan bog'liq.	Anthropogenic related to human activity.
Antropotsentrizm	dunyoni bilishda insonni ustun qo'yuvchi falsafiy yondashuv.	Anthropocentrism is a philosophical approach that puts man first in his knowledge of the world.
Aprior	tajribadan tashqarida. Inson tafakkurida tajribada ko'rilmunga qadar, tajribadan qat'iy nazar paydo bo'lgan obraz, g'oya, tushuncha.	Aprior is out of the experience. An image, an idea, a concept that emerges in the human mind, regardless of experience, until it is seen in practice.
Ateizm	xudoning borligini inkor etuvchi falsafiy nuqtai nazar.	Atheism is a philosophical view that denies the existence of God.
Atribut	xossa.	Attribute property.

Belgi	boshqa bir predmet, xossa yoki munosabatni ifodalaydigan va muayyan xabarni uzatish, saqlash yoki unga ishlov berishda ishlataladigan moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet.	A symbol is another object, a material, emotionally perceptible object that represents a property or relationship and is used to convey, store, or process a particular message.
Garmoniya	bir butun narsa qismlarining o‘zaro muvofiqligi	Harmony is the harmony of the parts of a whole
Germenevtika	falsafada – tarix, madaniyatni, o‘zga individuallikni tushunish san’ati.	Hermeneutics in philosophy is the art of understanding history, culture, and individuality.
Gipotetik	ehtimol tutilgan, faraz qilingan, taxmin (gipoteza)ga asoslangan	The hypothetical probability is based on an assumed, hypothesized, hypothesis
Globallashuv	ijtimoiy hayotning turli jabhalarida yaxlit tuzilmalarning dunyo miqyosida shakllanish jarayoni.	Globalization is the process of global formation of integrated structures in various spheres of social life.
Globalistika	globallashuv va uning oqibatlari mohiyatini anglab etishga qaratilgan ilmiy va falsafiy tadqiqotlar fanlararo sohasi.	Globalism is an interdisciplinary field of scientific and philosophical research aimed at understanding the nature of globalization and its consequences.
Gnoseologiya	bilish nazariyasi.	Theory of knowledge of

		epistemology.
Deduksiya	tadqiqot yoki tavsiflash metodi, usuli bo‘lib, bunda ayrim qoidalar umumiy xulosalar, aksiomalar, qoidalar, qonunlardan tadrijiy yo‘l bilan keltirib chiqariladi.	Deduction is a method of research or description, in which certain rules are gradually derived from general conclusions, axioms, rules, and laws.
Dezintegratsiya	butunning ayrim qismlarga parchalanishi.	Disintegration is the disintegration of a whole into individual parts.
Deizm	Xudo dunyoni yaratgach, unda ishtirok etmaydi va uning voqealari tabiiy kechishiga aralashmaydi, deb hisoblaydigan falsafiy nuqtai nazar.	Deism is a philosophical view that believes that when God creates the world, he does not participate in it and does not interfere with the natural course of events.
Determinizm	barcha voqealar va hodisalarining qonuniyligi va sababiy bog‘langanligi haqidagi falsafiy ta’limot.	Determinism is the philosophical doctrine of the legitimacy and causality of all events.
Dialektika	harakat, rivojlanish, o‘zgarish haqidagi falsafiy ta’limot	Dialectics is a philosophical doctrine of movement, development, and change
Diskret	uzlukli.	Discrete intermittent.
Differensiatsiya	butunning turli-tuman qismlar, bosqichlar, shakllarga bo‘linishi, parchalanishi, ajralishi.	Differentiation is the division of the whole into different parts, stages, forms, fragmentation, separation.
Ideal	mutlaq barkamollik, bunday	The ideal is absolute

	barkamollik haqidagi tasavvur.	perfection, the idea of such perfection.
Ierarxiya	bir narsaning funksional ahamiyati yoki xizmat mavqeiga ko‘ra ikkinchi narsaga, uchinchi narsaga va hokazolarga bo‘ysunishi.	Hierarchy is the subordination of one thing to another, to a third, and so on, depending on its functional significance or position.
Izotrop	barcha yo‘nalishlarda bir xil.	The isotropy is the same in all directions.
Indeterminizm	determinizmga qarama-qarshi ta’limot.	Indeterminism is the opposite of determinism.
Integratsiya	birlashish, birikish, yaxlit bir butunning shakllanishi.	Integration merger, amalgamation, formation of a whole.
Introvertiv	o‘ziga, o‘z ichki dunyosiga qarab mo‘ljal oluvchi.	An introvert is one who is focused on himself, on his inner world.
Imitatsiya	taqlid qilish, soxtalashtirish.	Imitation, falsification.
Materializm	dunyoning moddiyligidan va ongdan qat’iy nazar mavjudligidan kelib chiqadigan falsafiy yo‘nalish.	is a philosophical trend that stems from the existence of the world regardless of its materiality and consciousness.
Metafizika	Gegeldan oldingi va hozirgi G‘arb falsafasida borliqning o‘ta hissiy tamoyillari va asoslari haqidagi fan. Falsafaning sinonimi sifatida ishlataladigan atama.	is the science of the very emotional principles and foundations of existence in pre-Gegel and modern Western philosophy. A term used as a synonym for philosophy.

Metodologiya	metod haqidagi ta'limot, bilishning yangi metodlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish.	Methodology The doctrine of method, the development of principles for the creation of new methods of cognition.
Negativ	salbiy, biror narsaga zid.	the opposite of something. Nomenclature is the essence of observation.
Noumen	mushohada yo'li bilan anglash mumkin bo'lgan mohiyat.	is a field of intelligence or a state of the biosphere in which the rational activity of human beings becomes an important factor in the development of the biosphere.
Noosfera	aql-idrok sohasi yoki biosferaning shunday bir holatiki, bunda odamlarning oqilona faoliyati biosfera rivojlanishining muhim omiliga aylanadi.	is a field of intelligence or a state of the biosphere in which the rational activity of human beings becomes an important factor in the development of the biosphere.
Paradigma	mazkur davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan muayyan ilmiy tadqiqot yo'nalishini belgilovchi prinsiplar majmui.	is a set of principles that define a particular area of scientific research recognized by the scientific community during this period
Ratsionalizm	aqlni bilish va odamlar xulq-atvorining negizi deb e'tirof	a philosophical trend that recognizes reason and recognizes it

	etadigan falsafiy yo‘nalish.	as the basis of human behavior
Substansiya	birinchi asos, barcha narsalar va hodisalarining mohiyati.	is the first basis, the essence of all things and events.
Tabu	biron-bir narsa, harakat, so‘zga nisbatan belgilanadigan diniy taqiq.	is a religious prohibition on anything, action, or speech
Evolusion epistemologiya	bilishni jonli tabiat evolyusiyasining momenti va uning mahsuli sifatida o‘rganuvchi fan.	epistemology is the study of knowledge as a moment in the evolution of living nature and its products.
Futurologiya	kelajak haqidagi fan.	is the science of the future
Ekzistensializm	diqqat markazida hayotning ma’nosи, inson erkinligi va mas’uliyati muammolari turuvchi falsafiy yo‘nalish.	is a philosophical movement that focuses on the meaning of life, human freedom and responsibility.
Epistemologiya	bilish haqidagi falsafiy ta’limot.	The philosophical doctrine of epistemology

VI. FOYDANILADIGAN ADABIYOTLAR.

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2016. 53b
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017 484 b
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: 2017. 28 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. 2-nashr –T.: Ma’naviyat, 2015, 176 b.

Asosiy adabiyotlar:

5. Falsafa. Mamashokirov S. Tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.
6. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
7. Shermuxamedova N.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.
8. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya-bilish nazariyasi.-T.: Noshir, 2009.
9. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi.-T.: Noshir, 2013 , 720 b
10. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.
11. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi.T.: Noshir, 2017

Qo‘srimcha adabiyotlar:

12. Abu nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. -T.: Abdulla Qodiridy nomidagi nashriyot, 1997.
13. Abu Ali ibn Sino. Xay ibn yakzon o‘g‘li. www.Ziyo.net.uz
14. Jaloliddin Rumi. Ichingdag'i ichingdadir. -T.: 2015
15. Abdurauf Fitrat Oila.-T.: 2014
16. Allayarova S. Badiiy ijod germenevtikasi –T.:Universitet, 2011 .
17. Allayarova S.N. Falsafiy germenevtikaning metodologik jihatlari. Fals.fan. nomz. Diss.–T.: Universitet, 2010.
18. Aristotel. Sochineniya V 4-x tomax. -M.: 1975. ch.1.
19. Asmus V. Antichnaya filosofiya. -M.: 1999.
20. Bozarov D. Sinergetik paradigma. –T.: Tafakkur, 2010.
21. Yoqubova M. Jamiyat axborotlashuvning falsafiy asoslari. Fals.fan. nomz.

Diss.–T.: Universitet, 2007.

- 22.Yoqubova M. Fan axborotlashuvining jamiyat rivojidagi o‘rnini – T.:”Star – Poligraf”, 2010.
- 23.Jo‘raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T.: Ma’naviyat, 2008.
- 24.Izzetova E., Po‘latova D. Filosofiya. – T.: Sharqshunoslik, 2012.
- 25.Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
- 26.Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. –T.: Fan, 2009.
- 27.Musaev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy huquqiy asoslari. –T.: O‘zbekiston, 2007.
- 28.Muitov D. Axborot asrida yoshlarning dunyoqarashi T.: “Ma’naviyat” 2013
- 29.Otamurodov S. Globallashuv va millat. – T.: Yangi asr avlodni. 2008.
- 30.Ochiliev A. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar. – T.: O‘zbekiston, 2004.
- 31.Ochilova B. Milliy-ma’naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqlol, 2009.
- 32.Plutarx. Saylanma. Z.A’lam va Urfon Otajon tarjimasi. – T.: Yangi asr avlodni, 2006.
- 33.Ruzmatova G.M. Falsafa tarixi : G’arb mamlakatlari uyg’onish va yangi davr falsafiy nafakkuri xususiyatlari. “Yangi nashr” - T.:2015.
- 34.Soifnazarov I. Kurs leksiy po filosofii. – T.: TDIU, 2004.
- 35.To‘rayev B.O. Hozirgi zamon tabiatshunosligi konsepsiyalari.-Toshkent, tafakkur, 2009.
- 36.To‘rayev B.O, Borliq: mohiyati, shakllari va turlari.-T.: Falsafa va huquq instituti.2011.
- 37.Qahhorova Sh. Global ma’naviyat – globallashuvning g‘oyaviy asosi. – T.:Tafakkur, 2009.
- 38.Qurbanova L. Borliq falsafasi. –Andijon: ADU, 2009

Elektron ta’lim resurslari:

www.favlasuf.uz

www.kitobxon.com

<http://filosof.historic.ru>

<https://philpapers.org/>

<https://plato.stanford.edu/>

<https://elibrary.ru/>

<https://www.iep.utm.edu/>

<https://philosophynow.org/>

<http://platona.net/>

www.mirnauki.ru

nbpublish.com

socialphysics.narod.ru

anthropology.rchgi.spb.ru

new.philos.msu.ru

vk.com/philosophy_msu

www.youtube.com/user/philosophymsu

iph.ras.ru

philos.nsu.ru

<http://iph.ras.ru/elib.htm>

<http://www.historyofphilosophy.net/home>

<http://www.iep.utm.edu/>

<http://philosopher.org.uk/>

<http://forums.philosophyforums.com/>

<http://ziyonet.uz>

<http://pedagog.uz>

<http://dmvn.mexmat.net/>